**“TASDIQLAYMAN”**
**Pedagogik mahorat markazi direktori**
**_____ T.Turg‘unov**
**6-yanvar 2026 -yil**

**MAKTABGACHA, BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS TA’LIM METODIKALARI KAFEDRASI O‘QITUVCHISI JO‘RAYEVA MAFTUNAXONNING**

**UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH (*MALAKA OSHIRISH*) KURSI UCHUN UMUMKASBIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH BLOKI BO‘YICHA**

# O‘QUV –USLUBIY MAJMUA

**“KIRITILDI”**
**Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi mudiri, v.v.b.**
**_____ N.Karimova**
**2026-yil “5” yanvar**

**“KELISHILDI”**
**Akademik faoliyat bo‘yicha direktor o‘rinbosari**
**_____ O.Qurbonova**
**2026-yil “5” yanvar**

**Andijon-2026 yil**

## II. UMUMKASBIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

## 2.1. “PEDAGOGLARNING KASBIY RIVOJLANISHI VA O‘ZARO HAMKORLIK” MODULI

### 1-mavzu. Kasbiy faoliyatni rivojlantirishda individual va hamkorlik faoliyatini tashkil etish metodikasi riy mashg‘ulot)

**Mashg‘ulotning texnologik xaritasi**

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **O‘quv bloki** | **II. UMUMKASBIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH** | | | | |
| **O‘quv modul** | 2.1. “Pedagoglarning kasbiy rivojlanishi va o‘zaro hamkorlik” | | | | |
| **Mavzu** | Kasbiy faoliyatni rivojlantirishda individual va hamkorlik faoliyatini tashkil etish metodikasi | | | | |
| **Davomiyligi** | 80 daqiqa | | | | |
| **Mashg‘ulotning maqsadi** | • Refleksiv amaliyotni boyitish maqsadida foydalanish mumkin bo‘lgan turli modellar va sikllarni tushuntirish;<br>• Ma’lum bir auditoriyadagi dars jarayoni ssenariysini tahlil qilishda bitta model yoki sikldan foydalangan holda darsni takomillashtirishning ikkita taxminiy yo‘lini belgilashni o‘rgatish;<br>• O‘z dars faoliyatida amaliyotga tatbiq etish uchun mo‘ljallangan shaxsiy refleksiv amaliyot rejasini tuzish ko‘nikmalarini shakllantirish. | | | | |
| **Mashg‘ulot bosqichlari** | **Faoliyat tavsifi** | **Vaqt, daqiqa** | **Metod-lar** | **Zarur jihoz lar** | **Natija** |
| **1. Tashkiliy qism** | - Salomlashish;<br>- mavzu va reja bilan tanish-tirish. | 5 | Suhbat, tushunti - rish | 1-slayd | O‘qituvchilar mashg‘ulotni o‘rganishga tayyor bo‘lishadi. |
| **2. Motivatsiya** | Refleksiv va uzluksiz takomillashuv o‘qituvchilar uchun o‘z kasbiy faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilarga ushbu mavzuni tanishtirish maqsadida ularga | 5 | Muam-moli vaziyat yaratish, muhoka -ma | 2-slayd | O‘qituvchilar mavzuga qiziqib, ishtirok etishga rag‘batlanadi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | quyidagi gap boshlanishlarini taqdim eting va ularni o‘z refleksiv jurnallarida davom ettirishni so‘rang:<br>Refleksiya mening kasbiy rivojlanishimning muhim bo‘lagi hisoblanadi. Chunki ...<br>O‘z dars o‘tishim va rivojlanishim xususida refleksiv mushohoda yuritishimda qo‘llaniladigan bitta usul bu ...<br>O‘z dars o‘tish faoliyatimda refleksiya va takomillashuv haqida meni qiziqtiruvchi bitta savol bu ...<br>O‘z dars o‘tish faoliyatim xususida yanada yaxshiroq refleksiv mushohoda yuritishim uchun men bilmoqchi bo‘lgan bitta narsa bu ...<br>O‘qituvchilar ushbu bayonotlarga mashg‘ulot so‘ngida qayta murojaat qilishadi va ko‘rib chiqishadi. | | | | |
| **3. Nazariy qism** | O‘qituvchilarga Prezident maktablarida o‘quvchilarni o‘qitish, kasb-hunarga yo‘naltirish, ularda tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini | 35 | Taqdi - mot, ko‘rgaz ma-li tushun- tirish | 4-24- slaydl ar | O‘qituvchilar kasbiy faoliyatni rivojlantirishd a individual va hamkorlik faoliyatini tashkil etish |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | shakllantirish, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha to‘plangan ilg‘or tajribalarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga keng tatbiq etish bo‘yicha o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish; Refleksiya va uzluksiz kasbiy rivojlanishning rolini tushuntirish; Kasbiy faoliyatni bosqichma-bosqich rivojlantirish sikllari: Kolbning tajriba asosida o‘rganish sikllari hamda Gibb, Brukfield, Richardlarning reflektiv modellari asosidagi muhim kuzatuvlar tahlilidan kasbiy amaliyotda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish. | | | | metodikasini nazariy jihatdan o‘rganadi. |
| **4. Amaliy mashg‘ulot** | - Guruhlarda ishlash: Har bir guruhga dars rejasini tuzish vazifasini berish. | 15 | Guruhlarda ishlash | 1-tarqatma; 29-30slayd | O‘qituvchilar mavzu yuzasidan amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi. |
| **5. Tahlil va muhokama** | - Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar;<br>- Qiyinchiliklarni muho-kama qilish;<br>- Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish | 10 | Suhbat, muhokama, tahlil | 29-30slayd; 3-ilova | O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **6. Refleksiya** | Mazkur mashg‘ulotning Kirish bosqichida o‘qituvchilar tugallanmagan gaplar ustida ishlashdi. Mazkur mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha o‘rganganlari xususida refleksiv mushohoda yuritish uchun o‘qituvchilar Kirish mashqida yozganlariga qayta murojaat qilishadi va nimalarni yozishganini ko‘rishadi. Yozganlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritishadi.<br>Agar vaqt yetsa, o‘qituvchilar ular ilgari ishlatgan “Ilgari ... deb o‘ylar edim. Hozir bo‘lsa, .... degan fikrdaman” fikrlash rutinasiini bajarishlari mumkin.<br>Ushbu oddiy fikrlash rutinasida o‘qituvchilar mavzu bo‘yicha nimalarni o‘rganganliklari haqida fikr yuritishadi va o‘z refleksiv jurnallarida quyidagi gaplarni to‘ldirishadi:<br>*Ilgari ... deb o‘ylardim.*<br>*Hozir bo‘lsa, ... degan fikrdaman.*<br>Ushbu fikrlash rutinasi o‘qituvchilarga mavzu bo‘yicha dastlabki | 5 | Refleksiya usullari | 31-slayd | O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | qarashlari va g‘oyalarini qayta ko‘rib chiqish hamda mavzkur mashg‘ulotda bajarilgan faoliyat turlari va topshiriqlar orqali fikrlari, qarash va g‘oyalaridagi o‘zgarishlarni payqash imkonini beradi. Gaplarni tugatib bo‘lishgach, o‘qituvchilar o‘z qaydlari bilan butun guruh oldida o‘rtoqlashishi mumkin. | | | | |
| **7. Yakunlash va baholash** | - Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish.<br>- Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish | 5 | Suhbat | 32-slayd | O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlarga yo‘naltiriladi. |

**Ilovalar**

**1-ilova.**Tinglovchilarga quyidagi ko‘rinishdagi savollar bilan murojat qilinadi:

1. O‘z kasbiy rivojlanishimiz yo‘lida keyingi qadamlarni qanday qilib aniqlashtiramiz?
2. Kasbiy rivojlanishni kafolatlash maqsadida refleksiv faoliyatning qaysi modellaridan foydalanish mumkin?
3. Kasbiy faoliyatdagi ahamiyatga molik voqea-hodisalar (critical incidents) nima va ulardan refleksiyani rag‘batlantirish yo‘lida qanday foydalanish mumkin?

**2-ilova. Guruhlar uchun topshiriqlar.** O‘z tajribangiz davomida o‘tgan bitta dars ssenariysini tahlil qilish maqsadida bitta refleksiv amaliyot modelini yoki siklini tanlang yoki o‘z refleksiya modelingizni yarating. Refleksiv amaliyot yordamida ushbu darsni yanada yaxshilash maqsadida nimalarni amalga oshirish mumkinligi bo‘yicha harakatlar rejasini tuzing. Harakatlar rejasi o‘z ichiga aniq bosqichlarni va ularni bajarish uchun ajratilgan vaqtni ko‘rsatishi kerak.

## 3- ilova. 6B tarqatma material. Refleksiya modellari

| **Gibbs refleksiya sikli** | **Brukfildning to‘rtta linzasi** | **Ritxart refleksiya sikli** |
|---|---|---|
| **Bosqichlar:** | **Perspektivalar (nuqtai-nazarlar):** | **Bosqichlar:** |
| **1. Tasvir:** – Nima sodir bo‘ldi?<br>**2. Hissiyotlar** – Nima haqida o‘yladingiz yoki nimalarni his qildingiz?<br>**3. Baholash** – Ushbu tajriba (voqea-hodisa)ning yaxshi va yomon taraflari nima edi?<br>**4. Tahlil** – Ushbu vaziyatdan qanday ma’no/xulosa chiqarish mumkin?<br>**5. Xulosa:** – Nimalarni boshqacha bajargan bo‘lardingiz?<br>**6. Harakatlar rejasi:** – Kelajakda shu singari vaziyatlarni qanday uddalaysiz? | **1. Shaxsiy linza** – Shaxsining o‘z tajribalari va taxminlari xususida refleksiv mushohoda qilishi.<br>**2. O‘quvchilar linzasi** – O‘quvchilardan keluvchi qayta aloqa va reaksiya haqida o‘ylab ko‘rish.<br>**3. Hamkasblar linzasi** – O‘zaro kuzatuv hamda hamkorlikda ishlash orqali tushunchaga ega bo‘lish.<br>**4. Nazariya linzasi** – Tajribalarni talqin va tahlil qilishda ta’limiy nazariyalardan foydalanish. | **1. Qara** – Nimani payqadingiz?<br>**2. Fikrla** – Nima sodir bo‘layapti deb o‘yladingiz?<br>**3. His qil** – O‘zingizni qanday his qildingiz?<br>**4. Ajablan** – Bu (tajriba, voqea-hodisa) qanday savollarni o‘rtaga tashlamoqda?<br>**5. Harakatga kirish** – Endi nima qilmoqchisiz? |

**Faollashtiruvchi topshiriq**

1. O‘z kasbiy rivojlanishimiz yo‘lida keyingi qadamlarni qanday qilib aniqlashtiramiz?

2. Kasbiy rivojlanishni kafolatlash maqsadida refleksiv faoliyatning qaysi modellaridan foydalanish mumkin?

3. Kasbiy faoliyatdagi ahamiyatga molik voqea-hodisalar (critical incidents) nima va ulardan refleksiyani rag‘batlantirish yo‘lida qanday foydalanish mumkin?

## Reja

1. Prezident maktablarida to‘plangan ilg‘or tajribalarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga keng tatbiq etish bo‘yicha o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish.

2. Refleksiya va uzluksiz kasbiy rivojlanishning roli.

3. Kasbiy faoliyatni bosqichma-bosqich rivojlantirish sikllari

## KIRISH

Kasbiy faoliyatni rivojlantirish – bu har bir professionalning o‘z malakasini oshirish, tajriba orttirish va yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonidir. Bu jarayon, ayniqsa, zamonaviy ish sharoitlarida nafaqat individual, balki jamoaviy hamkorlikda ham amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Kasbiy faoliyatning samarali rivojlanishi uchun har bir mutaxassisning o‘z bilim va ko‘nikmalarini oshirish, shuningdek, jamoaviy ish va hamkorlikda faoliyat yuritish qobiliyati zarur.

Bugungi kunda kasbiy rivojlanish metodikasi nafaqat individual yondashuvni, balki hamkorlik faoliyatini tashkil etishning samarali usullarini ham o‘z ichiga oladi. Individual faoliyat – bu o‘z maqsadlarini amalga oshirishda mutaxassisning o‘zini o‘zi boshqarish va doimiy o‘rganish jarayoni bo‘lsa, hamkorlik faoliyati esa jamoa bilan birgalikda maqsadga erishish, tajriba almashish va umumiy qarorlar qabul qilishni anglatadi. Bu ikkala faoliyat turi, birgalikda amalga oshirilganida, nafaqat kasbiy o‘sishni tezlashtiradi, balki yangi imkoniyatlarni yaratadi.

### 1. Prezident maktablarida to‘plangan ilg‘or tajribalarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga keng tatbiq etish bo‘yicha o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish.

Prezident maktablari – bu nafaqat yuqori malakali o‘qituvchilarni, balki zamonaviy pedagogik metodlar va ilg‘or ta’lim tizimlarini o‘z ichiga olgan muassasalar bo‘lib, ular yoshlarning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Ushbu maktablar o‘quvchilarda nafaqat bilimlarni

o‘zlashtirish, balki ularni kasb-hunarga yo‘naltirish, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish. Prezident maktablarida o‘quvchilarga kasb-hunarga yo‘naltirish masalasi, ularni kelajakda muvaffaqiyatli va ijtimoiy jihatdan faol shaxslar sifatida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish, nafaqat ular uchun kelajakda aniq va barqaror ish o‘rinlarini yaratish, balki jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo‘shish uchun ham zarurdir. Buning uchun o‘qituvchilar turli kasblar haqida ma'lumotlar berib, o‘quvchilarga o‘z qiziqishlarini va kuchli tomonlarini aniqlashda yordam berishlari kerak. Tanqidiy fikrlash va axborotni izlash. Prezident maktablarida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga alohida ahamiyat beriladi. Tanqidiy fikrlash – bu faqat o‘rganilgan ma'lumotni yodlash emas, balki ularni chuqur tahlil qilish, turli nuqtai nazarlardan qarab, muammolarni hal qilishni o‘rganishdir. O‘qituvchilar o‘quvchilarga axborotni izlash, saralash va tahlil qilishni o‘rgatish orqali ularning ilmiy-tadqiqot ishlari va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Ilg‘or tajribalarni tatbiq etish. Prezident maktablarida to‘plangan ilg‘or tajribalar, nafaqat o‘quvchilarning bilimlarini kengaytirishga, balki o‘qituvchilarning pedagogik metodlarini takomillashtirishga ham katta ta'sir ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, yangi o‘qitish metodikalarini qo‘llash, o‘quvchilarga amaliy topshiriqlar berish kabi usullar umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga keng tatbiq etilishi zarur. Shuningdek, o‘qituvchilarning kasbiy malakalarini doimiy ravishda oshirish va zamonaviy ta’lim texnologiyalariga oid bilimlarni yangilab borish muhimdir.

Amaliyotda qo‘llash. O‘quvchilarning olingan bilimlarini amaliyotda qo‘llashni o‘rgatish, ularning kasbiy faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Amaliy ishlar orqali o‘quvchilar o‘rganilgan nazariy bilimlarni haqiqiy hayot sharoitlarida qo‘llashni o‘rganadilar. Shunday qilib, o‘qituvchilar o‘quvchilarga real hayotdagi vaziyatlar asosida topshiriqlar berishlari va ularni echish usullarini ko‘rsatishlari lozim.

Prezident maktablarida to‘plangan ilg‘or tajribalar, o‘quvchilarda kasb-hunar ko‘nikmalarini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishda samarali natijalar beradi. Ushbu tajribalarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga keng tatbiq etish orqali, nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshiramiz, balki ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlari uchun mustahkam poydevor yaratamiz. O‘qituvchilar esa, o‘z kasbiy faoliyatlarini doimiy ravishda rivojlantirish, yangilash va zamonaviy

talablarga moslashtirish orqali nafaqat o‘quvchilarga, balki jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qiladilar.

**2. Refleksiya va uzluksiz kasbiy rivojlanishning roli.** Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchilarning kasbiy malakalarini oshirish, ularning o‘z ustida ishlashga bo‘lgan qiziqishini uyg'otish va o‘zgaruvchan talablar va sharoitlarga moslashishga yordam berish juda muhimdir. Shu sababli, refleksiya va uzluksiz kasbiy rivojlanish, o‘qituvchilarning professional o‘sishida muhim o‘rin tutadi.

**Refleksiya – o‘z-o‘zini anglash va takomillashtirish**. Refleksiya o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash jarayonidir. Bu jarayon o‘qituvchilarga o‘z ishlari va qarorlarini tanqidiy ko‘z bilan ko‘rib chiqish, xatolarni tushunish va ularni tuzatish imkoniyatini yaratadi. Refleksiya o‘qituvchining o‘z malakalarini oshirish va pedagogik uslublarini takomillashtirish uchun zarur vositadir. O‘qituvchi o‘zining o‘quvchilari bilan aloqasini, darsni qanday o‘tkazishini, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini tahlil qilib, keyingi darslarda yaxshilanishlar kiritishi mumkin.

Refleksiya jarayoni o‘qituvchi uchun nafaqat o‘z faoliyatini baholash, balki o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish va o‘qitish metodlarini moslashtirish uchun muhimdir. Bu jarayon o‘qituvchining o‘zgarishga tayyorligini, yangi pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ishtiyoqini va o‘quvchilarga samarali ta’lim berish uchun zarur bo‘lgan tashabbuslarni shakllantiradi.

**Uzluksiz kasbiy rivojlanish.** Uzluksiz kasbiy rivojlanish – bu o‘qituvchining malakasini doimiy ravishda oshirish va yangi bilimlar bilan boyitish jarayonidir. Bu jarayon nafaqat o‘qituvchi o‘zining kasbiy bilimlarini yangilab borishiga, balki pedagogik uslublarini zamonaviy talablarga moslashtirishga ham yordam beradi. Ta’limning zamonaviy sharoitlari va talablarining o‘zgarishi, o‘qituvchidan doimiy ravishda o‘zini rivojlantirishni talab qiladi. Shu sababli, o‘qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalar, metodikalar va o‘qitishning innovatsion usullarini o‘zlashtirishi zarur.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish o‘qituvchining o‘z kasbiga bo‘lgan sadoqatini, ijodkorligini va professionalizm darajasini oshiradi. Shuningdek, o‘qituvchining kasbiy rivojlanish jarayoniga qatnashishi, uning o‘quvchilarga yanada samarali ta’lim berish imkoniyatlarini yaratadi. O‘qituvchi o‘z malakasini oshirish uchun seminarlar, treninglar, konferensiyalar, onlayn kurslar va boshqa ta’lim faoliyatlarida ishtirok etishi lozim.

**Refleksiya va uzluksiz kasbiy rivojlanishning o‘zaro aloqasi.** Refleksiya va uzluksiz kasbiy rivojlanish bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlardir. Refleksiya orqali o‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qilgandan so‘ng, qaysi sohalarda rivojlanishga ehtiyoj borligini aniqlaydi. Bu aniqlash, o‘z navbatida, o‘qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar qidirishga

undaydi. Refleksiya o‘qituvchining o‘z-o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytiradi va unga yangi pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirishga turtki beradi.

O‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qilib, xatolarni va kamchiliklarni aniqlagandan so‘ng, uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayoniga yanada jiddiy kirishadi. Shu bilan birga, yangi bilimlar olish, o‘z ustida ishlash va malakani oshirish jarayonlari o‘qituvchining pedagogik yondashuvlarini yaxshilashda yordam beradi. Bu jarayon o‘qituvchilarga o‘zlarining kasbiy o‘sishlarini to‘g'ri yo‘naltirishga yordam beradi.

Refleksiya va uzluksiz kasbiy rivojlanish ta’lim jarayonining ajralmas qismlaridir. Refleksiya o‘qituvchining o‘z faoliyatini tanqidiy baholash va o‘zgarishlarga tayyor bo‘lishini ta'minlaydi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish esa, o‘qituvchining yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi, pedagogik uslublarini doimiy ravishda takomillashtirishga yordam beradi. Bu jarayonlarning birlashishi o‘qituvchilarning professional o‘sishini tezlashtiradi, ularni ta’lim sohasidagi o‘zgarishlarga moslashtiradi va o‘quvchilarga yanada samarali ta’lim berishga imkon yaratadi. Har bir o‘qituvchi o‘zining kasbiy rivojlanishiga jiddiy yondashishi kerak, chunki bu nafaqat uning o‘zining, balki butun jamiyatning ta’lim darajasining oshishiga hissa qo‘shadi.

### 3. Kasbiy faoliyatni bosqichma-bosqich rivojlantirish sikllari

Uzluksiz kasbiy rivojlanish (UKR) deganda o‘qituvchilarning o‘z kasbiy faoliyati va karerasi davomida o‘z bilim, ko‘nikma va kasbiy kompetensiyalarini saqlashi, takomillashtirishi va kengaytirishi tushuniladi. Mazkur kurs singari UKR kurslarida ishtirok etish orqali, ta’lim beruvchilar eng so‘nggi ta’lim amaliyotlari, texnologiyalari va nazariyalari haqida xabardor bo‘lib turishadi va bu orqali yuqori sifatli ta’lim berishga hamda o‘quvchilarning doimiy rivojlanishda bo‘lgan ta’limiy ehtiyojlarini qondirishga qodir mutaxassis bo‘lib boradilar.

Refleksiya samarali uzluksiz kasbiy rivojlanish kurslarining eng muhim tarkibiy qismlaridan sanaladi. Mazkur kursda o‘qituvchilar strukturalashgan faoliyat turlari davomida barcha mavzular bo‘yicha refleksiv mushohoda yuritdilar. Endi bo‘lsa o‘qituvchilar o‘zlarining dars faoliyati davomidagi tajribalaridan saboq olish hamda o‘zlarining kuchli va zaif tomonlari haqida refleksiv mushohoda yordamida yaxshiroq tushunchaga ega bo‘lishni o‘rganadilar.

#### A) "Nima? Nima qilibdi? Endi nima?”

Bu refleksiv amaliyotning eng oddiy va hamma foydalanishi mumkin bo‘lgan modeli hisoblanadi. Ushbu model orqali refleksiv amaliyotdan o‘qitish amaliyotlarini tahlil qilish, shaxsning o‘z kuchli va zaif tomonlarini,

qiyinchiliklarini hamda kelgusida rivojlantirishga muhtoj bo‘lgan jabhalarini aniqlashtirishda foydalanish mumkin.

Ushbu mashqni bajarish quyidagi bosqichlarda kechadi:

1. O‘qituvchilardan o‘z faoliyatlarida darsda yaqinda sodir bo‘lgan murakkab vaziyatni eslashni va u haqida o‘ylashni so‘rang.

2. O‘qituvchilardan ushbu tajriba haqida quyidagi savollarga o‘z refleksiv jurnallarida javob yozishlarini so‘rang:

**Nima?** Ushbu yaqinda o‘tgan darsingizda nima sodir bo‘ldi?

**Nima qilibdi?**: Nima uchun ushbu voqea Siz uchun muhim ahamiyatga ega? Unda nimani payqadingiz va nimani o‘rgandingiz?

**Endi nima?**: Keyingi safar huddi shu singari vaziyatda nimani boshqacha qilgan bo‘lar edingiz?

1. O‘qituvchilardan o‘z refleksiv qaydlari bilan juftlikda yoki kichik guruhda o‘rtoqlashishni so‘rang.

2. O‘qituvchilardan o‘z tushunchalarini taqqoslashni va yaxshilanish yo‘lida foydalanish mumkin bo‘lgan strategiyalar haqida aqliy hujum yo‘li bilan o‘ylab ko‘rishga undang.

3. Bir nechta o‘qituvchilardan o‘z refleksiv qaydlari bilan o‘rtoqlashishni so‘rang.

4. Bu trenerlar uchun o‘qituvchilarning refleksiv qaydlari (hikoya)larida takrorlanuvchi, tez-tez uchrovchi mavzular, masala yoki muammolarni ko‘rsatib o‘tish uchun yaxshi imkoniyat.

5. Ushbu modeldan doimiy ravishda foydalanish o‘qitish amaliyotlariga baho berish va kasbiy o‘sishni rag‘batlantirishda qanchalik foydali ekanligini ta’kidlang.

6. Yakuniy bosqich sifatida o‘qituvchilar ushbu oddi modeldan foydalanish o‘z kasbiy rivojlanishlarida qanchalik foydali bo‘lishi mumkinligi haqida qisqacha qayd qilib qo‘yishlari mumkin.

Navbatdagi faoliyat turida o‘qituvchilar refleksiya modellarining boshqa turlari va ularni o‘z kasbiy faoliyati kontekstiga moslashtirish va qo‘llash haqida o‘rganishadi.

**Gibbs refleksiya sikli, Brukfildning to‘rt linzasi, Refleksiyaning Ritxart sikli.**

O‘qituvchilar o‘z refleksiv jarayonlarida foydalanishi mumkin bo‘lgan juda ko‘plab tuzilma va modellar mavjud. Ushbu mashqda o‘qituvchilar refleksiyaning uchta modeli: Gibbs refleksiv sikli, Brukfildning to‘rt linzasi, Refleksiyaning Ritxart sikli bilan tanishishadi.

O‘qituvchilarga refleksiya modellari berilgan 2.6B tarqatma material beriladi. Ushbu tarqatma materialda o‘qituvchilarga har bir berilgan model va

ularni amaliyotga tatbiq etishning bosqichlari umumlashtirilgan jadval taqdim etiladi.

O‘qituvchilarni juft bo‘lib ishlagan holda tarqatma materialda berilgan uchta modelni tahlil qilishni so‘ranladi. Shuningdek, o‘qituvchilardan juft bo‘lib ishlagan holda har bir modelni muhokama qilishni va berilgan modellarda ularga nima manzur bo‘lgani va bo‘lmaganligini bir-birlariga izohlab berishlarini so‘raladi.

So‘ng o‘qituvchilar berilgan modellardan bittasini o‘z hayotlarida sodir bo‘lgan muhim voqea hodisa xususida refleksiya qilib ko‘rishda foydalanishi hamda bu orqali ushbu refleksiya modelining o‘qitishdan boshqa kontekstlarda qanday ish berishini sinab ko‘rishlari mumkin. Hayotdagi voqea hodisaga misol sifatida uyda yoki ishda bo‘lgan, o‘zlari rejalashtirgandek chiqmagan yoki kutilmagan salbiy natijaga olib kelgan voqea-hodisa bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilardan qaysi modeldan foydalanganliklarini butun guruhga yoki Padlet orqali aytib berishni hamda ular refleksiya qilgan voqea-hodisaning qisqacha mazmunini aytib berishni so‘raladi.

So‘ng o‘qituvchilardan o‘z refleksiv jurnallariga mazkur mashg‘ulotda foydalangan hamda eng yaxshi deb topgan refleksiya modellari xususida qisqacha qayd kiritib qo‘yishlarini so‘raladi. O‘z qaydlarida nima uchun aynan shu modelni ma’qul ko‘rganliklarini va undan o‘z faoliyatlarida hamda turli kontekstlarda foydalanishga nima uchun eng mosi deb topishlarini izohlashni so‘raladi.

**B) O‘z kasbiy amaliyotimizda refleksiyani rag‘batlantirishda ahamiyatli voqea-hodisalar (critical incidents)dan foydalanish**

Ahamiyatli voqea-hodisalar (critical incidents) bizning kasbiy faoliyatimizda sodir bo‘ladigan kutilmagan, muhim ahamiyatga ega voqealar sanaladi. Bular ichiga biz va o‘quvchilarimiz o‘rtasida sodir bo‘ladigan murakkab vaziyatlar, sinfni boshqarishdagi ikkilanishlar yoki o‘rganishdagi muvaffaqiyatni, imkoniyatlarni ajratib ko‘rsatuvchi voqealarni kiritish mumkin.

Ahamiyatli voqea-hodisalar ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Misol uchun:

- Batafsil rejalashtirilganligiga qaramay o‘quvchilarni faol jalb qila olmagan, muvaffaqiyatsiz o‘tgan dars.
- Darsga putur yetkazgan o‘quvchilar o‘rtasidagi kelishmovchilik.
- Ma’lum bir o‘qitish strategiyasining kutilmagan darajada muvaffaqiyatli bo‘lgan va o‘quvchilarning mukammal darajada tushunishiga yetaklagan vaziyat.

Ahamiyatli voqea-hodisalar refleksiv amaliyotni rag‘batlantirish maqsadida uzluksiz kasbiy rivojlanish dasturlariga integratsiya qilinishi mumkin.

Ahamiyatli voqe-hodisalar qay tarzda kasbiy o‘sishga yetaklashi mumkinligini namoyish qilish uchun o‘qituvchilarni quyidagi jarayondan o‘tishga taklif qiling:

1. Quyidagi ahamiyatli voqeani o‘qituvchilarga taqdim eting.

*O‘qituvchi interaktiv darsni yaratish ustida ancha vaqt sarflaydi. Sa’y-harakatlariga qaramay, o‘quvchilar dars davomida faol bo‘lishmaydi, ko‘pchiligi muhokamalarda ishtirok etmaydi yoki guruhda bajariladigan topshiriqlarni bajarishmaydi. Dars so‘ngida o‘quvchilar o‘rtaga tashlangan savollarga sust javob berishadi va ayrimlari darsdan kutilgan maqsadlarni tushunmaganliklarini e’tirof etishadi.*

2. O‘qituvchilardan ularning ham faoliyatida huddi shu kabi vaziyat bo‘lgan yoki bo‘lmaganligini yoki boshqa hamkasblarida shu kabi vaziyat bo‘lgan-bo‘lmaganligini so‘rang.

3. O‘qituvchilardan nima uchun bu vaziyat ahamiyatli voqea bo‘la olishi va bu vaziyat ularning kasbiy jihatdan o‘sishiga qanday hissa qo‘shishi mumkinligi haqida so‘rang:

➔ Bu ko‘pchilik o‘qituvchilar boshidan o‘tkazgan bezovta qiluvchi tajriba sanaladi.

➔ Bu darsning tuzilishi va o‘tilishi bo‘yicha ko‘p savollarni o‘rtaga tashlaydi.

➔ Bu o‘quvchilarning ishtiroki xususida refleksiv mushohoda yuritish imkonini beradi.

➔ Bu dars jarayoniga turli yondashuvlarni integratsiya qilish kerakligini nazarda tutadi.

1. O‘qituvchilarni refleksiv amaliyotning “Nima?” bosqichi xususida yanada batafsil o‘ylab ko‘rishga chorlang. Masalan, o‘qituvchilar darsning yaxshi natija bergan va yomon natija ko‘rsatgan qismlari ro‘yxatini tuzishi mumkin. O‘quvchilar faol bo‘lmagan darslarda ham o‘quvchilarning diqqatini tortgan va ularni faollashtirgan elementlar bo‘lishi mumkin. Nimalar yaxshi natija berganligi va bermaganligiga diqqat bilan nazar solish o‘qituvchilarga yanada samarali muhokama uchun xizmat qilishi mumkin.

2. O‘quvchilar nima uchun dars davomida faol bo‘lmaganliklarini yaxshiroq tushunish uchun o‘qituvchilarni aniq savollar berishga chorlang. O‘qituvchilar so‘rashi mumkin bo‘lgan savollarga quyidagilar kirishi mumkin:

➔ O‘quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga yo‘l qo‘ymagan faktorlar nimalar edi? Dars mazmuni o‘quvchilar qiziqishiga mos emasmidi? Mashq yoki mavzu nima uchun ularga mos ekanligini ko‘rmadimi? Mavzuni tushunish haddan tashqari qiyinmidi? O‘quvchilarning mavzu bo‘yicha ilgari egallangan bilimlari bormidi?

➔ Dars maqsadlari aniqmidi? Maqsadlar juda keng qamrovlimidi yoki juda osonmidi?

➔ Ko‘rsatmalar aniq va ularni tushunish osonmidi?

➔ O‘quvchilarning turli ehtiyojlariga murojaat qiluvchi turli tuman strategiya va texnikalardan foydalanilganmidi?

Yuqoridagi savollarni berish orqali o‘qituvchilar “**Nima bo‘libdi?”** savoliga yanada batafsil javoblar topishadi.

Endi o‘qituvchilarni dars ishlanmasi va darsni o‘tish o‘quvchilarni yanada faolroq ishtirok etishga undaydigan darajaga keltirish uchun nimalar qilish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘rishga chorlang, ya’ni o‘qituvchilarni **“Endi nima?”** degan savolga javob izlashga chorlang. O‘qituvchilardan quyidagi ayrim tavsiyalar kelib tushishi mumkin:

➔ Dars maqsadlari aniq va o‘quvchilar tomonidan to‘g‘ri tushunilishini ta’minlash.

➔ Darsni o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otuvchi va hayot bilan mavzu o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rish imkonini beruvchi qisqacha qiziqarli kirish mashqidan boshlang.

➔ Mashqlarni bajarish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar bering.

➔ Dars davomida o‘quvchilardan nimalar kutib qolinishini ochiq-oydin va aniq ifodalang.

➔ Ijobiy o‘rganish muhitini yaratish uchun o‘quvchilarning ilgari egallagan bilimlarini faollashtiring.

➔ Faol ta’lim olishni rag‘batlantiruvchi turli mashq va topshiriqlar yarating.

➔ Har bir mashq va faoliyat turi uchun havozalash strategiyalarini rejalashtiring.

➔ Turli qobiliyat va ehtiyojlarga murojaat qilish uchun mazmun va jarayonni tabaqalashtiring.

➔ O‘quvchilarning butun dars davomida tushunishlarini tekshirib boring va davomil qayta aloqa bering.

➔ O‘quvchilar tushunmasa yoki nima qilish kerakligini bilmasa, savollar bilan murojaat qilish imkoniyatini bering.

➔ Barcha uchun tanish faoliyat turlari (rutinalar)dan foydalanishda yoki ayrim yangi texnika va strategiyalardan foydalanishda muvozanatni saqlang.

➔ Darsdagi faoliyat turlari tig‘iz bo‘lib qolmasligi uchun va har bir faoliyat turini bajarishga yetarli vaqt ajratilishi uchun mashq va topshiriqlarga ajratilgan vaqtni tegishli tazda moslashtirib chiqing.

➔ O‘quvchilar darsning bir qismi tugab, yangi bosqichi boshlanayotganligini aniq bilishi uchun, bir faoliyat turidan ikkinchi faoliyat turiga o‘tishda aniq qadamlarni integratsiya qiling.

Ahamiyatli voqea-hodisa ustida refleksiv mushohoda yuritish bo‘yicha ushbu namunani keltirib o‘tgach, o‘qituvchilardan o‘z tajribalarida sodir bo‘lgan ahamiyatli voqea-hodisalarga iloji boricha ko‘proq misollar keltirishni so‘rang. O‘qituvchilar keltirib o‘tgan ahamiyatli voqea-hodisalarning ro‘yxatini tuzing. Quyida o‘qituvchilar misol tariqasida berishi mumkin bo‘lgan ayrim ahamiyatli voqea-hodisalardan namunalar keltiriladi:

*O‘quvchi baland ovozda gapirib, hazil-mutoyiba qilib va tengdoshlariga halaqt bergan holda darsga halaqt beradi. Bir necha bor berilgan og‘zaki ogohlantirishga qaramay salbiy xulq-atvor tobora kuchayib boraveradi va o‘quvchi butun sinf oldida o‘qituvchining nufuziga (avtoritetiga) rahna sola boshlaydi.*

*O‘qituvchi o‘quvchilarga vazifa beradi biroq bir necha nafar o‘quvchi ulardan kutilgan natijaga mos kelmaydigan ishni topshirishadi. Sinf bilan buni muhokama qilgach, o‘qituvchi shuni anglab yetadiki, guruhdagi ko‘pchilik o‘quvchilar baholash mezonini va kutilgan natijalarni yaxshi tushunishmagan ekan.*

O‘quvchi noo‘rin yoki kurakda turmaydigan gap qiladi. O‘qituvchi endi barcha o‘quvchilar uchun ham tarbiyaviy ham ta’limiy ahamiyatga ega bo‘lgan reaksiya bildirish bo‘yicha bir qarorga kelishi lozim.

O‘qituvchilarga shuni eslatingki, ahamiyatli voqea-hodisalar muvaffaqiyatni ko‘rsatib beruvchi lahzalardan ham iborat bo‘lishi mumkin. Masalan:

Ma’lum bir o‘qitish strategiyasi o‘quvchilarning mavzu yoki konseptni nihoyatda yaxshi darajada tushunishiga yetaklagan lahza.

O‘quvchilar ayniqsa yoqtirgan va butun o‘quv yili davomida esda saqlab yurgan faoliyat, topshiriq yoki mashq.

O‘qituvchilar ijobiy ahamiyatli voqea-hodisalarni tahlil qilar ekan, refleksiv amaliyotning bosqichlari birmuncha boshqacha tarzda ifodalanishi mumkin:

Nima?: Yaqinda o‘tilgan darsda nima sodir bo‘ldi?

Nima bo‘libdi?: Bu voqea-hodisa nimasi bilan ahamiyatli? Nimani payqadingiz yoki nima xulosa chiqardingiz?

Endi nima?: O‘sha darsda boshqa darslarda ham qilishingiz mumkin bo‘lgan nima qildingiz?

Agar vaqt yetsa o‘qituvchilardan berilgan misollardan bittasini tanlashga chorlang va ushbu misol bilan “nima/nima bo‘libdi/endi nima” bosqichlari bo‘yicha refleksiya qilishni so‘rang.

Yakuniy bosqich sifatida o‘qituvchilar o‘z refleksiv jurnallarida ahamiyatga molik voqea-hodisalar va ularni o‘z kasbiy rivojlanishi qo‘llash yo‘llari bo‘yicha xulosalarini qayd qilib qo‘yishlari mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231-son Qarori, - T.: 2024.

## 2.1. “Pedagoglarning kasbiy rivojlanishi va o‘zaro hamkorlik” moduli

### 2-mavzu. O‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash – kasbiy rivojlanish asosi

**(2 soat amaliy mashg‘ulot)**

### Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **O‘quv bloki** | **II. UMUMKASBIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH** | | | | |
| **O‘quv moduli** | **2.1. “Pedagoglarning kasbiy rivojlanishi va o‘zaro hamkorlik”** | | | | |
| **Mavzu** | **O‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash – kasbiy rivojlanish asosi** | | | | |
| **Davomiyligi** | 80 daqiqa | | | | |
| **Mashg‘ulotning maqsadi** | • O‘qituvchilarga o‘zini-o‘zi baholash faoliyati, o‘z faoliyatini baholash turlari va vositalari, o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashning samarali usul va vositalari ahamiyatini tushuntirish;<br>• o‘qituvchilarda KRK va KRS tadbirlarida o‘zaro tajriba almashish, jamoada ishlash, hamkasblar va o‘quvchilar ota-onalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish ko‘nikmalarini mustahkamlash;<br>• o‘z ustida ishlash rejasini ishlab chiqish ko‘nikmalarini rivojlantirish. | | | | |
| **Mashg‘ulot bosqichlari** | **Faoliyat tavsifi** | **Vaqt, daqiqa** | **Metodlar** | **Zarur jihozlar** | **Natija** |
| **1. Tashkiliy qism** | - Salomlashish;<br>- mavzu va reja bilan tanish-tirish. | 5 | Suhbat, tushuntirish | 1-2-slaydlar | O‘qituvchilar mashg‘ulotni o‘rganishga tayyor bo‘lishadi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **2. Motivatsiya** | - Qiziqarli jumboq yoki muammoli savol<br>- “Mavzuning dolzarbligi” haqida qisqa muhokama | 5 | Muammoli vaziyat yaratish, muhokama | 3-slayd 1-ilova | O‘qituvchilar mavzuga qiziqib, ishtirok etishga rag‘batlanadi. |
| **3. Nazariy qism** | O‘qituvchilarga o‘zini-o‘zi baholash faoliyati, o‘z faoliyatini baholash turlari va vositalari, o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashning samarali usul va vositalari ahamiyatini tushuntirish; o‘qituvchilarda KRK va KRS tadbirlarida o‘zaro tajriba almashish, jamoada ishlash, hamkasblar va o‘quvchilar ota-onalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish | 15 | Taqdimot, ko‘rgazma-li tushun-tirish | 4-19- slaydlar | O‘qituvchilar o‘zini-o‘zi baholash faoliyati, o‘z faoliyatini baholash turlari va vositalari, o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashning samarali usul va |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | ko‘nikmalarini mustahkamlash; o‘z ustida ishlash rejasini ishlab chiqish ko‘nikma-larini rivojlantirish. | | | | vositalari ahamiyatini, jamoada ishlash, hamkasblar va o‘quvchilar ota-onalari bilan o‘zaro hamkorlik qilishni nazariy jihatdan o‘rganadi. |
| **4. Amaliy mashg‘ulot** | - Guruhlarda ishlash: Har bir guruhga mavzu yuzasidan topshiriqlar berish. | 35 | Guruhlarda ishlash | 1- tarqatma; 20-slayd | O‘qituvchilar mavzu yuzasidan amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi. |
| **5. Tahlil va muhokama** | - Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar; | 10 | Suhbat, muhokama, tahlil | 20-slayd; 3-ilova | O‘qituvchilar o‘z tajribalarini |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | - Qiyinchiliklarni muhokama qilish;<br>- Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish | | | | o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi. |
| **6. Refleksiya** | - “5x5 metod” (5 ta savolga 5 daqiqada javob berish) orqali xulosa qilish.<br>• Darsda qanday yangi bilim oldim?<br>• Bu bilimni amaliyotda qanday qo‘llashim mumkin?<br>• O‘rganilgan materialni tushunish uchun qanday qo‘shimcha resurslar kerak?<br>• Bu darsda eng ko‘p qiyinchilikni qaysi qismda his qildim?<br>• Darsdan keyin qanday yangi | 5 | Refleksiya usullari | 21-slayd | Bu metod, tinglovchilarga o‘rganilgan materialni tezda tahlil qilish va o‘z fikrlarini samarali ifodalash imkoniyatini beradi. O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rgani |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | savollar yuzaga keldi? | | | | lgan ma'lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi. |
| **7. Yakunlash va baholash** | - Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish<br>- Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish | 5 | Suhbat | 21-slayd | O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlarga yo‘naltiriladi. |

## Ilovalar

**1-ilova.**Tinglovchilarga quyidagi ko‘rinishdagi savollar bilan murojat qilinadi (namuna):

1. Sizning o‘qituvchilikdagi eng katta kuchli tomonlaringiz nima?
2. O‘zingizni kuchsiz tomonlaringizni qanday aniqlaysiz?
3. Kuchli tomonlaringizni rivojlantirish uchun qanday strategiyalarni qo‘llaysiz?
4. Kuchsiz tomonlaringizni yaxshilash uchun qanday qadamlar tashlamoqdasiz?

**2- ilova. 1-tarqatma material.**

Tinglovchilar 4 ta guruhga bo‘linishadi va har bir guruhga quyidagi amaliy topshiriq matni tarqatiladi. Avval guruhlar 1-tarqatma asosida fikr mulohaza beradi, so‘ng guruh 3-ilovadagi savollarga asoslanib o‘z faoliyati haqida fikr mulohazasini beradi.

**1-guruh uchun topshiriq.** O‘zingiz o‘tkazgan darslardan birini tanlang va uning samaradorligini tahlil qiling. Dars jarayonidagi asosiy qadamlarni va o‘quvchilarning javoblarini baholang.

- Dars maqsadi va uning o‘quvchilar tomonidan qabul qilinishi qanday bo‘ldi?
- Qaysi metodlar samarali bo‘ldi? Nima uchun?
- O‘quvchilarning faoliyatini qanday baholadingiz?
- O‘zingizning o‘qitish usulingizda qanday kamchiliklarni aniqladingiz va ularni qanday tuzatish mumkin?

**2-guruh uchun topshiriq.** O‘z faoliyatingizni tahlil qilib, o‘zingiz uchun malaka oshirish rejasini tuzing. Bu reja quyidagi punktlarni o‘z ichiga olishi kerak:

Qaysi sohalarda o‘z ustimda ishlashim kerakligini aniqlang.

Yangi pedagogik metodlarni qanday o‘rganish kerakligini yozing.

O‘quvchilar bilan samarali aloqani qanday mustahkamlash mumkinligini rejalashtiring.

Malaka oshirish kurslari, seminarlar yoki treninglarda qatnashish imkoniyatlarini aniqlang.

**3-guruh uchun topshiriq.** O‘qituvchilar guruhida pedagogik hamkorlikni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun qisqa va uzoq muddatli reja tuzing. Reja quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- Qisqa muddatda o‘qituvchilar o‘rtasida qanday hamkorlikni boshlash mumkin (masalan, o‘quvchilarning bilimini baholash, dars samaradorligini o‘rganish)?
- Uzoq muddatli hamkorlikning maqsadlari va vazifalari qanday bo‘ladi?
- Hamkorlikni baholash va takomillashtirish uchun qanday mezonlar va vositalardan foydalaniladi?

**4-guruh uchun topshiriq.** O‘zingizning pedagogik faoliyatingizni tahlil qiling. O‘z faoliyatingizni baholashda quyidagi savollarga javob bering:

O‘zingizni qaysi sohalarda kuchli va zaif deb hisoblaysiz? (Masalan, darsni tashkil etish, o‘quvchilarga individual yondashuv, pedagogik metodlar va boshqalar)

O‘quvchilardan qanday fikr-mulohazalar oldingiz? Ularning o‘zlashtirish darajasi qanday?

O‘quvchilarga ta'lim berishda qanday muammolarni duch keldingiz? Bu muammolarni qanday hal qilishni o‘yladingiz?

**3-ilova.** Har bir guruh quyidagi savollarga javob berishadi va jadvalni to‘ldirishadi.

a) Topshiriqni bajarish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?

b) Guruhda ishlashning afzalliklari nimada?
c) Topshiriqni bajarish jarayonida nimalarni o‘rgandingiz?

| Kamchiliklar | Afzalliklari |
|---|---|
| | |
| | |

**Amaliy mashg‘ulotdan ko‘zlangan maqsad:**

tinglovchilar o‘zini-o‘zi baholash faoliyati, o‘z faoliyatini baholash turlari va vositalari, o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashning samarali usul va vositalari haqida bilimlari mustahkamlanadi;

o‘z ustida ishlash rejasini ishlab chiqish, KRK va KRS tadbirlarida o‘zaro tajriba almashish: ta’rifi, xususiyatlarini topshiriqlar orqali izohlaydilar;

kichik guruhlarda ishlash natijasida maktabda jamoada ishlash, hamkasblar va o‘quvchilar ota-onalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

**Tinglovchilar faoliyatini tashkil qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar**

Mashg‘ulot kichik guruhlarda ishlash metodi yordamida tashkil qilinadi. Guruhlarga topshiriqlar beriladi.

***Quyida keltirilgan nazariy materialni o‘rganib chiqing va quyidagi mavzular bo‘yicha guruh ishi tayyorlang va uni namoyish qiling.***

***1-guruh uchun topshiriq***. O‘zingiz o‘tkazgan darslardan birini tanlang va uning samaradorligini tahlil qiling. Dars jarayonidagi asosiy qadamlarni va o‘quvchilarning javoblarini baholang.

- Dars maqsadi va uning o‘quvchilar tomonidan qabul qilinishi qanday bo‘ldi?
- Qaysi metodlar samarali bo‘ldi? Nima uchun?
- O‘quvchilarning faoliyatini qanday baholadingiz?
- O‘zingizning o‘qitish usulingizda qanday kamchiliklarni aniqladingiz va ularni qanday tuzatish mumkin?

***2-guruh uchun topshiriq***. O‘z faoliyatingizni tahlil qilib, o‘zingiz uchun malaka oshirish rejasini tuzing. Bu reja quyidagi punktlarni o‘z ichiga olishi kerak:

Qaysi sohalarda o‘z ustimda ishlashim kerakligini aniqlang.

Yangi pedagogik metodlarni qanday o‘rganish kerakligini yozing.

O‘quvchilar bilan samarali aloqani qanday mustahkamlash mumkinligini rejalashtiring.

Malaka oshirish kurslari, seminarlar yoki treninglarda qatnashish imkoniyatlarini aniqlang.

***3-guruh uchun topshiriq.*** O‘qituvchilar guruhida pedagogik hamkorlikni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun qisqa va uzoq muddatli reja tuzing. Reja quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- Qisqa muddatda o‘qituvchilar o‘rtasida qanday hamkorlikni boshlash mumkin (masalan, o‘quvchilarning bilimini baholash, dars samaradorligini o‘rganish)?
- Uzoq muddatli hamkorlikning maqsadlari va vazifalari qanday bo‘ladi?
- Hamkorlikni baholash va takomillashtirish uchun qanday mezonlar va vositalardan foydalaniladi?

**4-guruh uchun topshiriq.** O‘zingizning pedagogik faoliyatingizni tahlil qiling. O‘z faoliyatingizni baholashda quyidagi savollarga javob bering:

O‘zingizni qaysi sohalarda kuchli va zaif deb hisoblaysiz? (Masalan, darsni tashkil etish, o‘quvchilarga individual yondashuv, pedagogik metodlar va boshqalar)

O‘quvchilardan qanday fikr-mulohazalar oldingiz? Ularning o‘zlashtirish darajasi qanday?

O‘quvchilarga ta’lim berishda qanday muammolarni duch keldingiz? Bu muammolarni qanday hal qilishni o‘yladingiz?

**Amaliy mashg‘ulot uchun nazariy material**

**Reja**

1. O‘zini-o‘zi baholash faoliyati: o‘z faoliyatini baholash turlari va vositalari, o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashning samarali usul va vositalari.
2. Kasbiy rivojlanishda o‘qituvchilar hamkorligi.
3. O‘z ustida ishlash rejasini ishlab chiqish.

**KIRISH**

Ta’lim tizimida o'qituvchining kasbiy faoliyati, uning o'ziga bo'lgan talab va yondashuvlariga asoslanadi. Har bir o'qituvchi o‘z faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilib, baholashi zarur, chunki bu jarayon uning professional o‘sishi va ta’lim sifatini yaxshilashga olib keladi.

Zamonaviy ta’lim tizimi o'zgaruvchan va dinamik sharoitda rivojlanib bormoqda, shuning uchun o'qituvchilar, pedagogik uslublarini, metodlarini va yondashuvlarini doimiy ravishda tahlil qilib, baholab borishlari muhimdir. O‘z faoliyatini tahlil qilish – bu nafaqat o‘z ishini baholash, balki xatolarni aniqlash, kuchli tomonlarni kuchaytirish va kamchiliklarni bartaraf

etishning samarali usulidir. Shuningdek, bu jarayon o'qituvchiga o'zining pedagogik yondashuvlarini yangilash, innovatsion metodlarni qo‘llash va o‘quvchilarga yanada samarali ta’lim berish imkoniyatini yaratadi.

Shu o‘rinda, o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash jarayonining kasbiy rivojlanishdagi o‘rni haqida gapirganda, bu jarayonning qanday asosiy elementlarga ega ekanligini va u qanday qilib o‘qituvchining malakasini oshirishga yordam berishini ko‘rib chiqamiz. Har bir o'qituvchining o‘z faoliyatini to‘g‘ri baholay olish va uning natijalarini tahlil qilish orqali o‘z kasbiy rivojlanishini qanday qilib samarali tashkil etish mumkinligi haqida fikr yuritamiz.

## 1. O‘zini-o‘zi baholash faoliyati: o‘z faoliyatini baholash turlari va vositalari, o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashning samarali usul va vositalari

O‘zini-o‘zi baholash faoliyati — bu o‘qituvchining o‘z pedagogik jarayonini tahlil qilish, o‘z faoliyatini baholash va shu asosda o‘zining kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash jarayonidir. Bu jarayon o‘qituvchiga o‘zining kuchli tomonlarini tan olish va zaif jihatlarini aniqlash imkonini beradi, shuningdek, malakasini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilash uchun zarur o‘zgarishlarni kiritish imkonini yaratadi.

O‘zini-o‘zi baholashning asosiy maqsadi — o‘qituvchining o‘z ishini tahlil qilishi, xatolarni aniqlashi va keyingi darslarda yaxshilanishlarga erishishdir. Shuningdek, o‘zini-o‘zi baholash jarayoni o‘qituvchining o‘z ustida ishlashini ta'minlab, pedagogik faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirishga yordam beradi.

O‘z faoliyatini baholash turli yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Quyida ba'zi asosiy baholash turlarini ko‘rib chiqamiz:

**Formativ baholash**: Bu baholash turi o‘qituvchining dars jarayonida o‘quvchilarning rivojlanishini va o‘zgarishlarni kuzatish orqali amalga oshiriladi. O‘qituvchi bu baholash orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini kuzatadi va darsning samaradorligini aniqlaydi. Formativ baholash o‘qituvchiga o‘z faoliyatini real vaqt rejimida baholash imkonini beradi.

**Summativ baholash**: Bu baholash turi o‘qituvchining darsdan so‘ng o‘quvchilarning umumiy natijalarini baholashga yo‘naltirilgan. Bu baholash o‘qituvchining dars maqsadlariga qanchalik erishganini va o‘quvchilarning bilim darajasini o‘lchashga yordam beradi.

**Reflektiv baholash**: O‘qituvchi o‘z faoliyatini baholashda refleksiya (o‘z-o‘zini tahlil qilish) usulini qo‘llashi mumkin. Bu turda o‘qituvchi o‘zi

qanday dars o‘tganini, nimalar yaxshi chiqqanini, qanday kamchiliklarni sezganini tahlil qilib, kelgusida qanday yaxshilanishlar qilish kerakligini aniqlaydi.

**Ko‘rsatkichli baholash**: Bu baholash turi o‘qituvchining o‘z faoliyatini aniq ko‘rsatkichlar (masalan, o‘quvchilarning muvaffaqiyat darajasi, darslar davomida o‘quvchilarning ishtiroki, o‘qituvchi tomonidan qo‘llanilgan metodlar) bo‘yicha baholashdir. Bu ko‘rsatkichlar o‘qituvchining pedagogik faoliyatini aniq o‘lchash va tahlil qilish imkonini beradi.

**O‘z faoliyatini baholash vositalari**

O‘zini-o‘zi baholash jarayonini samarali tashkil etish uchun turli vositalardan foydalanish mumkin. Bu vositalar o‘qituvchiga o‘z faoliyatini aniq va tizimli baholash imkonini yaratadi. Quyida o‘z faoliyatini baholashda foydalanish mumkin bo‘lgan vositalar keltirilgan:

**O‘zini-o‘zi baholash jurnali**: Bu vosita o‘qituvchiga har bir darsdan keyin o‘z faoliyatini yozma ravishda baholash imkonini beradi. O‘qituvchi dars davomida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni, muvaffaqiyatlarni va kelgusidagi darslar uchun tavsiyalarni kiritishi mumkin. Bu jurnal o‘qituvchining o‘z-o‘zini tahlil qilish va rivojlanish yo‘lini kuzatib borishda yordam beradi.

**O‘zini-o‘zi baholash shakllari**: Dars jarayonida o‘qituvchi o‘z faoliyatini baholash uchun turli shakllarni (masalan, maxsus savollar, o‘z faoliyatini tahlil qilish uchun testlar) qo‘llashi mumkin. Bu shakllar o‘qituvchiga dars jarayonidagi muhim jihatlarni aniqlash va baholashda yordam beradi.

**Video tahlil**: O‘qituvchi darslarini video formatda yozib olib, keyinchalik o‘zi tomonidan baholashi mumkin. Bu usul o‘qituvchiga o‘zining dars berish uslublarini tahlil qilish, nutqini va darsda o‘quvchilar bilan aloqasini yaxshilashga yordam beradi.

**Kengaytirilgan o‘qituvchi baholash tizimi (360 daraja baholash)**: Bu tizimda o‘qituvchining faoliyati nafaqat o‘qituvchi tomonidan, balki o‘quvchilar, hamkasblar va boshqaruvchilar tomonidan ham baholanadi. Bu yondashuv o‘qituvchining ko‘proq nuqtai nazardan baholanishini ta'minlab, yanada kengroq va aniqroq tahlil qilish imkonini beradi.

**O‘zini-o‘zi baholashning ahamiyati**

O‘zini-o‘zi baholash o‘qituvchining kasbiy rivojlanishining muhim qismlaridan biridir. O‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish orqali u nafaqat o‘zining kuchli tomonlarini topadi, balki kamchiliklarni bartaraf etish va yangi maqsadlar belgilash uchun zarur choralar ko‘radi. Bu jarayon

o‘qituvchining o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan intilishining ko‘rsatkichi bo‘lib, uning pedagogik malakasini oshirishga yordam beradi.

O‘zini-o‘zi baholash orqali o‘qituvchi o‘z faoliyatini yanada samarali va tizimli amalga oshirishi mumkin, bu esa o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilashga olib keladi. O‘zini-o‘zi baholash, shuningdek, o‘qituvchining o‘ziga nisbatan mas'uliyatni oshiradi va uni professional rivojlanishga undaydi.

O‘zini-o‘zi baholash faoliyati — bu o‘qituvchining o‘z ishini tahlil qilish va rivojlantirish jarayonidir. Bu jarayon, o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash, yangi maqsadlar belgilash va o‘zining kasbiy o‘sish yo‘nalishlarini aniqlash uchun zarur vositalarni taklif etadi. Turli baholash turlari va vositalari yordamida o‘qituvchilar o‘z faoliyatini samarali ravishda baholab, o‘z malakalarini oshirishi va o‘quvchilarga yanada samarali ta’lim bera olishadi.

## 2. Kasbiy rivojlanishda o‘qituvchilar hamkorligi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 28-iyundagi 198-son buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va kasbiy mahoratini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish orqali umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini yaxshilash maqsadida 2024-2025-o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun fanlar kesimida “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari bosqichma-bosqich joriy etildi.

**“Kasbiy rivojlanish kuni”** – o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ijodiy ishlash va o‘z bilimini muntazam boyitib borish, zamonaviy o‘qitish metodikasi va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘quv-seminar, trening, mahorat darslari va mustaqil ta’lim tadbirlari o‘tkazilishi belgilangan haftaning muayyan kuni.

**“Kasbiy rivojlanish soati”** – kasbiy rivojlanish kunlarida tashkil etilgan o‘quvlarda o‘qituvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlari faoliyat ko‘rsatayotgan umumta’lim maktablarida qo‘llashlarini tahlil qilish, ularga zarur metodik yordam ko‘rsatish, kasbiy rivojlanish uchun tavsiyalar berish, dars kuzatish, refleksiv amaliyot hamda maktab negizida malaka oshirish tadbirlari o‘tkaziladigan soatlar;

**mentor-o‘qituvchilar** – “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etish uchun fanlar (yoki fanlar bloki) kesimida tanlab olingan yuqori malakali o‘qituvchilar;

Shu bilan birga, texnologiyalar va raqamli vositalar yordamida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning samaradorligi sezilarli darajada oshishi mumkin. Texnologiyalar orqali o‘quvchilarga o‘z-o‘zini o‘rganish, o‘z rivojlanishini kuzatish va individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyatlari yaratiladi. Biroq, texnologiyalarning kengayishi ta’limdagi tengsizliklarni kuchaytirishi mumkin, chunki raqamli resurslarga kirish imkoniyati barcha o‘quvchilar uchun teng emas. Shuning uchun, ta’lim tizimi uchun yangi yondashuvlarni ishlab chiqish, barcha o‘quvchilarga teng imkoniyatlar yaratish hamda o‘qituvchilarning malakasini oshirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchilarning o‘rganish jarayoniga bo‘lgan qiziqishini va faol ishtirokini oshiradi, shuningdek, o‘quvchilarning o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishiga yordam beradi. Lekin uning samarali joriy etilishi uchun ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘qituvchilarni malaka oshirish va zarur resurslarni ta'minlash kabi masalalarni hal qilish lozim. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning muvaffaqiyatli rivojlanishi ta’lim tizimining barqarorligi, texnologik infratuzilma va teng imkoniyatlarni ta'minlashga bog‘liq bo‘ladi. Agar ushbu muammolar hal etilsa, shaxsga

yo‘naltirilgan ta’lim nafaqat o‘quvchilarning ta’lim olish jarayonini samarali qiladi, balki jamiyatning umumiy intellektual va ijodiy salohiyatini yuksaltirishga ham yordam beradi.

**Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning asosiy tamoyillarini tahlil qiling. Ushbu tamoyillarni ta’lim tizimida qanday qilib samarali joriy etish mumkin va bu jarayon o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun qanday o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi?
2. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda texnologiyalarni qo‘llashning afzalliklari va kamchiliklarini muhokama qiling. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish qobiliyatini qanday rivojlantiradi va bu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan texnologik tengsizliklarni qanday bartaraf etish mumkin?
3. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni joriy etishda yuzaga keladigan asosiy muammolarni aniqlang. Ushbu muammolarni hal qilish uchun ta’lim tizimida qanday strategiyalarni qo‘llash mumkin va bu strategiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini qanday oshiradi?
4. O‘qituvchilarning shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim metodologiyasiga tayyorligi va malakasini oshirishda qanday o‘zgarishlar kiritish zarur? Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda o‘qituvchining rolini qanday qayta belgilash mumkin?
5. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning jamiyatdagi ta’lim tizimini modernizatsiya qilishdagi o‘rni va ahamiyatini baholang. Ushbu ta’lim modelini joriy qilish orqali ta’lim tizimi qanday ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin?

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Aminov A. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning nazariy asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi. 2020 y.
2. Gulomov B., Mirzayev, A. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim: Asosiy tamoyillar va amaliyot. Toshkent: Fan va texnologiya. 2019 y.
3. Qodirov B. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti. 2018 y.
4. Shayxov I. Ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv: Nazariya va amaliyot. Toshkent: "O‘qituvchi" nashriyoti. 2017 y.
5. Boshbekov F. (2021). O‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim usullari. Toshkent: “Science and Education” nashriyoti.

6. Xolmatov T. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda ta’lim texnologiyalarining ro‘li. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi. 2020 y.

7. To‘laganov D. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va pedagogik innovatsiyalar. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika instituti. 2019 y.

8. Raxmonov M. Pedagogik texnologiyalar asosida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish. Toshkent: “Shuhrat” nashriyoti. 2020 y.

9. Abdurahmonov S. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda individual yondashuv va uning samaradorligi. Tashkent: O‘zbekiston oliy ta’lim akademiyasi nashriyoti. 2021 y.

**10.** Jumaniyozov M. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda texnologik yondashuvlar. Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim nashriyoti. 2019 y.

# Mavzu: XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PIRLS, PISA va TIMSS) NATIJALARI ASOSIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISH

## Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **O‘quv bloki** | 2.Umumkasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish | | | | |
| **O‘quv modul** | 2.1 Zamonaviy ta’lim paradigmalari | | | | |
| **Mavzu** | 2. Xalqaro baholash dasturlari (PIRLS, PISA va TIMSS) natijalari asosida ta’lim sifatini oshirish | | | | |
| **Davomiyligi** | 80 daqiqa | | | | |
| **Mashg‘ulotning maqsadi** | - <br> - <br> - | | | | |
| **Mashg‘ulot bosqichlari** | **Faoliyat tavsifi** | **Vaqt, daqiqa** | **Metodlar** | **Zarur jihoz-lar** | **Natija** |
| **1. Tashkiliy qism** | - Salomla-shish <br> - Maqsad va reja bilan tanishtirish <br> - Mashg‘ulotning dolzarbligi-ni asoslab berish | 5 | Suhbat, tushuntirish | | O‘qituvchilar mashg‘ulotga tayyor bo‘lishadi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **2. Motivatsiya** | - Qiziqarli jumboq yoki muammoli savol<br>- "Mavzuning dolzarbligi" haqida qisqa muhokama | 5 | Muammoli vaziyat yaratish, muhokama | | O‘qituvchilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag‘batlanadi. |
| **3. Nazariy qism** | - Zamonaviy dagogik texnologiyalarni tushuntirish<br>- Interfaol metodlar-ning qo‘llanilishi<br>- Slaydlar bilan tushuntirish | 15 | Taqdimot, ko‘rgazmali tushuntirish | 1-12-slaydlar | O‘qituvchilar yangi texnologiyalarni nazariy jihatdan o‘rganadi. |
| **4. Amaliy mashg‘ulot** | - Guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqlar bajarish<br>- Misollar va vaziyatlarni muhokama qilish | 30 | Guruhlarda ishlash, platformalardan foydalanish | Kahoot, Quizizz, 1-2-tarqatmalar | O‘qituvchilar interfaol vositalar yordamida amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi. |
| **5. Tahlil va muhokama** | - Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar<br>- Qiyinchiliklarni muhokama qilish | 15 | Suhbat, muhokama, tahlil | | O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | - Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish | | | | |
| **6. Refleksiya** | - "Men nimani o‘rgandim?" usuli orqali xulosa qilish | 5 | Reflek siya usullari | Menti meter, 1- ish varag’i | O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi. |
| **7. Yakunlash va baholash** | - Mashg‘ulot natijalarini umumlashtiri sh<br>- Kelgusi mashg‘ulot-lar uchun tavsiyalar berish | 5 | Suhbat | | O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo‘naltiriladi. |

**Ilovalar**

**Tarqatma (1-ilova)**

**2- Tarqatma (2-ilova)**

**1- Ish varag’i (3-ilova)**

**Reja:**

**1. Kirish. O‘zbekistonning xalqaro tadqiqotlardagi ishtiroki.**

**2. Xalqaro baholash dasturlarini ta’lim - tarbiya jarayoniga tadbiq etishning ahamiyati**

**3. O‘zbekistonning xalqaro tadqiqotlardagi natijalari**

**4. PIRLS, PISA, TIMSS va TALIS xalqaro tadqiqot natijalari asosida ta’lim sifatini oshirish yo‘lida amalga oshiriladigan yangi yondashuv va strategiyalar**

*Tayanch so‘z va iboralar: Xalqaro baholash, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, ta’lim sifati.*

**PISA 2022 tadqiqoti natijalari yuzasidan tahlillar**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son** farmoni, Vazirlar Mahkamasining **2018-yil 8-dekabrdagi**

**997-son** qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining **2022-yil 6-apreldagi 07/1-1601-son** topshirig‘i ijrosi yuzasidan O‘zbekistonda PISA 2022-o‘quvchilarni xalqaro baholash dasturining asosiy sinov jarayonlari **2022-yil 21-apreldan 7-mayga** qadar o‘tkazildi.

PISA 2022 tadqiqoting asosiy sinovida O‘zbekistonning **14 ta** hududidan tanlab olingan **202 ta maktab** direktorlari so‘rovnomalarda va mazkur maktablarning o‘quvchilari **matematik savodxonlik, o‘qish savodxonligi, tabiiy-ilmiy savodxonlik hamda kreativ fikrlash** yo‘nalishlarida baholash testlarida va so‘rovnomalarda ishtirok etdilar.

PISA 2022 tadqiqoti natijalarini tahlil qilish doirasida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi o‘rtasida O‘zbekistonning ushbu tadqiqotida ishtirokini ta’minlash bo‘yicha imzolangan shartnomaning 1-bandiga muvofiq 2023-yil 8-maydan 29-sentabr sanasiga qadar Fransiyaning Parij shahrida **“Yetakchi tahlilchi” (Lead Analyst)** dasturi o‘tkazildi. Dastur doirasida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) va PISA Milliy jamoasi (National team) hamkorlikda faoliyat olib borildi hamda O‘zbekistonning PISA 2022 tadqiqoti natijalariga bag‘ishlangan Milliy hisobot (National Report) tayyorlash jarayonlari amalga oshirildi.

Milliy hisobotni tayyorlashda xalqaro ma’lumotlar bazasidan (International Database) foydalanildi. Shuningdek tadqiqotda ishtirok etgan mamlakatlar bilan solishtirma tahlillar olib borildi. O‘zbekistonning PISA 2022 tadqiqotdagi natijalarini o‘zaro tahlil qilish maqsadida ishtirokchi mamlakatlar qatoridan **Birlashgan Arab Amirliklari, Gruziya, Marokash, Moldova Respublikasi, Mongoliya, Ozarbayjon (Boku), Qozog‘iston Respublikasi, Turkiya, Shimoliy Makedoniya, Vyetnam** davlatlari benchmarkinglar sifatida tanlab olindi hamda Milliy hisobotda solishtirma tahlillar amalga oshirildi.

Ma’lumot uchun xalqaro va milliy hisobotdan o‘rin olgan dastlabki tahlillar natijalariga ko‘ra, O‘zbekistondagi o‘quvchilarning matematik savodxonlik yo‘nalishi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichi 364 ball (72 o‘rin), o‘qish savodxonligi yo‘nalishida 336 ball (80-o‘rin), tabiiy-ilmiy savodxonlik yo‘nalishi bo‘yicha esa 355 ballni (80-o‘rin) tashkil etadi. Bu natijalar o‘z navbatida OECD o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan matematika yo‘nalishida 108 ball, tabiiy-ilmiy savodxonlik yo‘nalishida 130 ball, o‘qish savodxonligi yo‘nalishi bo‘yicha esa OECD o‘rtacha ko‘rsatkichidan 140 ballga farqli hisoblanadi.

Shuningdek, tahlillarda Ta’limning barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG, 4.1-maqsad)ga nisbatan monitoringi uchun o‘lchanadigan umumta’lim maktabini tamomlashda o‘qish va matematika yo‘nalishlarida o‘quvchilardan

kutilayotgan savodxonlikning minimal darajasi, maktablar joylashgan hududlar (masalan, qishloq va shahar), o‘quvchilarning jinsi va ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy holati indeksi (ESCS), ularning maktabgacha ta’lim tashkilotlariga borganlik holati, o‘quvchilarning ta’lim olishlari uchun yaratilgan sharoitlar yuzasidan amalga oshirildi.

Ta’limning barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG, 4.1-maqsad)ga nisbatan monitoringi uchun o‘lchanadigan o‘rta maktabni tamomlashda kutilayotgan o‘qish va matematika bo‘yicha malakalarning minimal darajasi sifatida **2-daraja** qaraladi, shunga muvofiq:

- O‘zbekistondagi o‘quvchilarning **19%** ga yaqini matematika bo‘yicha 2 yoki undan yuqori darajaga erishgan (OECD o‘rtachasi: 69%);
- O‘quvchilarning **14%** ga yaqini o‘qish bo‘yicha 2 yoki undan yuqori darajaga erishgan (OECD o‘rtachasi: 74%)
- O‘quvchilarning qariyb **19%** tabiiy fanlar bo‘yicha 2 yoki undan yuqori darajaga erishgan (OECD o‘rtacha: 76%).

Iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy holatning PISA indeksi (ESCS) bo‘yicha O‘zbekistonda o‘quvchilarning 25 foizi (eng katta ulush) ijtimoiy-iqtisodiy miqyosda 4-xalqaro kvintilda bo‘lgan, ya’ni ular 2022-yilda PISA tadqiqotida ishtirok etgan eng kam ta’minlanganlar qatorida ham, eng badavlat o‘quvchilar qatorida ham emas. Ularning matematika bo‘yicha o‘rtacha bali 368 ballni tashkil etdi. Shuningdek, O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuqori bo‘lgan o‘quvchilar (ijtimoiy-iqtisodiy holat bo‘yicha yuqori 25 foiz) matematika fanidan 22 ballga ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan quyi o‘quvchilardan (quyi 25 foiz) yaxshiroq natija ko‘rsatdilar.

***Matematika, o‘qish va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘g‘il bolalar va qizlarning natijalari:***

PISA 2022 tadqiqotida o‘g‘il bolalar matematika bo‘yicha qizlardan 6 ballga o‘zib ketgan bo‘lsa, o‘qish bo‘yicha qizlar o‘g‘il bolalardan 22 ballga yaxshiroq natija ko‘rsatdilar. Ma’lumot uchun dunyo miqyosida matematika bo‘yicha 40 ta davlat/iqtisodiyotda o‘g‘il bolalar qizlardan, yana 17 ta davlat/iqtisodiyotda qizlar o‘g‘il bolalardan o‘zib ketgan, qolgan 24 tasida esa sezilarli farq aniqlanmagan.

O‘zbekistonda o‘quvchilarning 67 foizi maktabgacha ta’lim muassasalarida bir yil yoki undan ko‘proq vaqt davomida qatnashganliklarini bildirgan (OECD o‘rtacha: 94%).

***Bir sinfda takror o‘qish***

O‘zbekistonda o‘quvchilarning qariyb 6 foizi kamida bir marta bir sinfda takror o‘qiganliklarini bildirgan (OECD o‘rtacha: 9%). Qishloq maktablari o‘quvchilarining qariyb 8% bir sinfda takror o‘qishi haqida ma’lum qilgan

bo‘lsa, shahar maktablari o‘quvchilarining 6% kamida bir marta boshlang‘ich, tayanch o‘rta yoki o‘rta maktablarda qayta o‘qiganliklarini ma’lum qilganlar. O‘zbekistondagi o‘g‘il bolalarning qariyb 9% bir sinfda kamida bir marta takror o‘qigani haqida ma’lumot bergan bo‘lsa, qizlarning nisbatan kamroq ulushi (5%) bir sinfda takror o‘qiganliklarini ma’lum qilganlar.

***O‘zbekistonda maktab hayoti — PISA tadqiqoti natijalari asosida***

PISA 2022 tadqiqotida ishtirok etgan 15 yoshli o‘zbekistonlik o‘quvchilarning aksariyati 9-sinfda (83%), eng kam ulushi esa 7 va 11-sinflarda (0,1%) o‘qiydi. 10-sinf o‘quvchilarining ulushi 12% ni tashkil etadi, bu 8-sinfdagiga nisbatan ko‘pdir (3%). Tadqiqotda ishtirok etgan kasb-hunar maktablarida ta’lim oluvchi 15 yoshli o‘quvchilarning ulushi ham sezilarli darajada (2%). (Ma’lumot uchun OECD mamlakatlarida o‘rtacha ko‘rsatkich: 10-sinflar 55%, 9-sinflar 33%)

O‘quvchilarning maktabga daxldorlik hissi va hayotdan qoniqishi bo‘yicha olib borilgan tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistondagi o‘quvchilarning 86 foizi maktabda oson do‘st orttirishini (OECD o‘rtachasi: 76%) va 71 foizi o‘zini maktabga tegishli deb his qilishini (OECD o‘rtachasi: 75%) ma’lum qildilar. Shu bilan birga, 18% o‘quvchilar maktabda o‘zini yolg‘iz his qilishini va 18% maktabdagi narsalardan chetda qolganligini aytdi (OECD o‘rtachasi: 16% va 17%).

OECD ma’lumotlariga ko‘ra so‘nggi yillarda ko‘plab mamlakatlar va iqtisodiyotlarda o‘quvchilarning hayotdan qoniqish darajasi pasaygan. 2022-yilda O‘zbekistondagi o‘quvchilarning 10 foizi o‘z hayotlaridan qoniqish hosil qilmasligini ma’lum qilgan: ular hayotdan qoniqish darajasini 0 dan 10 gacha bo‘lgan shkala bo‘yicha 0 dan 4 gacha baholagan.

O‘zbekistonda 15% o‘quvchilar maktabga ketayotganda o‘zlarini xavfsiz his qilmayotganini ma’lum qilgan (OECD o‘rtacha: 8%); O‘quvchilarning 14% maktabda o‘z sinflarida o‘zlarini xavfsiz his qilmasliklarini ma’lum qilishdi (OECD o‘rtacha: 7%); O‘quvchilarning 20 foizi maktabning boshqa joylarida (masalan, koridor, oshxona, hojatxona) o‘zlarini xavfsiz his qilmasliklarini ma’lum qilishdi (OECD o‘rtacha: 10%). Qizlarning 15% va o‘g‘il bolalarning 19% kamida oyiga bir necha marta zo‘ravonlikka duch kelgani haqida ma’lum qildi (OECD o‘rtacha: qizlarning 20% va o‘g‘il bolalarning 21%).

***PISA 2022 tadqiqotida ishtirok etgan o‘quvchilarning o‘qituvchilari haqida ma’lumot***

PISA tadqiqotida maktab direktorlaridan maktablardagi o‘qituvchilarning malakasi to‘g‘risida so‘raldi. O‘zbekistonda maktab direktorlari bergan ma’lumotga ko‘ra 90% o‘quvchilar bakalavr darajasi (ISCED 6 daraja)ga, 4% o‘quvchilar magistr darajasi (ISCED 7-daraja)ga ega o‘qituvchilardan ta’lim

oladi. Shuningdek, 15 yoshli bolalar o‘qiydigan maktablarda ishlaydigan o‘qituvchilarning qariyb 85% asosiy, 15% esa o‘rindosh sifatida ish bilan ta’minlangan.

***Ota-onalarning ta’limdagi ishtiroki***

PISA tadqiqoti doirasida O‘zbekistondagi maktab direktorlari bergan ma’lumotga ko‘ra barcha oilalarning deyarli yarmi o‘z tashabbusi bilan (va 63 foizi o‘qituvchi tashabbusi bilan) o‘z farzandining rivojlanishini o‘qituvchi bilan muhokama qilgani haqida ma’lum qilgan.

***COVID 19 sababli maktablar yopilgan davrda ta’lim jarayonlari***

O‘zbekistonda ishtirokchi o‘quvchilarning deyarli uchdan bir qismi (35%) COVID-19 sababli maktab binosi uch oydan ortiq vaqt davomida yopilganini ma’lum qilgan. Masofaviy o‘qitish jarayonida O‘zbekistondagi o‘quvchilarning 40% kamida haftasiga bir marta maktab topshiriqlarini tushunishda, 42% o‘quvchilar esa maktab ishlarida yordam beradigan odamni topishda muammolarga duch kelishgan. Shuningdek, O‘zbekistonda 31% o‘quvchilar har kuni videomuloqot dasturi bo‘yicha jonli virtual darslar orqali qo‘llab-quvvatlanganini, jami o‘quvchilarning atigi 38% har kuni maktabdan biror kim o‘zlarini qanday his qilishlarini so‘rashganligini ma’lum qildilar.

Hozirda PISA 2022 tadqiqoti natijalari chuqurroq tahlil qilinmoqda. Tahlillar natijalari asosida kelgusida amalga oshirilishi belgilangan vazifalar yuzasidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilishi hamda mazkur reja asosida ta’lim sifatini yanada takomillashtirish bo‘yicha vazifalar amalga oshirilishi belgilangan.

**O‘zbekistonning xalqaro baholash dasturlaridagi ishtiroki hamda natijalari haqida muhim faktlar**

**O‘zbekistonning xalqaro tadqiqotlardagi natijalari**

**PIRLS 2021**

Jami ishtirokchilar soni: **57 ta**

Jami ishtirokchi maktablar: **13 000 ta**

Jami ishtirokchi o‘quvchilar: **400 000 nafar**

Jami ishtirokchi o‘qituvchilar: **20 000 nafar**

Jami ishtirokchi ota-onalar: **380 000 nafar**

O‘zbekistondagi ishtirokchi maktablar :**180 ta**

O‘zbekistondagi ishtirokchi o‘quvchilar :**5846 nafar**

**O‘zbekiston natijalari:**

O‘qish savodxonligi **437 ball (48-o‘rin)** (PIRLS o‘rtachasi 500 ball)

**Eng yuqori natijalar:** Singapur (587), Irlandiya (577), Gong Kong (573), Rossiya Federatsiyasi (567) va Shimoliy Irlandiya (566).

Badiiy matnlar: **438 ball**

Axborot matnlari: **434 ball**

**Benchmarklar bo‘yicha:**

Ilg‘or benchmark (Advanced): **0%** (PIRLS o‘rtacha 7%)

Yuqori benchmark (High): **7%** (PIRLS o‘rtacha 36%)

O‘rta benchmark (Intermediate): **34%** (PIRLS o‘rtacha 75%)

Quyi benchmark (Low): **70%** (PIRLS o‘rtacha 94%)

**Ijtimoiy iqtisodiy holatni inobatga olgan holda natijalar:**

Yuqori: **474 ball** (6 %)

O‘rta: **445 ball** (55%)

Quyi: **421 ball** (39%)

**Jinslar kesimida o‘rtacha ballar:**

**O‘g‘il bolalar: 425 ball** (52%) (PIRLS o‘rtacha 493 ball)

**Qizlar: 449 ball** (48%) (PIRLS o‘rtacha 509 ball)

**PISA 2022**

Jami ishtirokchilar soni: **81 ta**

Jami ishtirokchi o‘quvchilar: **630 000 nafar**

O‘zbekistondagi ishtirokchi maktablar :**202 ta**

O‘zbekistondagi ishtirokchi o‘quvchilar :**7293 nafar**

**O‘zbekiston natijalari:**

Matematik savodxonlik **364 ball (72 o‘rin)**;

O‘qish savodxonligi **336 ball (80-o‘rin)**;

Tabiiy-ilmiy savodxonlik **355 ball (80-o‘rin)**;

**TIMSS 2023**

IEA tomonidan reprezentativlik tamoyili asosida barcha hududlarni qamrab oluvchi 166 ta maktablar tadqiqotda ishtirok etish uchun namuna sifatida tanlab berilgan maktablarda **2023-yil aprel-may** oylarida sinov jarayonlari tashkil etildi.

Tadqiqotda respublikaning barcha hududlaridan tanlab olingan 166 ta maktablardan jami 8800 nafar o‘quvchilar (shundan, **4450 nafar 4-sinf** va **4350 nafar 8-sinf**) test va so‘rovnomada ishtiroki ta’minlandi.

Shuningdek, mazkur maktablarning **166 nafar** direktorlari hamda **1035 nafar** matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘qituvchilari so‘rovnomada ishtirok etdi.

Tadqiqot natijalari Ta’limdagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (Amsterdam, Gollandiya) tomonidan tahlil qilinib**, 2024-yil dekabr** oyida e’lon qilinishi rejalashtirilgan.

Xalqaro darajada e’lon qilinishi belgilangan tadqiqot natijalari olinganidan so‘ng, kelgusidagi vazifalar bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi ko‘zda tutilgan.

**PISA 2025**

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) o‘rtasida O‘zbekistonning PISA 2025 tadqiqotida ishtiroki to‘g‘risida **2023-yil 1-dekabrdagi** kelishuv shartnomasi imzolangan.

PISA 2025 tadqiqotining Tajriba-sinov jarayonlari tasdiqlangan rejaga muvofiq aprel-may oylarida respublikamizning barcha hududlaridan xalqaro talablar asosida tasodifiy tanlab olingan **83 ta** maktablarda o‘tkazildi hamda **4518 nafar** o‘quvchilarning tadqiqotdagi ishtiroki ta’minlandi. Tajriba-sinovda o‘quvchilarning ishtirok etish ko‘rsatkichi **97,39 %** ni tashkil qildi.

PISA 2025 tadqiqotining tajriba-sinov ma’lumotlari Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), PISA 2025 tadqiqotining xalqaro pudratchi tashkiloti Avstraliya ta’lim tadqiqotlari Kengashi (ACER)ga taqdim etildi.

2024-yil iyun-iyul oylarida o‘quvchilarning ochiq strukturalangan savollarga bergan javoblarini kodlashtirish (baholash) jarayonlari amalga oshirildi. Mazkur jarayonlar A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tomonidan xalqaro talablarga muvofiq tashkil etildi.

Bugungi kunda PISA 2025 tadqiqotining Asosiy sinov jarayonlariga tayyorgarlik ko‘rilmoqda. Unda respublikamiz bo‘ylab **200 dan ortiq** maktablar va mazkur maktablarning **7000 dan ortiq** o‘quvchilari ishtirok etishi rejalashtirilgan.

**PIRLS 2026**

O‘zbekistonning PIRLS 2026 tadqiqotidagi ishtirokini ta’minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda IEA (Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assosiatsiyasi) o‘rtasida shartnoma imzolangan.

Ma’lumot uchun, PIRLS 2026 tadqiqotining Tajriba-sinov jarayonlari 2025-yil aprel-may oylarida, Asosiy sinov jarayonlari esa 2026-yil aprel-may oylarida o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Ushbu tadqiqot ishtirokchi mamlakat/iqtisodiyotlari soni 62 tani tashkil etadi.

**Asosiy adabiyotlar**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi 27-son Farmoni;
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori;
4. PISA 2022 tadqiqotining xalqaro hisoboti (2 tomda, 2023-yil)
5. PISA 2022 tadqiqotining Milliy hisoboti (A.Avloniy instituti, 2023-yil)

**Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining PISA xalqaro baholash dasturi bo‘yicha rasmiy veb-sahifasi: https://www.oecd.org/en/about/programmes/pisa.html

2. Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assosiatsiyasining (IEA) PIRLS va TIMSS tadqiqotlari uchun rasmiy veb-sahifasi https://www.iea.nl/studies/iea/pirls/2026; https://www.iea.nl/studies/iea/timss/timss2023.

## Mavzu: O‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish

### Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **O‘quv bloki** | **II. UMUMKASBIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH** | | | | |
| **O‘quv modul** | **2.2. Zamonaviy ta’lim paradigmalari** | | | | |
| **Mavzu** | O‘quvchilarda XXI ars ko‘nikmalarini shakllantirish | | | | |
| **Davomiyligi** | 80 daqiqa | | | | |
| **Mashg‘ulotning maqsadi** | • Tabiiy fanlar ta‘limida XXI ars ko‘nikmalari haqida nazariy va amaliy bilimlarini boyitish.<br>• O‘qituvchilarning tanqidiy, tahliliy, kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish, qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish. 21-asr ta’limida Blum taksonomiyasi murakkab fikrlashni rivojlantirish. | | | | |
| **Mashg‘ulot bosqichlari** | **Faoliyat tavsifi** | **Vaqt, daqiqa** | **Metod-lar** | **Zarur jihoz-lar** | **Natija** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **1. Tashkiliy qism** | - Salomlashish<br>- Mavzu va reja bilan tanishtirish<br>- Mashg‘ulotning dolzarbligini asoslab berish | 5 | Suhbat, Bahs-munoza ra | 1-2-slaydlar | Mavzuga qiziqish o‘yg‘onadi, mashg‘u-lotga ishtirok etishga tayyor bo’lishaditayyo r bo‘lishadi. |
| **2. Motivatsiya** | - “Mavzuning dolzarbligi” haqida qisqa muhokama | 5 | Muam moli vaziyat yaratish , muhoka ma | 3-4-slayd | O‘qituvc hilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag‘batlanadi. |
| **3. Tushuntirish** | 21 asr ko‘nikmalarini BLUM taksonomiyasi hamda 4C larga bog‘liqligi, dolzarbligini asoslab berish | 15 | Aqliy hujum, suhbat | 5-14-slayd | O‘qituvc hilar tabiiy fanlar ta‘limida XXI ars ko‘nikmalari haqida nazariy jihatdan o‘rganadi. |
| **4. Amaliy mashg‘ulot:** Harakatlar rejasi | - Guruhlarda ishlash:<br>- Muammoli vaziyatlarni muhokama qilish; | 20 | Guruhla rda ishlash | Harak atlar rejasi jadvali **1-ilova** | Ijodkorli k, tanqidiy fikrlash, muloqot va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar orqali inklyuziv ta’lim muhitini yaratuvchi dars rejasini ishlab chiqadi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **3. KO‘R – FIKRLA – HAYRATLAN _BOG‘LA MASHQI** | Ishtirokchilarga quyida topshiriq beriladi:<br> <br>O‘ylang….<br>➢ **Men o‘qitadigan fan mavzulariga qanday bog‘lash mumkin?**<br>➢ ……<br>➢ ……..<br>➢ …….<br>➢ **21 asr ko‘nikmalaridagi 4C larga qanday bog‘liq?**<br>➢ ……<br>➢ ……..<br>➢ ……<br>➢ **Men tashkil qiladigan darslardagi mashq va topshiriq hamda o‘qitish amaliyotlarga qay tarzda bog‘liq?**<br>➢ ……<br>➢ ……..<br>➢ ……<br>Ishtirokchilardan **“Ko‘r – fikrla –** | 20 | Muzyorar, Bahs-munozara | 15-slayd | 21-asr talablariga javob beruvchi ko‘nikmalar-ni rivojlantirishda BLUM taksonomiya-si muhim rolidan biri ekanligini o‘rganadi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | **hayratlan _bog‘la”** mashqining har bir bosqichi bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bo‘lishish so‘raladi. | | | | |
| **5. Tahlil va muhokama** | - Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar;<br>- Qiyinchiliklarni muhokama qilish;<br>- Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish; | 5 | Suhbat, muhokama, tahlil | 16-slayd | O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi. |
| **6. Refleksiya** | - "Men nimani o‘rgandim?" usuli orqali xulosa qilish | 5 | Refleksiya usullari | Mentimeter 17-slayd | O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi. |
| **7. Yakunlash va baholash** | - Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish<br>- Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish | 5 | Suhbat | 18-19-slayd | O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo‘naltiriladi. |

**Ilovalar**

**1-ilova**

**1. Tarqatma material. Harakatlar rejasi jadvali**

| Foydagi fe’llar | Mashq va topshiriqlardan misollar | Baholash ✓ + - |
|---|---|---|
| YARATISH<br>Yangi ma’lumot qo‘shish<br>Bir yoki bir nechtasini birlashtirish (aralashtirish)<br>Nuqtai nazarni o‘zgartirish<br>Yangi mahsulot yaratish<br>Transformatsiya (O‘zgartirish) | | |
| BAHO BERISH<br>Baholash<br>Xulosa yasash<br>Tanlash<br>Munozara qilish<br>Qaror qilish<br>Saralash<br>Tekshirish | | |
| SINTEZ QILISH<br>Shakllantirish<br>Integratsiya qilish<br>Tuzatish kiritish<br>Namuna qilish<br>Qayta tuzish<br>Osonlashtirish<br>Vizuallashtirish | | |
| TAHLIL QILISH<br>Kategoriyalash<br>Dekonstruksiya qilish<br>Qismlarga bo‘lish<br>Farqlash<br>Ko‘zdan kechirish (o‘rganish)<br>Ajratib ko‘rsatish | | |

| | | |
|---|---|---|
| Ma’no olish<br>Sanab o‘tish<br>Tartiblash<br>Ustuvorlik berish | | |
| QO‘LLASH<br>Bog‘lash<br>Namoyish qilish<br>Rivojlantirish<br>Tajriba o‘tkazish<br>Tasvirlash (bezash)<br>Ifodalash<br>Hal qilish (yechim topish) | | |
| TUSHUNISH<br>So‘rash<br>Tasniflash<br>Taqqoslash<br>Baho berish<br>Tushuntirish<br>Umumlashtirish<br>Solishtirish<br>Taxmin qilish<br>Refrazalash<br>Hisobot berish<br>Umumlashtirish | | |
| ESLASH<br>Tanlash<br>Aniqlik kiritish<br>Aniqlash<br>Diagrammani belgilash<br>Sanab o‘tish<br>Yodga olish<br>Takrorlash<br>Ko‘rsatish<br>Aytish | | |

**2-ilova**

**KO‘R – FIKRLA – HAYRATLAN _BOG‘LA MASHQI**

| Ko‘r | Fikrla | Hayratlan | Bog‘la<br><br>Buni men o‘qitadigan fan mavzulariga qanday bog‘lash mumkin?<br>Bu 21 asr ko‘nikmalaridagi 4S larga qanday bog‘liq?<br>Bu men tashkil qiladigan darslardagi mashq va topshiriq hamda o‘qitish amaliyotlarga qay tarzda bog‘liq? |
|---|---|---|---|
| | | | ➢ _____<br>➢ _____<br>➢ _____ |

**3-ilova**

O‘zini o‘zi baholash

Mavzuni qay darajada o‘zlashtirganingiz haqida fikr yuriting. Bu sizga bilimingizdagi bo‘shliqlarni aniqlashga hamda yanada samarali ta’lim olishingizga yordam beradi.

| Men... | Ko‘proq o‘rganishim kerak | Deyarli o‘zlashtirdim | Ishonchim komil |
|---|---|---|---|
| | | | |
| | | | |

**Reja:**

1. **XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish**
2. **XXI asr talablariga javob beruvchi ko‘nikmalarni rivojlantirishda Blum taksonomiyasi**
3. **XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar**

**1-2-slayd**

**Faollashtiruvchi topshiriq**

XXI asrda o‘quvchilar nimalarni o‘rganishlari kerak?

Zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun yangi ko‘nikmalar talab etiladi.

**3-4- slayd**

**XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish** — bu o‘quvchilarga zamonaviy bilimlar, texnologiyalar va ijtimoiy talablar asosida bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, kritikal fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion yondashuvlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan jarayondir. XXI asr ko‘nikmalari global iqtisodiyot va texnologik taraqqiyot sharoitida, shuningdek, yangi pedagogik yondashuvlar asosida shakllanadi. Tabiiy fanlar ta’limida bunday ko‘nikmalarni shakllantirishda asosiy e’tibor ilmiy metodologiyalar, texnologik vositalar va interfaol o‘qitish metodlaridan foydalanishga qaratiladi.

XXI asr ko‘nikmalari sifatida quyidagi asosiy ko‘nikmalar belgilangan

Moslashuvchanlik ko‘nikmalari

Kritik fikrlash va muammolarni hal qilish
Kommunikativlik
Raqamli va media savodxonlik
Tanqidiy fikrlash
Kreativlik fikrlash
Hamkorlikda ishlash
Muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish
Global va ijtimoiy mas'uliyat

XXI asrda har qanday sohada, ya'ni fan, kasb, jamoatchilik va shaxsiy hayotdagi faoliyatda inson uchun zarur bo‘lgan universal bilim, qobiliyat, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlardir.

**5-14- slayd**

21-asr talablariga javob beruvchi ko‘nikmalarni rivojlantirishda BLUM taksonomiyasi muhim rol o‘ynaydi

Blum taksonomiyasiga ko‘ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo'ladi. Shu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham ifodalanadi,

jumladan:

1. Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo‘lib, bunda o‘quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

2. Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo‘lganda esa, o‘quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish.

3. Qo‘llash darajasidagi tafakkurda o‘quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, noa'nanaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to‘g‘ri qo‘llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'l namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o‘rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisobkitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

4. Tahlil darajasidagi tafakkurda o‘quvchi yaxlitning qismlarini va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko‘radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari:

keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

5. Baholash darajasidagi tafakkurda o‘quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko‘radi, xulosalarning mavjud ma’lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o‘lchash, nazorat qilish, asoslash, ma’qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash

6. Yaratish. Yangicha g‘oyalar yaratish, yangi mahsulotlar ishlab chiqish

**Kritik fikrlash va muammolarni hal qilish** XXI asrda o‘quvchilarga muammolarni aniqlash va ular uchun yechimlar ishlab chiqishda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur.

**Kommunikativlik**

Kommunikativlik – bu odamlar o‘rtasida o‘zaro ma'lumot, g‘oya va bilimlar almashinuvini o‘z ichiga olgan muhim kasbiy va hayotiy ko‘nikma. Kommunikativlik muloqot qila olish, o‘z fikrini boshqalarga yetkaza olish, suxbatdoshini tinglay olish, muzokaralar olib borish qobiliyatidir.

**Kreativlik fikrlash**

Kreativlik shaxsning o‘ziga xos innovatsion g‘oyalar yaratish, yanglik kiritish, ishga ijodkorlik bilan yondashish, yangi yo‘llarni izlash, yangi usullarni qo‘llash va muammoning yangicha yechimlari yuzasidan qaror qabul qilish kompetensiyasi. Kreativ insonlar standart fikrlash chegarasidan chiqa oladilar, hodisa va ob’ektlar o‘rtasidagi kutilmagan bog‘liqliklarni payqay oladilar, mavjud fikrlardan yangi kontent yarata oladilar.

**Hamkorlikda ishlash**

Hamkorlikda ishlash (kolloboratsiya)– bu umumiy maqsadga erishish yo‘lidagi hamkorlik. Kolloboratsiyaning maqsadi murakkab muammolarni hal etish va muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun bilim, tajriba va resurslarni birlashtirishdan iborat.

Hamkorlikda ishlash muammoga turli nuqtai nazardan qarash imkonini beradi, bu esa albatta yangi g‘oyalar va innovatsion yechimlarga olib keladi. Hamkorlikda ishlashning muammolarga individual yondashuvdan afzalligi mehnatni samarali taqsimlash, ko‘plab manbalardan olingan ma’lumotlardan foydalanish, yuqori darajadagi ijodkorlik va yechimlar sifatidan iborat.

**11-16-slayd**

**Amaliy mashg‘ulot: Harakatlar rejasi jadvali** asosida topshiriq beriladi

| **Foydagi fe’llar** | **Mashq va topshiriqlardan misollar** | **Baholash** ✓ + - |
|---|---|---|
| YARATISH<br>Yangi ma’lumot qo‘shish<br>Bir yoki bir nechtasini birlashtirish (aralashtirish)<br>Nuqtai nazarni o‘zgartirish<br>Yangi mahsulot yaratish<br>Transformatsiya (O‘zgartirish) | | |
| BAHO BERISH<br>Baholash<br>Xulosa yasash<br>Tanlash<br>Munozara qilish<br>Qaror qilish<br>Saralash<br>Tekshirish | | |
| SINTEZ QILISH<br>Shakllantirish<br>Integratsiya qilish<br>Tuzatish kiritish<br>Namuna qilish<br>Qayta tuzish<br>Osonlashtirish<br>Vizuallashtirish | | |
| TAHLIL QILISH<br>Kategoriyalash<br>Dekonstruksiya qilish<br>Qismlarga bo‘lish<br>Farqlash<br>Ko‘zdan kechirish (o‘rganish)<br>Ajratib ko‘rsatish<br>Ma’no olish<br>Sanab o‘tish | | |

| | | |
|---|---|---|
| Tartiblash<br>Ustuvorlik berish | | |
| QO‘LLASH<br>Bog‘lash<br>Namoyish qilish<br>Rivojlantirish<br>Tajriba o‘tkazish<br>Tasvirlash (bezash)<br>Ifodalash<br>Hal qilish (yechim topish) | | |
| TUSHUNISH<br>So‘rash<br>Tasniflash<br>Taqqoslash<br>Baho berish<br>Tushuntirish<br>Umumlashtirish<br>Solishtirish<br>Taxmin qilish<br>Refrazalash<br>Hisobot berish<br>Umumlashtirish | | |
| ESLASH<br>Tanlash<br>Aniqlik kiritish<br>Aniqlash<br>Diagrammani belgilash<br>Sanab o‘tish<br>Yodga olish<br>Takrorlash<br>Ko‘rsatish<br>Aytish | | |

**2-ilova**

**15-slayd**

**KO‘R – FIKRLA – HAYRATLAN _BOG‘LA MASHQI asosida**

| Ko‘r | Fikrla | Hayratlan | Bog‘la<br><br>Buni men o‘qitadigan fan mavzulariga qanday bog‘lash mumkin?<br>Bu 21 asr ko‘nikmalaridagi 4S larga qanday bog‘liq?<br>Bu men tashkil qiladigan darslardagi mashq va topshiriq hamda o‘qitish amaliyotlarga qay tarzda bog‘liq? |
|---|---|---|---|
| | | | ➢ _____<br>➢ _____<br>➢ _____ |

**17-slayd**

O‘zini o‘zi baholash

Mavzuni qay darajada o‘zlashtirganingiz haqida fikr yuriting. Bu sizga bilimingizdagi bo‘shliqlarni aniqlashga hamda yanada samarali ta’lim olishingizga yordam beradi.

| Men… | Ko‘proq o‘rganishim kerak | Deyarli o‘zlashtirdim | Ishonchim komil |
|---|---|---|---|
| | | | |
| | | | |

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Schools of the Future Defining New Models of Education for the Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum 91-93 route de la Capite CH-1223 Cologny/Geneva Switzerland

2. CHANGE OR DIE. The Three Keys to Change at Work and in Life. Alan Deutschman

3. Singapore “Facts, Geography, History, & Points of Interest” SimpleWebGuide.com

4. Outliers The Story of succes Malcolm Gladwell. https://www.edsurge.com/news

### 2.3.1. Mavzu: Darsning tarkibiy qismlari va uni taqdim etish metodikasi

**Mashg‘ulotning texnologik xaritasi**

| **O‘quv bloki** | **II. UMUMKASBIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH** | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **O‘quv modul** | **2.3. “O‘quv jarayonini samarali tashkil etish”** | | | | |
| **Mavzu** | **2.3.1. Mavzu: Darsning tarkibiy qismlari va uni taqdim etish metodikasi** | | | | |
| **Davomiyligi** | 80 daqiqa | | | | |
| **Mashg‘ulotning maqsadi** | Tinglovchilarda dars turlari, strukturasi, darsning tarkibiy qismlari, dars mazmunini ta’lim oluvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish, “SMART” vositasida dars maqsad va vazifalarini belgilash, darsning texnologik xaritasini ishlab chiqishning samarali yo‘llari va vositalari yuzasidan ko’nikmalarini shakllantirish. | | | | |
| **Mashg‘ulot bosqichlari** | **Faoliyat tavsifi** | **Vaqt, daqiqa** | **Metodlar** | **Zarur jihozlar** | **Natija** |
| **1. Tashkiliy qism** | - Salomlashish<br>- Mavzu va reja bilan tanishtirish<br>- Mashg‘ulotning dolzarbligini asoslab berish | 5 | Suhbat, tushuntirish | 1-2-slayd 1-ilova | Ishtirokchilar e’tiborini mavzuga jalb etish |
| **2. Motivatsiya** | - Muammoli vaziyat tahlili<br>- "Mavzuning dolzarbligi" haqida qisqa muhokama | 5 | Muammoli vaziyat yaratish, muhokama | 3-slayd | O‘qituvchilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag‘batlanadi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **3. Nazariy qism** | Zamonaviy dars, uning o’ziga xos xususiyatlari, dars turlari, strukturasi, darsning tarkibiy qismlari, dars mazmunini ta’lim oluvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish, “SMART” vositasida dars maqsad va vazifalarini belgilash, darsning texnologik xaritasini ishlab chiqishning yuzasidan nazariy ma’lumotga ega bo’ladilar | 15 | Taqdimot, ko‘rgazmali tushuntirish | 4-14-slaydlar 2-ilova | O‘qituvchilar dars turlari, strukturasi, darsning tarkibiy qismlari, dars mazmunini ta’lim oluvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish, “SMART” vositasida dars maqsad va vazifalarini belgilash, darsning texnologik xaritasini ishlab chiqishning yuzasidan nazariy va amaliy bilom va ko’nikmaga ega bo’ladilar. |
| **4. Amaliy mashg‘ulot** | Ona tili va adabiyot fanidan belgilangan | 35 | Guruhlarda ishlash, sun’iy | tarqatmalar; | O‘qituvchilar dars turlarini |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | mavzu asosida darsning texnologik xaritasi va blok chizmasini tayyorlaydilar | | intellektdan foydalanish | 15-17-slaydlar | aniqlash, dars bosqichlarini samarali taqdim etish, daes maqsadini SMART mezonlari asosida belgilash, texnologik xaritani mukammal ishlab chiqish yuzasidan amaliy ko‘nikmalar hosil qilishadi. |
| **5. Tahlil va muhokama** | - Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar;<br>- Qiyinchiliklarni muhokama qilish;<br>- Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish; | 10 | Suhbat, muhokama, tahlil | 3-4-ilovalar | O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi. |
| **6. Refleksiya** | - refleksiya (“Debrifing” usulida tahlil) | 5 | Refleksiya usullari | | O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi. |
| **7. Yakunlash va baholash** | - Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish<br>- Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish | 5 | Suhbat | 18-19-slaydlar | O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo‘naltiriladi. |

**Ilovalar**

**1-ilova**

**Dars** – *ta’lim beruvchi tomonidan yoshi va ma’lumoti jihatidan bir xil bo‘lgan ta’lim oluvchilar guruhiga o‘quv rejasi, o‘quv dasturi talablari va qat’iy dars jadvali asosida muayyan vaqt ichida bilim berish, malaka hosil qilish bo‘yicha muayyan mashg‘ulotdir.*

**2-ilova**

*•Darsni samarali tashkil etish uchun nimalarga amal qilish kerak?*

- _____
- _____
- _____
- _____

**3-ilova**

**4-ilova**

| № | Dars mavzusi: | To’ra Sulaymon. “Iltijo”, “Armon” she’rlari |
|---|---|---|
| 1 | Maqsad va vazifalar | a) ta'limiy: To’ra Sulaymon ijodiga oid bilimlarni o’quvchilar ongiga singdirish; DTS talablari asosida nutqiy savodxonligini oshirish;<br>b) tarbiyaviy: O’quvchilarni Vatanga muhabbat qadriyatlarni ulug'lash, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash,tinchliksevarlik g’oyalarini singdirish;<br>c) rivojlantiruvchi: O’quvchilarning adabiyot va uning namoyondalari bo’yicha bilimlarini rivojlantirish.Ularni erkin va mustaqil fikrlashga o’rgatish,mardlik tuyg’usi bilan oshno qilish,onaga muhabbat, farzandga muhabbat-o’zbek ma’naviyatining noyob tushunchalari ekanini anglatish;<br>Vazifalar: O‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg’otish, ularda mavzu asosida bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish. Didaktik materiallar tayyorlash va undan dars jarayonida o‘rinli foydalanish, ko‘nikma va malakasini oshirish. |
| 2 | Dars jarayonining mazmuni | To’ra Sulaymon. “Iltijo”, “Armon” she’rlari tahlili orqali o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirish |
| 3 | O’quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi | Dars turi: Aralash<br>Usul: “Klaster”, “Venn diagrammasi”,“Nima uchun”, “T-chizmasi”, “SWOT” tahlil va boshqa interfaol usullar orqali dars jarayonini amalga oshirish<br>Shakl: kichik guruhlarda va yakka ishlash;<br>Vosita: darslik, tarqatma materiallar, ko’rgazma materiallar, rag’bat kartochkalari, guruh nomi yozilgan dastak, o’yin shartlari yozilgan ko’rgazma, taqdimot.<br>Nazorat: savol-javob,<br>Baholash: rag’bat kartochkalari vositasida va nominatsiyalar. |
| 4 | Kutiladigan natijalar | O’qituvchi: mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilishiga erishadi,o’quvchilar faolligini oshiradi, ularda fanga,mavzuga nisbatan qiziqish uyg’otadi. Bir darsda barcha o’quvchilar baholanadi, mavzuni mustaqil o’rganish va xotirada saqlash , mustaqil va ijodiy fikrlash orqali insho yozish malakasini o’zlahtirishga erishish;.<br>O’quvchi: mavzu yuzasidan yangi bilimlarni egallaydi. Mustaqil ijodiy ishlashni o’rganadi. asarni tahlil qila olish ko’nikmasi shakllanadi. nutqiy,savodxonlik darajasi oshadi.. Qisqa vaqt ichida ko’p ma’lumotga ega bo’ladi. |
| 5 | Kelgusi rejalar | Pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish va darsga tatbiq etish, takomillashtirish, o’z ustida ishlash. Pedagogik mahoratini oshirish. O’quvchilarda bilimlarni mustaqil o’zlashtirish, izlanish, mustaqil o’quv tadqiqotlarini amalga oshirish, hamkorlikda ishlash ko’nikmalarini shakllantirish. |

**Reja:**

1. Zamonaviy darsning o’ziga xos jihatlari.
2. Darsni samarali tashkil etishda SMART mezonlari.
3. Dars turlari va xusuiyatlari.

4. Darsning texnologik xaritasini tayyorlash.

Darslarni samarali tashkil etishning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u o'qituvchilarga tuzilgan va yaxshi rejalashtirilgan o'quv muhitini yaratishga imkon beradi. Darslar yaxshi tashkil etilganda, o'qituvchilar har bir mavzu uchun yetarli vaqt ajratishlari, barcha o'quvchilar ishtirok etish uchun teng imkoniyatlarga ega bo'lishlarini ta'minlashlari va qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lganlarga individual e'tibor berishlari mumkin. Bu, o'z navbatida, o'quvchilar o'rtasida intizom va mas'uliyat hissini rivojlantirishga yordam beradi, chunki ular o'zlaridan nima kutilayotganidan xabardor va o'z ishlarini shunga muvofiq rejalashtirishlari mumkin. Darslarni samarali tashkil etish o'qituvchilarga ko'proq shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llashga imkon beradi.

Zamonaviy dars - bu aynan o‘quvchilarning bilish darajasi rivojlanib, ularni atrofdagi haqiqatni faol ravishda idrok etishga, sabab-ta'sir munosabatlarini tushunishga va topishga, mantiq, fikrlash va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga undaydi. Zamonaviy darsning maqsadi aniq va o‘lchovli bo‘lishi kerak. Maqsadni dars natijasi bilan aniqlash mumkin. Darsning yangi ta'lim maqsadlariga o‘quvchilar o‘zlari tomonidan tuziladigan va shaxsan o‘zi uchun muhimligini anglaydigan maqsadlar kiradi. Zamonaviy dars mashg'ulotlar, suhbatlar, video-munozaralar, ishbilarmonlik va rol o‘ynash o‘yinlari, ochiq savollar, aqliy hujum va boshqalar kabi mashg'ulot usullari va o‘qitish usullaridan foydalanish bilan ajralib turadi.

**Darsga qo‘yiladigan zamonaviy tarbiyaviy talablar:** O‘quvchilarda mustaqil fikr yuritishni, eng yaxshi axloqiy sifatlarni, olgan bilimini hayot bilan bog‘lay olishni, Vatanni uning tarixi, madaniyati, urf – odatlarini, eng asosiysi, insonni hurmat qilishni, ilmiy dunyoqarashni, iqtisodiy, huquqiy, ekologik madaniyatni tarkib toptirishni tarbiyalash kerak.

**Darsga qo‘yiladigan psixologik talablar:** O‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini bilgan holda ularda xotira, ongli idrok etishni, mustahkam irodani, tasavvur qila olishni, o‘quvchilarda davlat ta’lim standartlari qo‘ygan talablarni ular yoshiga mosligini hisobga olishni ta’minlashdan iboratdir.

**Darsga qo‘yiladigan gigienik talablar:** Sinfdagi havo harorati, yorug‘lik miqdori, uning tozaligi, estetik did bilan jihozlanishi o‘quvchilarga beriladigan topshiriqlarning ular yoshiga mosligini hisobga olish kabilarga rioya qilish shart.

**Zamonaviy darsga qo‘yilgan didaktik talablar:** Darsning ta’limiy-tarbiyaviy maqsadini aniqlash, dars mavzusini qiziqarli, ilmiy faktlar bilan belgilash, dars mavzusining mohiyatini o‘quvchilarning o‘zi mustaqil fikrlab o‘zlashtirishga erishish, darsda barcha o‘quvchilarning faol ishtirokini

ta’minlash, o‘quv materiallarini o‘quvchilar tomonidan sodda tarzda qabul qilishga, hayot bilan chambarchasbog‘lashga erishish, mavzu mazmuniga mos ta’lim metodlarini tanlash va ulardan ko‘proq o‘quvchilarning foydalanishiga erishish, mavzu mazmuniga mos ta’lim metodlarini tanlash. Bu metodlar asosan qisman izlanish hamda izlanish darajasiga bo‘lishi zarur. O‘quvchilarning bilim manbalari bilan mustaqil ishlashga o‘rgatib boorish. O‘quvchilarning dars mazmuniga mos ravishda milliy istiqlol mafkurasi, o‘z tarixi, tili, urf-odatlari hamda boy madaniyatimiz bilan faxrlanishga o‘rgatish, dars mavzusini boshqa o‘quv fanlari bilan asoslanib o‘rganish, dars mavzusini o‘lkashunoslik tamoyiliga bog‘liqligini ta’minlash, o‘quvchilarda dars mavzusiga mos ravishda iqtisodiy, huquqiy, ekologik madaniyatni tarkib toptirish, darsda davlat ta’lim standartlarida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yilgan talablarni to‘liq bajarishga erishish, o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilim sifatini xolisona baholanishiga erishish.

Dars ta’lim jarayonining yaxlitligi nuqtayi nazaridan ta’limning asosiy tashkiliy usuli hisoblanadi. Unda sinf-dars tizimining xususiyatlari aks etadi, unda o‘quvchilarni ommaviy qamrab olish, tashkiliy tartib va o‘quv ishlarining muntazamligi ta’minlanadi. O‘quvchilar hamda sinf jamoasining individual xususiyatlarini bilishi o‘qituvchi uchun har bir o‘quvchi faoliyatiga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatishga imkon beradi. Dars doirasida ommaviy, guruhli va individual ta’lim shakllarini birlashtirish imkoniyati uning rad etib bo‘lmaydigan ustunligi hisoblanadi. Dars bevosita o‘qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o‘quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o‘quvchilarning mashg‘ulot jarayonida o‘rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratiladi. Darsning tuzilishi oddiy va ancha murakkab bo‘lishi mumkin. Bu o‘quv materialining mazmuni, darsning didaktik maqsadi, o‘quvchilar va jamoa sifatida sinfning xususiyatlariga bog‘liq

Zamonaviy ta’lim texnologiyasida darsni tashkil etishga doir qator umumpedagogik-didaktik talablar qo‘yiladi. Bular:

– har bir dars texnologik jihatdan mukammal darajada loyihalashtirilishi;
– dars maqsad va vazifalarining aniq belgilanishi;
– darsda ta’lim vazifalarining tarbiya vazifalari bilan bog‘liq bo‘lishi;
– darsni o‘quv dasturi, o‘quv rejasi talabiga muvofiq tashkil etish;
– dars uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish;
– darsning tashkiliy jihatdan puxta belgilangan bo‘lishi;

– darsning jonli, samarali va ta’lim oluvchilarga emotsional ta’sirli bo‘lishi uchun ta’lim beruvchining turli xil zamonaviy va ilg‘or ta’lim usullari, vositalari va ko‘rgazmali qurollardan, texnika vositalaridan mohirlik bilan foydalana olishi;

– ta’lim beruvchining rahbarlik roli bilan ta’lim oluvchilarning faol bilish faoliyatini birga olib borish;

– darslarning o‘zaro uzviy va dialektik xususiyatga ega bo‘lishiga erishish;

– ta’lim oluvchilarning yosh va psixologik, shuningdek, mutaxassislik xususiyatlarini inobatga olish;

– darsni demokratik tamoyillar asosida tashkil etish;

– darsda ta’lim oluvchi erkinligini ta’minlashga erishish;

– darsda ta’lim oluvchilarni mustaqil fikrlash hamda o‘z fikrini bayon etishiga undash va imkon yaratish;

– dars davomida ta’lim oluvchilar faoliyatini to‘g‘ri tashkillashtirish, muammoli izlanuvchanlik layoqatlarini rivojlantirish;

– dars jarayonida o‘qitishning jamoa, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini mos ravishda qo‘shib olib borish;

– ta’lim oluvchilar o‘quv faoliyatlarining atroflicha nazorat qilinishi va adolatli darajada baholanishi va h.k.

Dars samaradorligini oshirishda o‘quv vositalarining ahamiyati judda kattadir. Bularga darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, radio eshittirishlari, televideniye ko‘rsatuvlari, gazeta va jurnallar, elektron darsliklar, kodoskop, proyeksion rangli rasmlar, slaydlar, kompyuterlar, hamda o‘qitishning barcha zamonaviy texnik vositalari, tajribalar o‘tkazish uchun jihozlar, kundalik kuzatish daftari, o‘lkashunoslik burchagi, geografiya maydonchasi va undagi jihozlar, maktab o‘quv-tajriba maydonchasi kiradi.

O‘qituvchi fanning istiqbollari haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lmay turib, chuqur asoslangan dars o‘tkazishiga umid qilish qiyin. O‘quv fanidagi g‘oyalar va mavzularning izchilligi va o‘zaro bog‘liqligini tasavvur etgan holda o‘qituvchi dars mashg‘uloti jarayonida dars mazmunidan tashqari darsda foydalaniladigan qo‘shimcha manbalar (she’rlar, maqollar, matallar, topishmoqlar, yozuvchilarning asarlaridan parchalar, hayot bilan bog‘liqlik, fanlararo bog‘lanishlar)dan unumli foydalanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Darslar samaradorligi o‘qitish uslublari to‘g‘ri tanlanganida va ularni ko‘rgazmali qurollar, o‘quv vositalari bilan uyg‘unlashtirilganda sezilarli darajada ortadi. O‘qitishning zamonaviy texnika vositalari va axborot texnologiyalaridan mohirona foydalanish dars samaradorligini ta’minlaydi va o‘quv mehnati intensivligini hamda o‘quv jarayoni texnik madaniyatini oshiradi.

“Dars bu – o‘qituvchining umumiy va pedagogik madaniyatining ko‘zgusi, intellektual boyligining o‘lchovi, uning bilim doirasining ko‘rsatkichidir”. O‘qituvchi o‘quv texnologiyasining bevosita yetkazuvchisi sifatida mashg‘ulotlarga jiddiy tayyorlangan, yangiliklardan boxabar bo‘lgani holda dars jarayonini qiziqarli olib borishi lozim. Dars berayotgan faniga taalluqli didaktik materiallarni, darsliklarni, uslubiy qo‘llanmalarni va elektron o‘quv vositalarini ham mukammal o‘rganishi, shuningdek, ularni darslarida qo‘llay olish, faoliyatini muntazam yangilab borishi davr talabidir.

“Zamonaviy dars shunday darski, unda o`qituvchi o`quvchining mavjud imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanib ,uning aqliy potensialini ishga solib rivojlanishni ta`minlaydi. O`quvchi esa o`z navbatida, bilimlarini chuqur o`zlashtiradi va ma`naviy barkamolik sari odimlaydi “ deb yozadi pedagogika fanlari doktori ,professor J.F. Yoldoshev.

SMART o‘quv maqsadlari yordamida darsni rejalashtirish.

SMART - bu aniq va o‘lchanadigan maqsadni shakllantirish, zarur resurslar va unga erishish vaqtini aniqlash imkonini beruvchi usul. SMART ta’lim (texnologiya) maqsadlari bilan o‘quv tajribalarini rejalashtirishdir. Mazkur mavzuda ta’lim tizimida SMART - o‘quv maqsadlari orqali o‘qitishning afzalliklari keng yoritilgan. Ta’lim muassasalari faoliyatida SMART - o‘quv maqsadlarining ahamiyati, maqsadi, mazmuni, o‘qitishdagi afzalliklari va dars jarayonida maqsadni aniq qo‘yish orqali natijaga erishish, maqsad qo‘yish bilan bog‘liq muammolarni aniqlash hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari, tamoyillari va metodlari keng yoritilgan.

• Smart o‘quv maqsadlari - aniq, o‘lchab bo‘ladigan, erishish mumkin bo‘lgan, dolzarb va vaqt bilan chegaralangani va ta’lim tizimidagi afzalliklari keng yoritilgan.

• Ta’lim muassasalari faoliyatida SMART - o‘quv maqsadlarining ahamiyati, maqsadi, mazmuni, o‘qitishdagi afzalliklari va dars jarayonida maqsadni aniq qo‘yish orqali natijaga erishish.

• Maqsad qo‘yish bilan bog‘liq muammolarni aniqlash hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari, tamoyillari va metodlari o‘rganishga imkon beradi.

• SMART o‘quv maqsadining uch elementi hamda SMART o‘quv maqsadlarini joriy etishning besh usuli.

• Zarur jihozlar: har bir guruh ishi uchun vatman, marker, A4 qog‘oz, taqdimot. SMART o‘quv maqsadlari Zamonaviy darsning maqsadi aniq o‘lchovli bo‘lishi kerak, maqsadni dars natijasi bilan aniqlash mumkin. Darsni samarali tashkil etish va o‘tkazish, dars ishlanma yaratish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

1. Darsning maqsadlarini aniqlash;
2. Dars turiga aniqlik kiritish;
3. Maqsadlarga muvofiq mashg‘ulot usullarini tanlash;
4. Maqsad,vazifa, mazmuni va o‘qitish uslubiga mos keladigan dars tuzilishini aniqlash.

Birinchi qoidani batafsilroq ko‘rib chiqsak - dars maqsadlarini aniqlash. Ular qanday qilib to‘g‘ri shakllantirilishi mumkin?

SMART dars rejasi samarali ta’lim uchun muhimdir. SMART degani aniq, o‘lchab bo‘ladigan, erishish mumkin bo‘lgan, dolzarb va vaqt bilan chegaralangan degan ma’noni anglatadi. Keling, har bir elementni ona tili misoli orqali ko‘rib chiqamiz.

O‘qituvchi faoliyatining maqsadi - uning bilimga intilishi, o‘quvchini tayyorlash, o‘qitish va rivojlantirish darajasini o‘zgartirish To‘g‘risida ongli ravishda qaror qabul qilish, shuning uchun darsning maqsadlari iloji boricha aniqroq bo‘lishi kerak. Muvofiqlikka yo‘naltirilgan maqsadlarni belgilashning bir yo‘li – SMART - mezonlarini qo‘llashdir. SMART «to‘g‘ri» maqsadlarni belgilash uchun eng muhim besh mezonni eslab qolishga yordam beradigan abbreviaturadir (beshta inglizcha so‘zlarning birinchi harfiga asoslangan):

**Aniqlik** (o‘ziga xoslik, maxsus) – birinchi element aniqlikdir. Maqsad aniq qilib belgilab berilgan bo‘lishi kerak. U quyidagi savollarga javob berishi kerak: nima qilish kerak? Kim javobgar? Qanday talablar va cheklovlar mavjud? Siz o‘quvchilarga ot so’z turkumini tushuntirishni xohlaysiz? Bu maqsad juda aniq, chunki u ot so’z turkumini tushuntirishga qaratilgan. Hech qanday noaniqlik yo‘q; maqsad aniq belgilangan. Misol uchun, darsingiz otning boshqa

so’z turkumlaridan farqi, uning grammatik xususiyatlariga qaratilgan bo‘lishi mumkin, bu har bir bosqichning tafsilotlarini tushunishlariga qaratilgan.

**O‘lchamga ega** – ikkinchi element o‘lchanadigan. Maqsad taraqqiyotni kuzatish va muvaffaqiyatni aniqlash uchun miqdoriy yoki o‘lchanadigan mezonlarga ega bo‘lishi kerak. U quyidagi savollarga javob berishi kerak: qancha? Necha dona? Qachon bajarilganini qanday bilsam bo‘ladi? O‘quvchilar darsni tushunganligini bilish uchun, siz ularning bilimlarini qanday tekshirishingiz mumkin? Siz onlayn testlar, shakllantiruvchi baholashlar yoki sinfdagi faoliyatlar orqali ularning bilimlarini baholashingiz mumkin. Misol uchun, siz o‘quvchilardan ot so’z turkumining ta’rifi, uning grammatik xususiyatlari yuzasidan onlayn test tayyorlashingiz mumkin. Yoki sinfdagi faoliyatda o‘quvchilar ot so’z turkumi grammatik xususiyatlarini jadvalda shakllantirishlari mumkin, bu ularning tushunishini o‘lchashning bir ko‘rsatkichi bo‘ladi.

**Erishsa bo‘ladigan** – erishish mumkin bo‘lganlik - **uchinchi** komponentdir.

Maqsad real va vaqt, resurslar va ko‘nikmalar kabi cheklovlar doirasida erishish mumkin bo‘lishi kerak. Qanday amallar qilinishi zarur?

Maqsadga erishish shartlari qanday? Dars maqsadlari real va sinf muhitining cheklovlari doirasida amalga oshirilishi kerak. Bu mavjud yoki oson yaratiladigan materiallardan foydalanishni anglatadi. Misol uchun, siz ot so’z turkuminimg grammatik xususiyatlarini tushuntirish uchun diagrammalar, jadvallar yoki onlayn interaktiv usullardan foydalanishingiz mumkin. O‘quvchilar haqiqatdan ham tushunishi mumkin bo‘lgan maqsadlarni belgilash muhimdir.

**Dolzarb** – to‘rtinchi element dolzarblikdir. Maqsad DTSning umumiy maqsadlari va ta’lim muassasasi strategiyalariga mos kelishi kerak. Bu foydali bo‘lishi va kerakli natijalarga hissa qo‘shishi kerak. Dars maqsadi o‘quv dasturi va o‘quvchilar ehtiyojlariga muvofiq mazmunli bo‘lishi kerak.

Vaqt bilan chegaralangan - oxirgi element vaqt bilan chegaralanganlikni anglatadi, ya'ni dars maqsadlarini amalga oshirish uchun aniq muddat belgilanishi kerak. Maqsad muayyan muddat yoki yakunlash muddatiga ega bo‘lishi kerak. Bu shoshilinchlik tuyg‘usini yaratishga yordam beradi va harakatlarni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Masalan, ot so’z turkumining grammatik jihatlarini o’rganish uchun 4 soat yetarli deb qaror qilishingiz mumkin. Bu 4 soat darsda nazariy ma’lumotlarni o’rganish, tahlil, qilish, mashq qilish, ko’nikmalarni shakllantirishga imkon beradi, bu esa o’quvchi mavzuni to‘liq tushunishini ta‘minlaydi.

Aniq vaqt oralig‘ini belgilash dars tuzilishini rejalashtirishda yordam beradi va maqsadlar belgilangan muddat ichida bajarilishini ta’minlaydi.

SMART o‘quv maqsadlarining uchta elementi bor:

1. Namoyish - o‘quvchi nima qila olishi va/yoki tayyorlay olishi kutilmoqda? 2. (Muvaffaqiyat) mezonlar - maqbul ishlash mezonlari qanday?

3. Shartlar - qanday sharoitlarda ishlash sodir bo‘ladi.

Xulosa, SMART metodi sizga ma’lum chegaradan chiqib ketmagan holatda maqsadga erishishda zarur bo‘lgan bosqichlardan o‘tib borishingizga yordam beradi. Shuningdek, bu metod kerakli resurslar, erishayotgan natijalar va sarflanayotgan vaqt ustidan nazorat qilish imkoniyatini beradi. Maqsadlaringizga SMART usulda erishing.

**Darsning texnologik xaritasi -** o'qituvchi va o’quvchilar o'rtasidagi pedagogik o'zaro munosabatni rejalashtirishning zamonaviy shakli bo’lib, quyidagilar aniq belgilab chiqiladi:

***Dars mavzusi;***

***Maqsad va vazifalar;***

***Dars jarayonining mazmuni;***

***Darsni amalga oshirish texnologiyasi;***

***Kutiladigan natijalar;***

***Kelgusi rejalar.***

| № | Dars mavzusi: | To'ra Sulaymon. "Iltijo", "Armon" she'rlari |
|---|---|---|
| 1 | Maqsad va vazifalar | a) ta'limiy: To'ra Sulaymon ijodiga oid bilimlarni o'quvchilar ongiga singdirish; DTS talablari asosida nutqiy savodxonligini oshirish;<br>b) tarbiyaviy: O'quvchilarni Vatanga muhabbat qadriyatlarni ulug'lash, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash,tinchliksevarlikg'oyalarinisingdirish;<br>c) rivojlantiruvchi: O'quvchilarning adabiyot va uning namoyondalari bo'yicha bilimlarini rivojlantirish.Ularni erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatish,mardlik tuyg'usi bilan oshno qilish,onaga muhabbat, farzandga muhabbat-o'zbek ma'naviyatiningnoyob tushunchalariekanini anglatish;<br>Vazifalar: O'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish. Didaktikmateriallartayyorlash va undan dars jarayonida o'rinli foydalanish, ko'nikma va malakasinioshirish. |
| 2 | Dars jarayonining mazmuni | To'ra Sulaymon. "Iltijo", "Armon" she'rlari tahlili orqali o'quvchilarningbilim, ko'nikma va malakalarinishakllantirish |
| 3 | O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi | Dars turi: Aralash<br>Usul: "Klaster", "Venn diagrammasi","Nima uchun", "T-chizmasi", "SWOT" tahlil va boshqa interfaol usullar orqali dars jarayonini amalga oshirish<br>Shakl: kichik guruhlarda va yakka ishlash;<br>Vosita: darslik, tarqatma materiallar; ko'rgazma materiallar, rag'bat kartochkalari, guruh nomi yozilgan dastak, o'yin shartlari yozilgan ko'rgazma, taqdimot.<br>Nazorat: savol-javob,<br>Baholash: rag'batkartochkalarivositasidava nominatsiyalar; |
| 4 | Kutiladigan natijalar | O'qituvchi: mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi,o'quvchilarfaolligini oshiradi, ularda fanga,mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir darsda barcha o'quvchilar baholanadi, mavzuni mustaqil o'rganish va xotirada saqlash , mustaqil va ijodiy fikrlash orqali insho yozish malakasini o'zlahtirishgaerishish;.<br>O'quvchi: mavzu yuzasidan yangi bilimlarni egallaydi. Mustaqil ijodiy ishlashni o'rganadi. asarni tahlil qila olish ko'nikmasi shakllahnadi. nutqiy,savodxonlikdarajasi oshadi.. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi. |
| 5 | Kelgusi rejalar | Pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish va darsga tatbiq etish, takomillashtirish, o'z ustida ishlash. Pedagogik mahoratini oshirish. O'quvchilarda bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, izlanish, mustaqil o'quv tadqiqotlarini amalga oshirish, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish. |

**Adabiyotlar**:

1. Avazova F. Zamonaviy dars va unga qo'yiladigan talablar arangiz. Conference on universal science research.
2. Qosimova N. Ona tili ta'limi va yangi pedagogiktexnologiyalar. Buxoro, 2009, 103.
3. https://api.onlinedu.uz/storage/lesson/5UEO3G9XU8h2cc1W6rdDv1btYHcKfcF0pNqSuIDt.pdf?token=null.
4. https://cyberleninka.ru/article/n/darslarni-samarali-tashkil-etish-va-zamonaviy-xorij-metodlaridan-foydalanish
5. www.ziyonet.uz 6. www.edu.uz.

## 2.3.2-mavzu: Sinfni boshqarishning samarali yo‘llari

**Mashg‘ulotning texnologik xaritasi**

| **O‘quv bloki** | **II. UMUMKASBIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH** | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **O‘quv modul** | **2.3. “O‘quv jarayonini samarali tashkil etish” modulining o‘quv-mavzu rejasi** | | | | |
| **Mavzu** | 2.3.2-mavzu: **Sinfni boshqarishning samarali yo‘llari** | | | | |
| **Davomiyligi** | 80 daqiqa | | | | |
| **Mashg‘ulotning maqsadi** | **Sinfni boshqarishning samarali yo‘llari yuzasidan BKMlarini rivojlantirish** | | | | |
| **Mashg‘ulot bosqichlari** | **Faoliyat tavsifi** | **Vaqt, daqiqa** | **Metodlar** | **Zarur ihozlar** | **Natija** |
| **1. Tashkiliy qism** | - Salomlashish<br>- Mavzu va reja bilan tanishtirish<br>- Mashg‘ulotning dolzarbligini asoslab berish | 5 | Suhbat, tushuntirish | 1-slayd | Ishtirokchilar e’tiborini mavzuga jalb etish |
| **2. Motivatsiya** | - Muammoli vaziyat tahlili<br>- "Mavzuning dolzarbligi" haqida qisqa muhokama | 5 | Muammoli vaziyat yaratish, muhokama | 2-slayd 1-2-ilovalar | O‘qituvchilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag‘batlanadi. |
| **3. Nazariy qism** | Sinfni samarali boshqarishning asosiy tamoyillari, interaktiv sinf faoliyati, sinfni samarali boshqarish strategiyalari yordamida o‘quvchilarni | 15 | Taqdimot, ko‘rgazmali tushuntirish | 3-5-slaydlar | O‘qituvchilar sinfni samarali boshqarish usullari, strategiyalari yuzasidan ham nazariy |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | o‘quv faoliyatiga tayyorlash, sinfda sog‘lom, do‘stona, ijobiy muhitni yaratish, sinf uchun “Oltin qoidalar”ni ishlab chiqish, yuzasidan ham amaliy, ham nazariy bilim va ko’nikmalarga ega bo’ladilar | | | | bilm va ko’nikmaga ega bo’ladilar. |
| **4. Amaliy mashg‘ulot** | Guruglarda sinfni boshqarish bo’yicha taklif va tavsiyalarini, oltin qoidalarini yaratadilar va bu bo’yicha BKMlari rivojlantiriladi | 35 | Guruhlarda ishlash, sun’iy intellektdan foydalanish | tarqatmalar; 5-6--slayd | Sinfni samarali boshqarish strategiyalari, usullarini, taklif va tavsiyalarini ishlab chiqadilar |
| **5. Tahlil va muhokama** | - Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar;<br>- Qiyinchiliklarni muhokama qilish;<br>- Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish; | 10 | Suhbat, muhokama, tahlil | 7-8-slaydlar | O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi. |
| **6. Refleksiya** | - refleksiya (“Gamburger” usulida tahlil) | 5 | Refleksiya usullari | | O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi. |
| **7. Yakunlash va baholash** | - Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish<br>- Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish | 5 | Suhbat | 9-slayd | O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo‘naltiriladi. |

**Ilovalar**

**1-ilova**

Ushbu jarayonga izoh bering.

**2-ilova**

Ushbu jarayonga izoh bering.

**Reja:**

1. Sinfni samarali boshqarishning asosiy tamoyillari.
2. Interaktiv sinf faoliyati.
3. Sinfda sog‘lom, do‘stona, ijobiy muhitni yaratish.
4. Sinf uchun “Oltin qoidalar”ini ishlab chiqish.

Samarali o‘quv muhiti ko‘plab omillarni talab qiladi, ayniqsa **sinfni boshqarish rejasi**. Agar siz ushbu rejani yaxshi tuzsangiz, siz va o‘quvchilaringiz o‘zaro mustahkam munosabatlar o‘rnatasiz, sinfni tartibga solish oson bo‘ladi, shuningdek, o‘qitish jarayonining sifati yangi bosqichga ko‘tariladi.

Xo‘sh, sinfni boshqarish rejasi nima? Va samarali bo‘lishning yo‘li qanday?

Keling, bilib olaylik!

**Sinfni boshqarish rejasi nima?**

Sinfni boshqarish rejasi quyidagi savolga javob berishi kerak, ya’ni

***O’quvchilar o'zlarining xatti-harakatlari uchun qanday javobgarlikni o'z zimmalariga olishadi?***

Oddiy qilib aytganda, sinfni boshqarish rejasi o‘quvchilarga o‘z xatti-harakatlarini tushunish, ularga rioya qilish va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga yordam beradigan qoidalar/ko‘rsatmalarni o‘z ichiga olishi darkor.

Xususan, u qoidalar va tartiblardan tortib sinfning kun davomida qanday ishlashi rejasigacha bo‘lgan tafsilotlar darajasini o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, har bir davr tegishli o‘qitish strategiyalari bilan maksimal darajada foydalaniladi.

Misol uchun, sinfni boshqarish rejasi o‘quvchilar o‘qituvchining so‘zini bo‘lish uchun qo‘llarini ko‘tarishlarini talab qilishi mumkin. Agar bu qoidaga rioya qilinmasa, o‘quvchilar ogohlantiriladi.

**Sinfni boshqarish rejasining afzalliklari**

Darslarni oldindan tayyorlangan reja bilan tashkil etish o‘quvchilarning faolligini oshiradi va darsni davomida hech bir jihatni nazoratdan chetda qoldirmasdan tartibli amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Shunday qilib, sinfni boshqarish rejasi odatda quyidagi afzalliklarni beradi:

- **O‘quvchilarga diqqatini jamlashga e’tibor qarating:** o‘quvchilarga darsda vaqtlarini faol va samarali ishlatishga imkon bering. Sinfni boshqarish rejangiz o‘quvchining chinakam samarali o‘rganish vaqtini oshirishga ko‘maklashsin.
- **Barcha o‘quvchilarga qoidalar bilan tanishish imkonini bering:** Sinf xonasini boshqarish rejasining maqsadlarini samarali amalga oshirish uchun barcha o‘quvchilar sinf qoidalari va ko‘rsatmalarini aniq tushunishlari, munosabat bildira olishlari agar talab qilinsa ba’zi qoidalarga o‘zgarish kiritishlariga imkon berish lozim.
- **Sinfda hamkorlik faoliyatini oshiring:** Sinfni boshqarish rejasi o‘qitish maqsadlarini izlanish va hamkorlikda o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lsin. Bu o‘quvchilarni o‘z-o‘zini boshqarish, o‘ziga ishonish va hamkorlik qilish qobiliyatiga ega bo‘lishga undaydi. Bular o‘quvchiga, shuningdek, o‘qituvchilarga kelgusidagi ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishishlarini ta’minlaydi.

**Sinfni samarali boshqarish rejasini boshlash uchun 8 qadam**

**№1 - Maktab qoidalarini o‘rganing.**

Sinfni boshqarish rejasini tuzishdan oldin maktabingiz tartib-intizom qoidalari bilan tanishib chiqishingiz zarur. Chunki har bir maktabda sinfda va o‘quvchilar uchun intizom yoki mukofot/jazo choralari mavjud.

Shunday qilib, xatoga yo‘l qo‘ymaslik va vaqtni yo‘qotmaslik uchun siz maktab tartib-intizom qoidalari bilan oldindan tanishib olishingiz, keyin sinfingizda qoidalar/tavsiyalar yaratishingiz mumkin.

**№2 - Qoidalarni ishlab chiqing.**

Ishlab chiqilgab qoidalar o‘quvchilarning faol o‘rganishga yordam beradigan xatti-harakatlarni rao‘batlantirishi, shuningdek, o‘rganishga xalaqit beradigan xatti-harakatlarni bartaraf etishga xizmat qilishi kerak.

Sinf qoidalari o‘zaro hurmat, muloqot va o‘rganishga tayyor bo‘lish asoslariga ega bo‘lishlari kerak.

Ya’ni, qoidalar har bir o‘quv faoliyati uchun o‘quvchi xatti-harakatlarning chegaralarini anglatishi kerak.

Masalan, adabiyot darsida siz o‘z navbatida xatti-harakatlar qiodalarini sanab o‘tishingiz mumkin:

| | |
|---|---|
| O‘quvchilarga o‘zlari tanlagan adabiy asarni o‘qish uchun 15 daqiqa vaqt beriladi. | |
| O‘quvchilar keyingi 15 daqiqada o‘zlarini qanday his qilganlarini yozishlari kerak. | |
| Agar o‘quvchilarda savollar bo‘lsa, o‘qituvchidan yordam olish uchun qo‘lingizni ko‘taring. | |
| Dars oxirida ba’zi o‘quvchilar o‘zlarining his-tuyo‘ulari haqida fikr bildirishlari so‘raladi. | |
| Qoidalarga rioya qilmagan o‘quvchilar bir marta ogohlantiriladi. | |

Bu o‘quvchilarga har bir sinfda nima qilishlari kerakligini, mustaqil o‘rganish uchun qancha vaqt borligini va qoidalarga rioya qilmasa, qanday oqibatlarga olib kelishini tushunishga yordam beradi.

**№3 – O‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi chegaralarni belgilang**

*Tartib-intizom qoidalari asosida sinfni boshqarish rejasini tuzish har ikki tomonni ham yaxshilaydi. Shunday qilib, siz va sizning o‘quvchilaringiz ikkala tomon uchun chegaralarni belgilashingiz va ularni hurmat bilan amal qilishingiz kerak.*

O‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi ba’zi chegaralarni aytib o‘tish mumkin:

- Siz mavzuni tushuntirayotganingizda o‘quvchilar halaqit bermaydilar.
- O‘quvchilar mustaqil o‘rganish vaqtida bo‘lsa, siz aralasha olmaysiz.
- Siz o‘quvchilarni masxara qilmasligingiz, kinoya qilmasligingiz yoki tanqid qilmasligingiz kerak va aksincha.

**№4 - verbal va noverbal muloqotdan foydalaning.**

Sinf xonasi har doim ijobiy va salbiy xatti-harakatlarni birlashtiradi. Biroq, har doim ham ijobiy/salbiy xatti-harakatlarni nomlash va o‘quvchilarni ogohlantirish yoki mukofotlash kerak emas.

Ba’zan, agar o‘quvchi yaxshi ishlayotgan bo‘lsa, ***siz o‘sha ijobiy xatti-harakatlarni rao‘batlantirishingiz mumkin:***

- ✓ Bu o‘quvchiga tabassum qiling
- ✓ Boshingizni qimirlatib rozilik bildiring
- ✓ Barakalla

***Salbiy xatti-harakatlarga kelsak, sizga quyidagilar kerak:***

- ✓ Qoshlarini burish, bosh chayqash.
- ✓ Jiddiy yuz hosil qiling.

**№5 - O‘quvchilaringizni tushunishga harakat qilin.**

Sinfni boshqarish rejasining eng muhim elementi o‘quvchilar bilan samimiy munosabatlarni o‘rnatishdir. O‘qituvchilar har bir o‘quvchini eshitishi va unga individual ta’lim imkoniyatlarini yaratishi ham yaxshi samara beradi.

Masalan, ***sinfda o‘quvchining ismini aytib chaqirish va o‘quvchini maqtash.***

Har bir o‘quvchining o‘ziga xos shaxsiyati va o‘rganish uslubi bo‘ladi. Shuning uchun ular turli yondashuvlar va yechimlarni talab qiladi. Har bir o‘quvchini tushunish o‘qituvchilarga o‘z sinflarini yanada oson boshqarishga yordam beradi.

**№6 - Innovatsion o‘qitish usullari**

Zerikarli o‘qitish usullari, bir xil yo‘ldan borish ham o‘quvchilarning dars vaqtida yolo‘iz ishlashi, gaplashishi, kam e’tibor berishi va hokazolarning sabablaridan biridir.

Buni o‘quvchilarning samaraki ta’lim olishlariga yo‘naltirilgan o‘qitish usullarini tanlash orqali o‘zgartirish mumkin: innovatsion o‘qitish usullari va interaktiv sinf faoliyati? Viktorina tashkil qiling, aqliy hujum, bahslar va qiziqarli vazifalar sinfni samarali ta’lim olishga va boshqarishga yordam beradi va sinf qoidalarini buzishga yo‘l qo‘yilmaydi.

**№7 - Mukofot va jazolar**

O‘quvchilarni rao‘batlantirish uchun rao‘batlantirish - o‘qituvchilar sinfni boshqarishda tez-tez foydalanadigan yaxshi usul. Rao‘batlantirish o‘quvchining darslarga ishtiyoqini oshiradi va sinfga ko‘proq hissa qo‘shishni xohlaydi. Darsga xalaqit beruvchi xatti-harakatlar uchun o‘qituvchilar, shuningdek, o‘quvchilarni jazolashlari va qayta takrorlamaslikka rioya qilishlikka o‘rgatishlari kerak. Rao‘bat va jazolar sinf qoidalariga yaxshiroq amal qilishga yordam beradi.

O‘qituvchilar turli darajadagi mukofotlarni taklif qilishlari mumkin. Mumkin bo‘lgan mukofot/sovo‘alarning ba’zi misollari

- ✓ Stikerlar, qalamlar va h.k. shunga o‘xshah predmetlar.
- ✓ O‘quvchining xohishiga ko‘ra kitob.
- ✓ Bir seans muzeyga/filmga olib boradi.

Aksincha, qoidalarga amal qilinmasa, jazolash chora sifatida ko‘riladi. O‘quvchilar xatolarini anglashlari va ularni takrorlamasliklarini tushunishlari uchun quyidagi jazo shakllari mavjud:

- ➢ Agar o‘quvchi ko‘p shovqin qilsa, atrofdagilarni bezovta qilsa: unda bir necha kun sinf oldida yolo‘iz o‘tirishiga to‘o‘ri keladi.
- ➢ Agar o‘quvchilar janjal qilsalar yoki kelishmay qolsalar: o‘quvchilarni guruh bo‘lib ishlashlari yoki birgalikda navbatchilik qildiring.
- ➢ Agar o‘quvchi uy vazifasini bajarmasa: Darsni qayta o‘rganish va butun sinfni o‘qitish topshirio‘i bilan jazolang.
- ➢ Agar o‘quvchi o‘qituvchini xafa qilsa: o‘quvchining ota-onasini maktabga taklif qiling va birinchi navbatda o‘quvchining kuchli tomonlari haqida gapiring. Keyin o‘qituvchilarni haqorat qilish muammosi haqida gapiring. O‘sha o‘quvchi o‘zidan uyaladi va o‘qituvchidan kechirim so‘raydi.

Biroq, rao‘batlar va jazolar adolat va oshkoralikni ta’minlashi kerak (holatga qarab), chunki adolat o‘quvchilar uchun hurmatni his qilishlari va sinfda tinchlik muhitini yaratish uchun zarurdir.

**№ 8 - Sinfni samarali boshqarish rejasi uchun ota-onalarga murojaat qiling.**

Muvaffaqiyatli ta’lim uchun ikkala tomon ham kerak: maktab va oila. Ota-onalar o‘z farzandlarining shaxsiyatini tushunadilar va mukammal o‘quvchilarni xohlaydilar. Shuning uchun, iltimos, ota-onalar bilan boo‘laning, muhokama qiling va tegishli sinfni qanday o‘qitish va boshqarishni bilib oling.

Bundan tashqari, o‘qituvchilar ota-onalarni uyda o‘z farzandlarining yutuqlarini maqtashga undashlari kerak, shunda o‘quvchilar har doim ota-onalari tomonidan ularning harakatlari uchun tan olinishini his qilishadi.

**Sinfni samarali boshqarish rejasi uchun maslahatlar**

Sinfni samarali boshqarish rejasini yaratish birinchi kundan boshlanishi kerak, ammo u shu bilan tugamaydi. Yil davomida o‘qituvchilar izchil va qat'iyatli bo‘lishlari kerak

- O‘quvchilar bilan munosabatlarni rivojlantirish.
- Yaxshi xatti-harakatlarni kuzatib boring va mustahkamlang.
- O‘quvchilar hayotini, qiziqishlarini, kuchli va zaif tomonlarini hurmat qiling.
- Darsni o‘quvchilarning xatti-harakatlari va ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan tartibda rejalashtiring.
- Ana shunda, o‘quvchilar tartib-intizon qoidalariga rioya qiladilar va samarali o‘rganishga jiddiy yondashadilar.

Bundan tashqari, siz moslashuvchan bo‘lishingiz va sinfni boshqarish rejangizni to‘ldirib va takomillashtirib borishingiz, muammoli vaziyatlar paydo bo‘lganda moslashishingiz kerak. Bundan tashqari, har bir o‘quvchi o‘qituvchi tomonidan o‘amxo‘rlik qilishni xohlashini his etishingiz kerak, lekin har bir o‘quvchiga mehr ko‘rsatishda boshqa o‘quvchilar bir-birlarini xafa qilmasliklari yoki hasad qilmasliklari uchun me’yorni ushlash kerak.

**Xulosa**

Umid qilamizki, yuqoridagi 8 qadam bilan siz sinfni samarali boshqarish rejasiga ega bo‘lasiz.

Qanday texnika yoki rejaga ega bo‘lmang, shuni unutmangki, o‘qituvchi har doim o‘quvchilar uchun namuna bo‘lib qoladi. O‘quvchilar kasbiy mahorat va ularga bo‘lgan hurmatni o‘qituvchining ijobiy munosabati deb bilsalargina, ular yaxshi o‘quv muhitini yaratishga ko‘maklashadilar.

**Sinfni boshqarish rejasini qanday yozaman?**

Quyidagi bosqichlarni bajarish orqali sinfni samarali boshqarish rejasini yaratishingiz mumkin:

1. **Kutishlar** – o‘quvchilarga nisbatan qanday xulq-atvor va akademik kutishlaringizni aniq ayting. Bularni hamma ko‘radigan joyga joylashtiring. 2. **Doimiy ishlar** - sinfga kirish/chiqish, materiallar, topshiriqlar kabi kundalik tartiblarni belgilang.

3. **Qoidalar** - 3-5 ta oddiy, ijobiy qoidalarni yarating. Ularni yaratishda o‘quvchilarni jalb qiling. Qoidalar hurmat va xavfsizlikka qaratilishi kerak. 4. **Rao‘batlar** - maqtov, stikerlar, mukofotlar kabi ishinchni qondirish uchun ijobiy mustahkamlash tizimini batafsil ko‘rsating.

5. **Natijalar** - ogohlantirishlardan uyga qo‘no‘iroq qilishgacha bo‘lgan noto‘o‘ri xatti-harakatlarning tegishli, kuchayuvchi oqibatlarini belgilang. Fikringizda, hukmingizda barqaror bo‘ling.

6. **Muloqot** - ota-onalar siz bilan boo‘lanishlari uchun ish vaqtini, elektron pochta manzilini, aloqa manzillarini taqdim eting.

7. **Qiyin xatti-harakatlar** - kechikish, tayyorgarlik ko‘rmaslik, texnologiyadan noto‘o‘ri foydalanish kabi tez-tez uchraydigan muammolarga aniq javobni rejalashtiring.

8. **Ta’lim usullari** - samarali o‘rganishni ta’minlash uchun xilma-xillik, juftlikda, kichik guruhlarda ishlashga jalb qiling.

**Sinfda ta’limni boshqarish rejasi nima?**

Sinfda ta’limni boshqarish rejasi o‘qituvchining o‘quv maqsadlariga erishish uchun dars o‘tishini, o‘quvchilar ishini, muloqotini va umumiy kurs tuzilishini qanday tashkil etishini belgilaydi.

**Sinfni muvaffaqiyatli boshqarish rejalarining 4 ta asosiy elementi nima?**

- ✓ Aniq umidlar
- ✓ Muvofiqlik va adolatlilik
- ✓ Ijobiy mustahkamlash
- ✓ Sinfdagi tartib va qoidalar

***Agar sinfda turli darajadagi o‘quvchilar bo‘lsa, o‘qituvchi quyidagi usullar orqali sinfni samarali boshqarishi mumkin:***

**1. Differensial yondashuv:** Darsda materiallarni o‘zlashtirish darajasiga qarab mos ravishda guruhlarga bo‘lingan topshiriqlar bering. Masalan, o‘quvchilarni kuchli va yordamga muhtoj guruhlarga ajratib, ularning bilimiga mos topshiriqlar tayyorlang.

**2. O‘zaro o‘rgatish:** Kuchli o‘quvchilarni yordamga muhtoj o‘quvchilarga murabbiylik qilishini tavsiya qiling. Bu, nafaqat yordamga muhtoj o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlaydi, balki kuchli o‘quvchilarning bilimlarini ham mustahkamlaydi.

**3. Motivatsiyani oshirish:** Har bir o‘quvchining muvaffaqiyatini ta’kidlab, ular uchun motivatsiya yarating. Harakatni qadrlash va kichik yutuqlarni rao‘batlantirish sinfdagi ishtiyoqni oshiradi.

**4. O‘quv jarayonini qiziqarli qilish:** Interaktiv o‘yinlar, guruh bo‘lib yechiladigan vazifalar va amaliy masho‘ulotlar orqali o‘quv jarayonini qiziqarli va tushunarli qiling. Bu barcha o‘quvchilarni darsga jalb qilishda yordam beradi.

5. **Qo‘shimcha yordam:** O‘zlashtirishi past o‘quvchilarga darsdan so‘ng yoki tanaffus vaqtida qo‘shimcha yordam ko‘rsating, kerak bo‘lsa, ularni maxsus qo‘llanmalar yoki resurslar bilan ta’minlang.

***Bu usullar orqali sinfdagi barcha o‘quvchilarning ehtiyojlarini qondirib, o‘quv jarayonini samarali va balansli qilishingiz mumkin.***

O‘qituvchilar mavzu bo‘yicha yuqori bilimga ega bo‘lishdan tashqari, **sinf dinamikasini qanday samarali boshqarish**ni ham bilishlari kerak**.** Bu tashkiliy va intizomli ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi, bu ikkalasi ham sinfdagi o‘zaro munosabatlarning har xil turlarini yanada tizimli va o‘quv maqsadlariga moslashtirishga yordam beradi. Aks holda, sinfni boshqarish bo‘yicha juda minimal ko‘nikmalarga ega o‘qituvchilar tomonidan olib boriladigan darslar o‘quvchilarning past muvaffaqiyati kabi natijalarga olib keladi. Ba’zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar sinfdagi nosoo‘lom xatti-harakatlarni boshqarishda samarasiz bo‘lsa, barcha o‘quvchilar orasida kognitiv rivojlanishning o‘rtacha sur'ati katta zarar ko‘radi.

Agar darsda nosoo‘lom xatti-harakatlar mavjud bo‘lsa, sinfdagi tartibsizliklarni kamaytirish yoki hatto yo‘q qilish uchun qo‘llashingiz mumkin bo‘lgan sinfni boshqarish usullari mavjud.

Sinfni boshqarish jarayoni

Ushbu qadamlar majmuasi sinf muhitini o‘rganishni faol rao‘batlantiradigan muhitga aylantirishga qaratilgan. Sinfning jismoniy va insoniy jihatlarini o‘zgartirish orqali o‘qituvchilar ijobiy atmosferaga ega bo‘lgan va barchani o‘rganish maqsadlariga erishishga majbur qiladigan ekotizimni o‘rnatishi mumkin.

Rejangiz bor

Hech narsa ta’lim maqsadlariga erishish uchun keng qamrovli strategiyadan ustun kelmaydi. Har bir o‘quv masho‘uloti oldindan rejalashtirilgan rejaga muvofiq bo‘lishi kerak.

1) kutilayotgan ta’lim natijalari;

2) o‘qituvchi dars yoki mavzuni qanday tanishtirishi, ko‘rsatishi yoki tushuntirishi kerakligi;

3) o‘qituvchi sinfni o‘quv jarayonida faol ishtirok etishga undaydigan usullar;

4) o‘quvchilar qanday ishtirok etishi;

5) haqiqiy ta’lim natijalari va o‘quvchilarning xatti-harakatlari kutilgan darajada bo‘lmasa, muqobil strategiyalar mavjudligi.

Eng yaxshi ta’lim muhitini yarating

Inson omillarini hisobga olmaganda, har qanday sinfdagi umumiy ta’lim sharoitlarini osongina o‘zgartirish mumkin. Xonaning ko‘rinishi va hissiyoti o‘rganishga bevosita ta’sir qiladi. Yoritish o‘qitish maqsadiga qarab sozlanishi mumkin, masalan (yaxshi yoritilgan xonalar barcha sezgilarni aniq qabul qilishni osonlashtiradi, ayniqsa vizual bo‘lsa, qorono‘i xona tovush sezgilarini kuchaytiradi va talaffuz va boshqa oo‘zaki tushunchalarni ifodalash uchun yaxshi bo‘lishi mumkin; diqqat markazida o‘quvchilar e’tiborini ma’lum bir o‘quv stimuliga qaratadi, masalan, ma’ruza o‘tkazish, vizual tasvir yoki doska.). Iloji bo‘lsa, fon shovqinidan (masalan, elektr shovqini, konditsioner…) xalos

bo‘ling. O‘quvchilarning e’tiborini keraksiz chalo‘itadigan tartibsizlik va boshqa vizual ifloslanishlarga ham e’tibor qaratish lozim.

Sinf masho‘ulotlarini samarali o‘tkazish

O‘quvchilaringiz erishmoqchi bo‘lgan maqsadlarni va ularga erishish yo‘llarini aniqlang. O‘quvchilaringizga hech qachon tartibsiz ko‘rinmang. Sinfdagi turli tadbirlar uchun namuna ko‘rsatish va aniq tizimni yaratish uchun izchil bo‘ling.

Boshqaruvga ijobiy munosabatda bo‘ling

O‘zaro hurmatni rivojlantiring, o‘zaro munosabatlaringizni samimiyligini oshirish uchun muloqotda ba’zan hazil qo‘shing. Bu sizga barcha o‘quvchilaringizga murojaat qilish va hech kimni e’tiborsiz qoldirmaslik imkonini beradi. O‘quvchilaringiz muloqot qilishga undashlari uchun ijobiy va qulay xulq-atvorni saqlang. Muvaffaqiyatli o‘qituvchilar uchun zarur bo‘lgan uchta belgini mashq qiling: ***qat’iyatlilik, adolatlilik va do‘stona munosabat.***

Sinflarni boshqarish texnikasi

O‘quvchilarning xulq-atvorini boshqarish sizning o‘quv masho‘ulotlaringiz muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Siz o‘quvchilaringizda to‘o‘ri o‘rganish munosabatini o‘rnatish uchun quyidagi usullardan birini qo‘llashingiz mumkin.

Mavzuga e’tibor qaratish

Yangi mavzuni boshlashdan oldin sinfingizdagi har bir o‘quvchi o‘rganishga tayyor bo‘lishi kerak. Oquvchilar mavzuga aloqasi bo‘lmagan yoki darsga aloqador bo‘lmagan biror narsa qilayotgandek tuyulsa, ularning diqqatini to‘liq jalb qilmaguningizcha darsingizni davom ettirmang. O‘quvchilar e’tibor bermayapti deb o‘ylasangiz, mavzuni muhokama qilishni vaqtincha to‘xtating, chunki bu vaqt va kuch sarflashdir. Aks holda, o‘quvchilar e’tibor bermasa ham, o‘qitishni afzal ko‘rish, qo‘pollik qilish va siz bilan gaplashayotgan odamga e’tibor bermaslik yaxshi degan tushunchani o‘rnatadi.

Modellashtirish

O‘quv jarayoni soo‘lom va samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchilar sinfda o‘zlarining yetakchiligi va hurmatini o‘rnatishlari kerak. Shuningdek, ular o‘z o‘quvchilarining rivojlanishi va ega bo‘lishini xohlaydigan xususiyatlarni namoyish etishlari kerak. O‘qituvchilar namuna sifatida boshqalarga hurmat va o‘amxo‘rlik ko‘rsatishni bilishi va amalda qo‘llashi kerak, shunda o‘quvchilar o‘z harakatlariga taqlid qilishlari mumkin.

Masofaviy va samimiy yaqinlik

O‘quvchilar bir-biriga yaqinroq bo‘lganda darsda ko‘proq ishtirok etadilar. Buning sababi shundaki, odamlar o‘zlari xohlagan narsani qilishga moyil bo‘ladilar. Sinf xonasida o‘qituvchidan uzoqroqda joylashgan o‘quvchilar

o‘qituvchiga yaqin bo‘lganlarga nisbatan noto‘o‘ri xatti-harakatlar qilishlari mumkin. Ushbu muammoni hal qilish uchun iloji boricha ma’ruzalar yoki dars jarayonida xona bo‘ylab harakatlaning. Xuddi shunday, iloji boricha ko‘proq o‘quvchilarni jalb qiling va barchaga e’tibor berishingizni va ularning o‘quv yutuqlari haqida qayo‘urishingizni aniq tushuntiring, hatti-harakatlaringizda namoyon eting.

Muvaffaqiyat tizimi

O‘qituvchilar o‘quvchilarni nimaga undayotganini tushunishlari va ulardan kognitiv rivojlanish platformasi sifatida foydalanishlari kerak. Axborot tuyo‘usi va tasdiqlash kabi inson ehtiyojlari sinfda yaxshi xulq-atvorni rivojlantirish uchun ishlatilishi mumkin. Ba’zi o‘qituvchilar tomonidan **“Ijobiy intizom”** deb ham ataladigan bu usul o‘quvchilar e’tiborini yomon xulq-atvorga jalb qilish o‘rniga ijobiy xususiyatlarni namoyish etadi. Maqtov va rao‘bat ko‘pincha bu uslubga hamroh bo‘ladi va har bir insonning yaxshi xulq-atvorni afzal ko‘rishini kuchaytirish uchun ishlatiladi.

Doimiy va tasodifiy qobiliyatlarni baholash

O‘quvchilar kutilgan darajada o‘rganyaptimi yoki yo‘qligini tekshirish uchun o‘qituvchilar e’lon qilingan imtihonlar, qiziqishlari bo‘yicha ishlar, guruh faoliyati va tasodifiy ularning faoliyatini tekshirish kabi boshqa topshiriqlar shaklida muntazam testlarni topshirishlari kerak. To‘satdan e’lon qilingan viktorinalar nafaqat o‘quvchilarning yutuqlarini kuzatish, balki muvaffaqiyatsizlikka uchramaslik uchun o‘quvchilarni doimiy e’tibor berishga majbur qilish uchun muntazam ravishda o‘tkazilishi kerak.

Darsni boshqarish

O‘qituvchining o‘quvchilarning niyati va xatti-harakatlarini tushunishi tanganing bir tomoni, xolos. Ikkinchi tomon o‘qituvchilarning o‘ziga tegishli. Gap shundaki, o‘qituvchilar o‘z fanlarini yetarli darajada biladi deb hisoblansa-da, o‘z bilimlarini baham ko‘rish boshqa masala. Har bir o‘quv masho‘ulotini muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun tegishli tayyorgarlik(pedagogik mahorat) va rejalashtirish zarur.

O‘qituvchilik savobli kasb bo‘lib, kelajak avlodni ertangi kunning qiyinchiliklarini bartaraf eta olishga (BKM va kompetensiyalarini) shakllantirish va rivojlantirishi muhim ahamiyatga ega.

**Adabiyotlar:**

1. Кривцова С.В. (2004). Учитель и проблемы дисциплины. «Генезис», http://nkozlov.ru/library/psychology/psychology2/.

2. Старикова Л.М. (2019) Выступление на педсовете "Эффективный педагог: какой он?" https://multiurok.ru/files/vystuplenie-na-

pedsovete-effektivnyi-pedagog-kakoi.html Управление классом – Краткое руководство (2018).

3. https://coderlessons.com/tutorials/upravlenie/klassnoe-rukovodstvo/upravlenie-klassom-kratkoerukovodstvo.

4. 4 принципа управления классом (2020) https://nsportal.ru/blog/obshcheobrazovatelnayatematika/all/2020/11/10/4-printsipa-upravleniya-klassom.

5. Элин, Ж. и Бекон, В. (1973). Заглядывая на урок.

6. Allyn & Bacon. Teachings in Education (2019). Classroom Management. Youtube. Available from https://www.youtube.com/watch?v=z_XR6dy69f4 Accessed [14 May 2022].

**Mavzu: Dars kuzatish va uni tahlil qilish**

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

**Mashg‘ulotning texnologik xaritasi**

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **O‘quv bloki** | **II. UMUMKASBIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH** | | | | |
| **O‘quv modul** | **2.3. “O‘quv jarayonini samarali tashkil etish”** | | | | |
| **Mavzu** | **2.3.1-mavzu.** Dars kuzatish va tahlil qilish | | | | |
| **Davomiyligi** | 80 daqiqa | | | | |
| **Mashg‘ulotning maqsadi** | Darslarni kuzatish va tahlil qilishda nimalarga e’tibor berish kerakligi, darslarni kuzatish va tahlil qilishning maqsad va vazifalari, dars tahlil qilishning bir necha turlari haqida amaliy va nazariy ma’lumotlar berish | | | | |
| **Mashg‘ulot bosqichlari** | **Faoliyat tavsifi** | **Vaqt, daqiqa** | **Metodlar** | **Zarur jihozlar** | **Natija** |
| **1. Tashkiliy qism** | - Salomlashish<br>- Mavzu va reja bilan tanishtirish<br>- Mashg‘ulotning dolzarbligini asoslab berish | 5 | Suhbat, tushuntirish | 1-2-slaydlar | O‘qituvchilar mashg‘ulotga tayyor bo‘lishadi. |
| **2. Motivatsiya** | “Qarg‘a bilan burgut” haqidagi | 15 | Mulohaza uchun | 3-slayd | O‘qituvchilar mavzuga qiziqadi va |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | motivatsion hikoya | | vaziyat yaratish | | ishtirok etishga rag‘batlana-di. |
| **3. Nazariy qism** | - Darslarni kuzatish va tahlil qilishdan asosiy maqsad;<br>- Dars kuzatish va tahlil qilish ketma-ketligi;<br>- Dars kuzatishdan chiqarilgan yakuniy xulosalar, taklif va tavsiyalar; | 20 | Taqdimot, ko‘rgazmali tushuntirish | 4-8-slaydlar | Ushbu mashg‘ulot orqali darslarni kuzatish va tahlil qilishda nimalarga e’tibor berish kerakligi, darslarni kuzatish va tahlil qilishning maqsad va vazifalari, dars tahlil qilishning bir necha turlari haqida nazariy va amaliy bilimlarga ega bo’ladilar |
| **4. Amaliy mashg‘ulot** | - Guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqlar bajarish; | 15 | Guruhlarda ishlash | 9-slayd | O‘qituvchi-lar guruhlarda ishlab darslarni tahlil qilishadi, fikr |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | almashisha-di |
| **5. Tahlil va muhokama** | - Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar;<br>- Qiyinchiliklarni muhokama qilish;<br>- Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish; | 10 | Suhbat, muhokama, tahlil | | O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi. |
| **6. Refleksiya** | - "Olimpiada" usuli orqali xulosa qilish | 5 | Refleksi-ya usullari | 10-slayd | O‘qituvchi-lar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi. |
| **7. Yakunlash va baholash** | - Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish<br>- Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish | 5 | Suhbat | 11-slayd | O‘qituvchi-lar mashg‘ulot-dan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo‘naltirila-di. |

**Ilovalar**
**1-ilova**

- Tinglovchilarga quyidagi ko‘rinishdagi savollar bilan murojaat qilinadi (namuna):
- Dars nima maqsadda tahlil qilinadi?
- Dars kuzatuvida ishtirok etganlar o‘z fikrlarini bildirishda nimalarga e’tibor qaratishlari lozim

**3-ilova**

**Қайта боғланиш нима?**

Inson hayoti davomida doim o’zgalar bilan muloqotga kirishib, atrofdagilarning o’ziga nisbatan munosabatiga tayanib yashaydi.

O’z navbatida, o’zi ham atrofdagilar haqida fikr yuritadi, ularning xatti-harakatlarini baholaydi. Ko’pchilik o’zgalarning fikrini o’ta muhim hisoblaydi, bu fikrlarni inobatga olish zarur deb biladi.

Munosabat ifodalashning o’z tartib-qoidalari mavjud bo’lib, bu jarayon qayta bog’lanish deb yuritiladi. ***Qayta bog’lanish*** – bizning xulqimiz va harakatlarimizning boshqa kishilarga o’zimiz sezmagan holda ta’sir ko’rsatishi haqida ma’lumotdir. Bir kishi yoki butun guruh o’zining boshqa kishilarning harakatlariga nisbatan reaktsiyasini ularga kamchiliklarini tuzatishda yordam berish maqsadida ifoda etishi qayta bog’lanishga olib keladi.

Qayta bog’lanish hamda harakatni talqin qilishni o’zaro farqlash lozim. Xususiy talqinda, masalan, quyidagicha fikr bildiriladi: «Sen, menimcha, …ni qilyapsan»; qayta bog’lanishda esa: «Sen …ni qilganingda, men …ni his qilyapman». Talqin harakatni talqin qiluvchining qabul qilish xususiyatlariga bog’liq bo’lishi mumkin. Qayta bog’lanish esa bir kishining boshqa bir kishi harakatlariga nisbatan reaktsiyasini ifoda etadi.

**Қайта боғланишни таъминлаш қоидалари**

**1. Qayta bog’lanish doimiy tadbirga aylanishi lozim.** Jamoaning umumiy faoliyatida qayta bog’lanishni tashkil etish – boshqaruvning tarkibiy qismidir. Qayta bog’lanishdan doimiy foydalanib, uni jamoaning ishlash texnologiyasi tarkibiga kiriting.

**2. Qayta bog’lanishni qo’llash barcha qatnashchilar bilan kelishilgan bo’lishi kerak.** Majburiy qayta bog’lanish qatnashchilarning himoya reaktsiyasini kuchaytirishi mumkin.

**3. Qayta bog’lanish baholovchi emas, ko’proq tasviriy yo’nalishga ega bo’lishi lozim.** Baho beruvchi qayta bog’lanish himoyaviy xulqni kuchaytiradi.

**4. Qayta bog'lanishga umumiylikdan ko'ra ko'proq xususiylik (maxsus ifoda) xos bo'lishi lozim.** «Siz yetakchilik qilishga moyilsiz» qabilidagi jumlalar foyda keltirmaydi. Bu fikrni aniq (konkret) misol orqali ifodalash maqsadga muvofiq. Masalan: «Siz oxirgi 10 daqiqa davomida hech kimga gap bermay, boshqalarning fikrini bo'lib o'tirganingizdan …ni sezgan edim».

**5. Qayta bog'lanish biror tadbir yoki vaziyat tugashi bilanoq o'tkazilishi yaxshi samara beradi.**

**6. Kamchiliklar (sizga yoqmagan holatlar) haqida gapirishdan oldin ijobiy tomonlarni ko'rsatib o'ting.**

**7. Sizga yoqmagan holatlar to'g'risida gapirishdan ko'ra buni o'zgartirish yo'llari xususida fikr bildirish maqsadga muvofiqdir.** Masalan: «Nazarimda, agar Siz boshqalarga o'z fikr-mulohazalarini oxirigacha bildirishlari uchun imkon berganingizda edi, uchrashuvimiz samaraliroq o'tar edi».

**8. Qayta bog'lanishda faqat uni boshlagan kishining emas, balki bu tadbir yo'nalgan kishilarning ehtiyojlari hamda ishning umumiy manfaatlari hisobga olinishi lozim.**

**9. Qayta bog'lanish uni qabul qiluvchining xulqi yoki biror harakatini o'zgartirishi mumkin bo'lgan sifatiga yo'naltirilishi kerak.** Aks holda, u foydasizdir.

**10. «Men-xabar» tamoyilidan foydalaning.** Bo'lib o'tgan voqea-hodisa shaxsan sizga qanday ta'sir ko'rsatganini ifoda eting. Masalan, "Sen har safar darsga kech qolganingda tinchlikmikan deb xavotir olaman", "Sinfda shovqin-suron ko'tarilib ketsa, sizga yordam berishga kirgim keladi" va h.k. Qayta bog'lanishni qo'llayotganingizda «salbiy» noverbal reaktsiyalar (ta'na qiluvchi imo-ishora, bosh silkitish va h.k.)dan saqlaning.

## Фидбек нима?

Fidbek – inglizcha "feedback" so'zidan olingan bo'lib, "qayta bog'lanish" degan ma'noni bildiradi.

**Fidbek quyidagi maqsadlarda qo'llanadi:**

1) boshqa kishiga o'zim haqimda nima o'ylashim va his qilishimni bildirish;

2) boshqa kishiga u haqida nima o'ylashim va his qilishimni bildirish;

Fidbek - ikki kishi orasidagi xulq va munosabatni tartibga solish instrumentidir.

**Fidbek berish va olish qiyinchiliklari:**

- milliy urf-odatlar;
- munosabat buzilishidan qo'rqish;
- noto'g'ri tushunishlaridan qo'rqish;

- harakat qilishdagi ishonchsizlik.

Fidbek dars tahlili, biror holatga munosabat bildirishda qo'llaniladi. Fidbek berish va Fidbek olish qoidalari mavjud.

**Fidbek berishda:**

✓ Baholamang, balki izohlang (ijobiydan boshlang)

✓ Umumiy gaplardan qoching, aniq narsaga Fidbek bering

✓ Biror o'zgartirish kiritish taklifingiz bo'lsagina fikr bildiring

✓ Fidbek berishdan oldin rozilik oling

✓ Fidbek bilan voqea o'rtasidagi vaqt oz bo'lishi kerak

✓ Hayajon yo'qligiga ishonch hosil qiling

✓ "Menimcha", "Ehtimol", "Mening nazarimda", "Iloji bo'lsa" kabi iboralardan foydalaning

✓ Fidbek berilayotgan kishiga shaxsan murojaat qiling: "Sizning ... menga yoqdi", "Sizning o'rningizda men bo'lganimda, ..." kabi.

***Агар сен дўстингга у ҳақида ўйлаганларингни тўппа-тўғри, ошкора, ҳатто сира тап тортмай айта олмас экансан, ёинки ундан ўзинг ҳақингда шундай ҳақ гапларни эшитишга қурбинг етмас экан, демак, сизлар бир-бирларингга чинакам ишонмайсизлар, бир-бирларингни тушунмайсизлар ва ҳурмат килмайсизлар.***

**Fidbek olishda:**

✓ O'zingizni oqlamang

✓ Fidbek olishga tayyor bo'lmasangiz, uni rad qiling

✓ Fidbek yakunida minnatdorchilik bildiring

**Fidbekni muntazam qo'llash munosabatlarni yaxshilash, hamkorlik va hamjihatlik muhitini yaratish, shu orqali ta'lim samaradorligini oshirish imkonini beradi.**

## Қайта боғланишдан самарали фойдаланиш йўллари

**1. "Men-xabar"dan foydalaning**.

| "Sen-xabar" namunasi | "Men-xabar" namunasi |
|---|---|
| "Sen yana kechikding, sen doim hamma joyga kechikib borasan, senga ishonib bo'lmaydi. Sen bir narsani gapirib, butunlay boshqa ishni qilasan. Sen o'ta vijdonsiz kishisan va men sen bilan hech qachon hech qanday ishni birga qilmayman". | "Men seni, kelishganimizdek, metroning "Oybek" bekatida roppa-rosa 2 soat kutdim. Kelavermaganingdan keyin sendan xavotir oldim. Nimadir bo'ldi deb o'yladim. Keyin "balki uchrashuv vaqtini unutgandir" degan xayolga bordim. Bekor ketgan vaqtimga achindim. Endi keyingi safar 30 |

| | |
|---|---|
| | daqiqadan ortiq kutmaslikni kelishib olamiz. Agar kechiksak, bir-birimizga qo'ng'iroq qilib, ogohlantirib qo'ysak, yaxshi bo'lardi. |

**2. Parafrazdan foydalaning**. Parafraz - suhbatdoshning so'zlarini qayta ifoda etish orqali aniqlashtirish.

Parafrazning ahamiyati:

| | **Siz uchun** | **Suhbatdoshingiz uchun** |
|---|---|---|
| **Imkon beradi** | • eshitganlaringizga nisbatan salbiy hissiyotlarni neytrallash;<br>• javobni kechiktirish – vaqtdan yutish;<br>• xomxayolga berilmaslik;<br>• eshitganlarni mushohada qilish. | • aytilganlarni aniqlashtirish va misol keltirish;<br>• uni eshitayotganlari haqida taassurot olish;<br>• uni tushunganlariga ishonch hosil qilish. |
| **Yordam beradi** | • suhbatni davom ettirish;<br>• suhbatdoshning fikrini mustahkamlash;<br>• aytilganlarni aniqlashtirish;<br>• fikrdagi asosiy mazmunni ajratib olish;<br>• o'zingiz uchun muhimlik darajasiga ko'ra tasniflash;<br>• suhbatdoshingiz istagini aniqlash;<br>• uzun jumlalarni umumlashtirish va xulosalash;<br>• suhbatdoshning fikrini aniqlash. | • nimanidir noto'g'ri ifodalaganini tan olish;<br>• aynan siz tushungan yoki tushunmayotganingizni aniqlash;<br>• o'z fikrini yaxshiroq tushunish va ifodalash;<br>• siz uchun nima muhimligini aniqlash. |
| **Majbur qiladi** | • hushyor bo'lishga;<br>• sub'ektiv baholardan qochishga; | • bitta mavzuda suhbatlashishga; |

| | | |
|---|---|---|
| | • o’zining hissiyotini nazorat qilishga;<br>• xabar tafsilotini eslab qolishga. | • tinglovchi uchun tushunarli gapirishga;<br>• suhbat mazmunini hissiyotdan ajratishga. |

**3. Teskari bog’lanishdan o’rinli foydalaning**.

| Quyidagilarni tanqid qiling | Quyidagilarni tanqid qilmang |
|---|---|
| • xulq<br>• real kuzatuvlar<br>• g’oya bilan o’rtoqlashayotganda<br>• hozir sodir bo’layotganlarni<br>• chegaralangan (aniq) masalalarni | • shaxslarni<br>• harakatlarning ahamiyati haqidagi taxminlarni<br>• maslahat bera turib<br>• ancha ilgari bo’lib o’tganlarni<br>• barcha noto’g’ri bajarilgan ishlarni sanab, kishini charchatmang |

**Дарс (тренинг)ни баҳолаш мақсадида қўлланадиган қайта боғланиш усуллари**

**Дебрифинг**

Ko’pincha dars oxirida o’qituvchi xulosa chiqarish, uyga vazifa berish bilan kifoyalanadi. Ayrim hollarda “Dars sizga yoqdimi?” deb so’rashi mumkin. Lekin debrifing – darsning muhim qismi. Aynan debrifing jarayonida bajarilgan ishlarning mohiyati aniqlashtiriladi, maqsadga erishganlik darajasi tahlil qilinadi, xulosa qilinadi, o’quvchilar bilib olganlari va yana o’rganishlari lozim bo’lgan material orasidagi munosabat o’rnatiladi, keyingi harakatlar rejasi belgilanadi.

Mutaxassislarning fikricha, mashq qancha vaqt egallasa, debrifingga ham shuncha vaqt sarflanishi kerak.

**Debrifing bosqichlari**:

1-bosqich: faktlarni aniqlash (Nima sodir bo’ldi?)

2-bosqich: sabablar tahlili (Nega shunday bo’ldi?)

3-bosqich: harakatlarni rejalashtirish (Endi nima qilamiz?)

Birinchi bosqichda sodir bo’lgan voqealar qayd etiladi, hosil bo’lgan his-tuyg’ular oshkor etiladi, nima sodir bo’lishi mumkinligi to’g’risida emas, haqiqatan amalga oshgan voqea haqida fikr yuritiladi.

Ikkinchi bosqichda voqeani keltirib chiqargan sabablar tahlil qilinadi, muqobil nazariyalar muhokama etiladi, misollar keltiriladi.

Uchinchi bosqichda keyingi qadamlar aniqlashtiriladi.

### "Гамбургер"

Qayta bog'lanishning samarali usullaridan biri. Dars yakunida o'qituvchi uchun foydali ma'lumot olishga yordam beradi.

Eslatib o'tamiz: gamburger (inglizcha so'z, o'zbek tilida muqobili yo'q, hozir turkcha kabob yoki Doner-kabob ham ommalashgan) - ichiga cho'g'da pishgan/qovurilgan go'sht qo'yilgan non. Mazali bo'lishi uchun salat bargi, sabzi salati, mayonez, ketchup solinadi.

«Gamburger» usulini qo'llaganda o'qituvchi/trener/boshlovchi so'zini quyidagicha boshlashi mumkin:

- Hurmatli hamkasblar/o'quvchilar/ishtirokchilar, ko'pchiligimiz gamburger nima ekanligini bilamiz, uni sevib iste'mol qilamiz. Ayting-chi, uning kaloriya jihatidan qimmatli qismini nima tashkil etadi? (go'sht). Siz uchun dars (mashg'ulot) davomida nima qimmatli bo'ldi?

Barcha ishtirokchilar o'z fikrlarini bildiradilar. Keyin o'qituvchi davom etadi:

- Gamburgerning mazasini nima buzdi?
- Gamburgeringizda nimalar yetishmayapti?

Fikrlar umumlashtiriladi, o'qituvchi ham hamma qatori o'z fikrini bildiradi.

### "Қиёфалар"

Har bir ishtirokchi uchta (xursand, neytral, xafa) qiyofa chizilgan kartochka oladi va unda o'zining, guruhning ishtirokini hamda dars (mashg'ulot) mazmunini baholaydi. Doskaga konvert ilib qo'yiladi. Ishtirokchilar baholash varaqalarini shu konvert ichiga soladilar.

### "Олтита шляпа"

*Edvard de Bononing oltita shlyapa metodi* universal, masalan, uni juftliklarda va kichik guruhlarda ishlash jarayonini tahlil qilishda, pedagogik kengashlarda vaqtni tejash uchun qo'llash mumkin. Amalda undan har qanday ijodiy jarayonni tartibga solish, mantiqni emotsiyadan ajratib, yangi betakror g'oyalar yaratish uchun foydalanish mumkin.

Bunda trener/o'qituvchi 6 xil rangdagi kichik qog'ozchalardan ishtirokchilar soniga mos ravishda shlyapachalar yasaydi. Bu shlyapachalar mashg'ulot boshida kichik guruhlarga bo'lish uchun qo'llanishi mumkin. Mashg'ulot yakunida har bir guruhga o'z rangidagi boshga kiyish mumkin bo'lgan qog'oz shlyapalar taqdim etiladi va muhokama olib boriladi.

**Oq shlyapa:** raqam va faktlar. Axborot. Savollar. Sodir bo'lgan voqea-hodisalar, guruh ishini xolis qayd (bayon) etish. Qanday axborotga egamiz? Yana qayday axborot zarur?

**Qizil shlyapa:** emotsiyalar kuchi. Intuitsiya, his-tuyg'ular. Hislarni asoslash talab etilmaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar (o'qituvchi)da qanday hislar tug'ildi?

**Qora shlyapa:** ehtiyotkorlik. Jarayondagi salbiy holatlar. Kamchiliklar nimalardan iborat? Qanday xatolarga yo'l qo'yildi?

**Sariq shlyapa:** afzalliklar. Jarayonda qanday yutuqlarga erishildi. Ijobiy xulosalar chiqarish. Nima uchun bunday qilish ma'qul? Afzalliklari qanday? Nima uchun bu amalga oshadi?

**Zangori shlyapa:** ijodkorlik. Turli g'oyalar. Yangi g'oyalar. Takliflar. Yechimning turli variantlari? Qanday muqobillari mavjud? Jarayonni takomillashtirish yo'llari.

**Ko'k shlyapa:** tahlil, mulohaza. Mulohaza haqida mulohaza. Qaror qabul qilish. Nimaga erishdik? Keyin nima qilish kerak?

**"Кубчалар"**

Bu - qayta bog'lanishning samarali usullaridan biri. Kubchani 15-20 santimetrli qog'oz/kartonlardan yasash mumkin. Kubchaning tomonlariga quyidagi ko'rsatmalar qayd etiladi: 1) buni tasvirlang; 2) buni taqqoslang; 3) buning o'zaro bog'lanishini ko'rsating; 4) buni tahlil qiling; 5) yaxshi va yomon tomonlarini dalillar yordamida ko'rsating; 6) buni qo'llang.



**Dars tahlili jarayonida Fidbekdan foydalanish**

*"Dars tahlili – o'quv mashg'ulotini yaxlit va uning ayrim jihatlarini tahlil qilish va baholash. Pedagogik o'quv yurtlarida talabalarni pedagogik mahoratga o'rgatish vositasi sifatida foydalaniladi. Dars tahlilida quyidagi parametrlar baholanadi: dars maqsadi va unga erishish, o'quv guruhi tavsifi, o'qituvchining sinf (guruh) bilan muloqoti, o'qituvchining nutqi, o'quvchilarning nutqi, nazorat shakllari va ularning samaradorligi. Dars tahlili talabalarning pedagogik amaliyoti jarayonida faol qo'llaniladi"*[1].

| An'anaviy tahlil | Fidbek vositasida tahlil |
|---|---|
| Darsni tahlil qilishdan avval dars o'tgan o'qituvchining roziligi | Darsni tahlil qilishdan avval dars o'tgan o'qituvchining roziligi so'raladi, uning ruhiy- |

[1] Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Словарь методических терминов (теория и практика преподавания языков). – СПб.: Златоуст, 1999. – 19-20-б.

| An’anaviy tahlil | Fidbek vositasida tahlil |
|---|---|
| so’ralmaydi, uning ruhiy-emotsional holati hisobga olinmaydi. | emotsional holati hisobga olinadi. Agar o’qituvchi fikr olishga tayyor bo’lmasa, tahlil natijalarini bildirish (Fidbek berish) ma’lum muddatga suriladi. |
| 1. Jarayon boshqaruvchisiga so’z beriladi. U dars o’tgan o’qituvchini jamoaga tanishtiradi (darsda va uning tahlilida boshqa ta’lim muassasalari vakillari qatnashgan holda). | 1. Jarayon boshqaruvchisiga so’z beriladi. U dars o’tgan o’qituvchini jamoaga tanishtiradi (darsda va uning tahlilida boshqa ta’lim muassasalari vakillari qatnashgan holda). |
| 2. Dars o’tgan o’qituvchi dars mavzusi, maqsadini e’lon qiladi, unga erishgan yoki erishmaganligini, sabablarini aytadi (ya’ni o’qituvchi o’zini oqlashga harakat qiladi). | 2. Dars o’tgan o’qituvchi dars mavzusi, maqsadini e’lon qiladi, unga erishgan yoki erishmaganligini aytadi (sabab ko’rsatilmaydi, o’qituvchi o’zini oqlamaydi). |
| - | 3. Dars o’tgan o’qituvchi mashg’ulotining ijobiy, o’ziga yoqqan jihatlarini aytadi. Bunda u “Menga darsimda ... yoqdi” jumlasidan foydalanadi. |
| 3. Har bir kuzatuvchi dars o’tgan o’qituvchiga bevosita emas, balki 3-shaxsga murojaat qiladi: “O’qituvchi darsni to’g’ri tashkil qilgan, guruhlarga bo’lishning samarali usulidan foydalangan ...”.<br>Darsning ijobiy jihatlarini sanash bilan birga, kamchiligi ham aytib o’tiladi: “O’qituvchi o’quvchilarni baholashda xatoga yo’l qo’ydi, darslikdan kam foydalandi” va h.k.<br>Keyingi kuzatuvchi ham xuddi shu tartibda (avval ijobiy, keyin salbiy jihatlar) fikr bildiradi. Salbiy deb qaralayotgan jihatlar aslida bunday bo’lmasligi mumkin | 4. Kuzatuvchilar darsning ijobiy jihatlarini, maqsadga erishishga yordam bergan vositalarni, o’qituvchi va o’quvchilarning harakatlaridagi muvaffaqiyatlarni sanaydilar. Bunda ular dars o’tgan o’qituvchiga shaxsan murojaat qilib, “Malika (yoki Botir), menga sizning (o’quvchilaringizning) ... yoqdi (ma’qul bo’ldi, maqsadga muvofiq hisoblayman)” jumlasidan foydalanadilar.<br>Fikr bildirishni istagan kuzatuvchilarning barchasi so’z olishi mumkin, takrorlarga yo’l qo’yilmaydi. |

| An’anaviy tahlil | Fidbek vositasida tahlil |
|---|---|
| degan fikr o’rinsiz hisoblanadi. | |
| - | 5. Jarayon boshqaruvchisi so’z olib, darsning, uning fikricha, afzalliklarini aytadi.<br>Keyin yana dars o’tgan o’qituvchiga murojaat qiladi: “Malika (Botir), agar yana bugungi mavzuga yaqin mavzuda yoki shu turdagi dars o’tishingiz kerak bo’lsa, nimalarni o’zgartirgan bo’lardingiz?” |
| - | 6. Dars o’tgan o’qituvchi: “Agar shu darsni qaytadan o’tganimda, men ... qilgan bo’lardim”, “Guruh ishiga kam vaqt ajratibman. Keyingi safar buni inobatga olaman” va sh.k. |
| - | 7. Har bir kuzatuvchi dars o’tgan o’qituvchiga murojaat qilgan holda, ularning fikricha kamchilik deb topilgan holatni tuzatish taklifini beradilar: “Malika (Botir), agar bugungi darsni men o’tganimda, kichik guruhlarga bo’lishda harakatli mashqdan emas, kartochkalardan foydalangan bo’lardim”, “Menimcha, guruh ishini baholashda guruhga bir xil baho qo’yiladi, keyingi safar shunga e’tibor bersangiz, maqsadga muvofiq bo’lardi” kabi. |
| 4. Jarayon boshqaruvchisi bildirilgan fikrlarni xulosalab, o’qituvchini baholaydi, uni rag’batlantirish yoki jazolashni taklif qiladi. | 8. Jarayon boshqaruvchisining darsni takomillashtirish bo’yicha (boshqalar aytmagan) fikr-mulohazalari, takliflari mavjud bo’lsa, ularni bildiradi.<br>Dars tahlilining maqsadiga ko’ra (baholovchi, tajriba almashish va h.k.), o’qituvchiga minnatdorchilik bildiradi va kelgusi ishlarida muvaffaqiyat tilaydi. |

Pedagogik amaliyotda dars tahlilining har xil turlaridan foydalanish mumkin. Biz dars tahlilining asosiy maqsadi tahlil qiluvchining va dars o’tuvchining pedagogik mahoratini oshirish, o’qituvchilarning reflektiv xulqini

shakllantirishga qaratilganligini nazarda tutib, tahlil natijalarini ifoda etishda Fidbekdan foydalanishni tavsiya etamiz.

***Dars tahlili jarayonida Fidbekdan foydalanishning afzalliklari:***

- ✓ an’anaviy dars tahlili jarayonida aksar hollarda ayrim sabablarga ko’ra (milliy urf-odatlar, “o’zbekchilik”, munosabat buzilishidan qo’rqish, noto’g’ri tushunishlaridan qo’rqish va darsning tuzatilishi lozim bo’lgan ko’p jihatlari aytilmaydi, ko’z yumiladi; yoki aksincha, “bunisi noto’g’ri, unisi xato” deyiladi-ku, holatni tuzatish yo’li ko’rsatilmaydi;
- ✓ Fidbek ta’lim jarayonini takomillashtirishga, o’qituvchi mahoratini oshirish, layoqatini kuchaytirishga qaratiladi;
- ✓ o’qituvchilar o’rtasida erkin fikr almashish, munosabat bildirish, bir-biridan o’rganish va o’rgatishga imkon beradigan do’stona, ijodiy muhitni yaratadi;
- ✓ mazkur instrumentdan foydalanish ijtimoiy faol fuqaroni, malakali pedagog kadrni tayyorlashda kutilgan samarani beradi.

**“OLIMPIADA” refleksiyasi**
**2-ilova**



**Reja**

1. Darslarni kuzatish va tahlil qilishdan asosiy maqsad
2. Dars kuzatish va tahlil qilish ketma-ketligi.
3. Dars kuzatishdan chiqarilgan yakuniy xulosalar, taklif va tavsiyalar.

O‘qituvchi faoliyatining samaradorligi nafaqat dars jarayonida qo‘llaniladigan metodlarga, balki o‘quv jarayonini kuzatish, tahlil qilish va natijalar asosida xulosalar chiqarish ko‘nikmalariga ham bog‘liq. Kasbiy standart – bu pedagogning malaka darajasi, bilimlari va ko‘nikmalari bo‘yicha belgilangan talablar majmui bo‘lib, darsni kuzatishda asosiy mezon vazifasini bajaradi. Ushbu yondashuv o‘qituvchining o‘z kasbiga mas’uliyat bilan yondashishini ta’minlaydi va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan faoliyatini yanada takomillashtiradi. Dars tahlili pedagogik mahoratni oshirishning eng asosiy yo‘li va ta’lim samaradorligini oshirishning omili hisoblanadi. Ta’lim muassasalaridagi o‘quv mashg‘ulotlari mazmunini tahlil qilish bevosita ta’lim tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajalarini oshirishdan iboratdir. O‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashning zamonaviy nazariyasini amaliyotga joriy etish asosida o‘quv jarayonini takomillashtirishning eng muhim omili darsni pedagogik kuzatish va tahlil qilish hisoblanadi bundan tashqari darslarni tahlil qilish orqali o’qituvchilar o’z pedagogik mahoratni oshirish va yo’l qo’yilgan xató va kamchiliklarni to’ldirish imkoniyatiga ega bo’ladilar.

## 1. Darslarni kuzatish va tahlil qilishdan asosiy maqsad

Ta’limning yangi mazmuni va sifatini shakllantiruvchi asosiy shaxs o‘qituvchidir. Zamonaviy sharoitda o‘qituvchining roli o‘zgarmoqda – bilimning yagona manbai, ma’lumot tashuvchisidan ta’lim jarayonining tashkilotchisi va rahbarigacha – bu tegishli darajadagi professional malakani talab qiladi.

Yangi professional o‘qituvchi standarti o‘qituvchining asosiy kasbiy kompetensiyalarini belgilaydi.

Qobiliyatni faqat harakatda ko‘rish va baholash mumkin.

O‘qituvchi faoliyatining asosiy va eng muhim shakli darsdir, shuning uchun kompetensiya darajasini baholashda dars davomida o‘qituvchining o‘quvchilar bilan ishlashini kuzatish kerak. O‘qituvchining kasbiy standarti asosida o‘qituvchi faoliyatini nazorat qilish vositasi ishlab chiqilgan. Ta’lim vositasi o‘qituvchining harakatlarida ma’lum bir vakolat doirasida standartning amalga oshirilishini ko‘rsatadigan ko‘rsatkichlarni ko‘rish (yoki ko‘rmaslik) imkonini beradi.

Ushbu materiallarda keltirilgan vositadan foydalangan holda darsda

o‘qituvchining ishini kuzatishdan maqsad uning kasbiy kompetensiyalari darajasini aniqlash va attestatsiya jarayonida ushbu baholashdan foydalanishdir.

Dars davomida o‘qituvchining harakatlarini kuzatish uning malaka darajasini va demak, o‘quv jarayonining sifatini ko‘rsatadi.

Kuzatish – bu ma’lum bir reja bo‘yicha, aniq maqsad bilan olib boriladigan, kuzatilayotgan narsa haqida obyektiv ma’lumot beradigan tadqiqot usuli. Kuzatish odatda oldindan aniqlangan ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratish, ularning ko‘rinishi yoki yo‘qligini qayd etish orqali amalga oshiriladi. Ushbu usulning ahamiyati uning obyektivligi, shaffofligi, samaradorligi va ishonchliligidadir.

O‘qituvchining kasbiy standarti 7 ta kasbiy kompetensiyani o‘z ichiga oladi. Dars davomida ularning hammasini kuzatish mumkin emas. Masalan, rejalashtirish muayyan dars o‘tilgunga qadar sodir bo‘ladi. Ota-onalar yoki hamkasblar bilan hamkorlik qilish bilan bog‘liq kompetensiyalar, shuningdek, kasbiy rivojlanish bilan bog‘liq masalalar darslar davomida o‘rganilmaydi, bu kompetensiyalarning darajasini boshqa vaqtlarda va boshqa usullardan foydalangan holda tekshirish kerak.

Darslarni kuzatish va tahlil qilishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

- dars kuzatuvchilar tomonidan ta’lim muassasasida o‘qituvchi ishiga baho berish;
- dars jarayonining dars o‘tish bosqichlariga mosligini kuzatish;
- kuzatuvchilar tomonidan dars o‘tayotgan o‘qituvchiga amaliy-metodik yordamlar berilishiga erishish;
- ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ommalashtirish;
- o‘qituvchilar o‘zaro bir-birlarining pedagogik usul va uslublarini o‘rganishiga da’vat qilish orqali ta’lim samaradorligini oshirish.

O‘qituvchining darsga tayyorgarlik ko‘rishida quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

1) darsga tayyogarlik ko‘rish jarayonida o‘qituvchidan mavzuning ishchi dastur va taqvimiy rejaga mosligiga e’tibor berish, dars ishlanmasi, turli didaktik tarqatma materiallar va ko‘rgazmali qurollarni tayryolash talab etiladi;

2) darsga davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlariga mos ravishda aniq maqsad qo‘yish;

3) dars o‘tiladigan xonani tayyorlash, doskaning tozaligi, bo‘r, latta yoki markerlarni tayyorlash, vidioproektor, elektron doskaning tayyorligiga e’tibor qaratish;

4) mavzuning ilmiyligi va izchilligi, oddiydan murakkabga tomoni yo‘naltirish; ko‘rgazmalilik va berilayotgan bilim, yangi axborotlarning

hayotiyligiga, jonli va ravon tilda ochib berilishiga e’tibor qaratish;

5) o‘quv dasturi asosida mavzuga ajratilgan soatlarning mosligi, o‘quvchining yoshi va shaxsiy-psixologik xususiyatini hisobga olib, ularni o‘ylashga, izlanishga undashi, ijodkorlik, uslubiy mahorat, ilg‘or pedagogik va novatorlik tajribalaridan foydalanish;

**Dars kuzatish va tahlil qilish ketma-ketligi**

1) Dars kuzatuvchining maqsadi;

2) Dars jarayonini kuzatish va tahlil qilish;

3) Dars jarayonida o‘qituvchining dars o‘tish bosqichlariga amal qilish;

4) Dars samaradorligi va o‘qituvchining ish faoliyatini yanada yaxshilashga oid dars kuzatuvchining tahlillari hamda taklif va mulohazalari.

**Dars tahlili turlari**

1.Didaktik (Yoki ta’limiy) tahlil.

Tahlilning bu turida mavzuning ilmiyligi va izchilligi, oddiydan murakkabga tomon yo‘nalishi, ko‘rgazmaliligi va berilayotgan bilim, yangi axborotlarning hayotiyligi, ularning jonli va ravon tilda ochib berilishi nazarda tutiladi

2.Uslubiy tahlil.

Bunda o‘qituvchi faoliyatining ikki tomoni: birinchidan, o‘rganilayotgan mavzuga dasturda m o‘ljallangan soatda, uni qanday usullar yordamida, talabalarning yoshi va shaxsiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yetkazib bera olishi, talabalarni o‘ylashga, izlanishga majbur etishi va unga sharoit yaratishi;

• ikkinchidan, o‘qituvchi sifatidagi tajribalari qaysi darajada ekanligini namoyish eta olishi nazarda tutiladi. O‘qituvchining ikkinchi tomoni tahlil etilayotganda, uning ijodkorligi, uslubiy mahorati ko‘zga tashlanishi lozim. O‘qituvchining ilg‘or pedagogik va novatorlik tajribalari mana shu yerdan boshlanadi

3. Metodologik tahlil

Ushbu tahlil mobaynida ta’lim yo‘nalishidagi hukumat qarorlari, talablar, davlat tili, milliy ruh, madaniyatning go‘zal durdonalari, shu soha bo‘yicha buyuk alloma va olimlarning qilgan ishlari, fikrlari, respublikadagi oxirgi o‘zgarishlarning mashg‘ulot davomida foydalanilishi asos qilib olinishi mumkin

4. Psixologik tahlil

Bu tahlilda, avvalo, o‘quvchilarning kayfiyati, ularning sog’ligi, jamoadagi sog’lom muhit, xushyorligi fanga bo‘lgan qiziqishlari, dars berayotgan o‘qituvchisiga munosabati, hozirjavobligi, sezgir va topqirligi,

idroki, yangi va avvalgi materiallarni esda saqlashlari, obrazli va mantiqiy tafakkuri, fantaziyasi, oldida turgan mas’uliyatlariga irodali yoki irodasizligi, ulardagi bilim, ko’nikma va malakalar ko‘lami kabi tomonlar kiradi. O‘qituvchining favqulodda vujudga kelgan vaziyatdan o‘z obro‘sini saqlagan holda chiqa olishi, o‘zini boshqara olishi ham inobatga olinadi

5. Pedagogik tahlil

Tahlilning bu turi ancha murakkab va mas’uliyatli bo‘lib, o‘qituvchining tashqi qiyofasi, talabalar bilan til topa olish mahorati, madaniyati, odobi bilan birgalikda dars jarayonida umuminsoniy tarbiyaning tarkibiy qismlarini talabalarga

bera olishi va uning nutq madaniyati ham nazarda tutiladi

**Dars kuzatishdan chiqarilgan yakuniy xulosalar, taklif va tavsiyalar**

Pedagogik odob, o‘zaro hurmat va bir-birini tushungan holda dars kuzatuvida ishtirok etganlar yuqorida tavsiya etilgan texnologik yondashuv asosida o‘z fikrlarini oshkora bildirganlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Har qanday tajribali, bilimdon, uzoq yillik pedagogik faoliyatda samarali ishlab kelayotgan mutaxassisda ham ayrim kamchiliklar ko‘zga tashlanib qoladi. O‘qituvchining yoshi, tajribasini hurmat qilib, uni aytib o‘tmaslik, o‘qituvchining keyingi o‘tadigan darslarini samarali bo‘lishiga qisman bo‘lsada, to‘sqinlik qilishi mumkin. Chiqarilgan yakuniy xulosalar, taklif va tavsiyalarga muvofiq o‘qituvchining ish tajribasini umumashtirish va ommalashtirish yetuk hamda raqobatbardosh o‘qituvchi kadrlar tayyorlashda muhim o‘rin tutadi Xulosa. Dars tahlili o‘qituvchining ish faoliyatini o‘rganish, fan asoslarini o‘quvchilar qanday darajada o‘zlashtirayotganligini aniqlash va davlat o‘quv dasturi materiallarining reja asosida bajarilishini nazorat etishning asosiy omili hisoblanadi. Darslarni ilmiy, metodik, didaktik va umumiy pedagogik, psixologik jihatlarga bo‘lib tahlil etish dars tahliliga aniqlik kiritadi, uni mukammallashtiradi hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga mukammal baho berish imkonini kengaytiradi.

Fidbek nima?

Fidbek – inglizcha “feedback” so’zidan olingan bo’lib, “qayta bog’lanish” degan ma’noni bildiradi.

Fidbek quyidagi maqsadlarda qo’llanadi:

1) boshqa kishiga o’zim haqimda nima o’ylashim va his qilishimni bildirish;

2) boshqa kishiga u haqida nima o’ylashim va his qilishimni bildirish;

Fidbek - ikki kishi orasidagi xulq va munosabatni tartibga solish instrumentidir.

Fidbek berish va olish qiyinchiliklari:

- milliy urf-odatlar;
- munosabat buzilishidan qo’rqish;
- noto’g’ri tushunishlaridan qo’rqish;
- harakat qilishdagi ishonchsizlik.

Fidbek dars tahlili, biror holatga munosabat bildirishda qo’llaniladi. Fidbek berish va Fidbek olish qoidalari mavjud.

Fidbek berishda:

- Baholamang, balki izohlang (ijobiydan boshlang)
- Umumiy gaplardan qoching, aniq narsaga Fidbek bering
- Biror o’zgartirish kiritish taklifingiz bo’lsagina fikr bildiring
- Fidbek berishdan oldin rozilik oling
- Fidbek bilan voqea o’rtasidagi vaqt oz bo’lishi kerak
- Hayajon yo’qligiga ishonch hosil qiling
- “Menimcha”, “Ehtimol”, “Mening nazarimda”, “Iloji bo’lsa” kabi iboralardan foydalaning
- Fidbek berilayotgan kishiga shaxsan murojaat qiling: “Sizning ... menga yoqdi”, “Sizning o’rningizda men bo’lganimda, ...” kabi.

Fidbek olishda:

- O’zingizni oqlamang
- Fidbek olishga tayyor bo’lmasangiz, uni rad qiling
- Fidbek yakunida minnatdorchilik bildiring

Fidbekni muntazam qo’llash munosabatlarni yaxshilash, hamkorlik va hamjihatlik muhitini yaratish, shu orqali ta’lim samaradorligini oshirish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Умаров А. С., Рахимов А. К., Мирзаева Н. А. ДАРС СИФАТИНИНГ ТАҲЛИЛИ–ТАЪЛИМ ТАРАҚҚИЁТИ МЕЗОНИ //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 80-88.

**2.** G‘aybullaeva M. DARS TAHLILI PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHNING VOSITASI SIFATIDA //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 836-840.

**3.** Мирзаев И. Дарс таҳлили. / Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: «Ўқитувчи», 1985.

4. Олимов Ш.Ш. Некоторые вопросы организации урока на основании педагогических технологий //Молодой ученый. – 2013. – №. 5. – С. 752- 754.

## 2.4. “TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKT” MODULINING O‘QUV DASTURI

### 1-mavzu. Ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish asoslari

(2 soat nazariy mashg‘uloti)

(2 soat nazariy mashg‘uloti)

**Режа:**

1. Raqamli ta’lim tushunchasi. Ta’limni raqamlashtirishning maqsad va vazifalari.
2. Raqamli ta’limning asosiy vositalari.
3. Ilg‘or xorijiy tajribalar.
4. Zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar va ularning turlari. Virtual laboratoriya va simulyatsiyalar.
5. Sun’iy intellekt tushunchasi.

**Mashg‘ulotning texnologik xaritasi**

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **O‘quv bloki** | II. **UMUMKASBIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH** | | | | |
| **O‘quv modul** | **2.4. “Ta’limda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt”** | | | | |
| **Mavzu** | 1. **Ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish asoslari** | | | | |
| **Davomiyligi** | 80 daqiqa | | | | |
| **Mashg‘ulotning maqsadi** | - Ta'lim tizimini raqamlashtirish jarayonini tahlil qilish<br>- Raqamli ta'limning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganish<br>- Raqamli resurslar va ularning samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini belgilash | | | | |
| **Mashg‘ulot bosqichlari** | **Faoliyat tavsifi** | **Vaqt, daqiqa** | **Metodlar** | **Zarur jihozlar** | **Natija** |
| **1. Tashkiliy qism** | - Salomlashish<br>- Maqsad va reja bilan tanishtirish<br>- Mashg‘ulotning dolzarbligini asoslab berish | 5 | Suhbat, tushuntirish | 1-slayd | O‘qituvchilar mashg‘ulotga tayyor bo‘lishadi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **2. Motivatsiya** | - Qiziqarli jumboq yoki muammoli savol<br>- "Mavzuning dolzarbligi" haqida qisqa muhokama | 10 | Muammoli vaziyat yaratish, muhokama | 2-slayd | O‘qituvchilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag‘batlanadi. |
| **3. Nazariy qism** | Raqamli ta’lim tushunchasi. Ta’limni raqamlashtirishning maqsad va vazifalari. Raqamli ta’limning asosiy vositalari. Ilg‘or xorijiy tajribalar. Zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar va ularning turlari. Virtual laboratoriya va simulyatsiyalar. Sun’iy intellekt tushunchasi. | 30 | Taqdimot, ko‘rgazmali tushuntirish | 3-20-slayd | O‘qituvchilar yangi texnologiyalarni nazariy jihatdan o‘rganadi. |
| **4. Amaliy mashg‘ulot** | -Virtual laboratoriyala | 15 | Guruhlarda ishlash, | | O‘qituvchilar interfaol |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | r va simulyatsiyalar<br>-Ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari va Raqamli ta'limning raqamlashtirishning maqsad va vazifalari | | platformalardan foydalanish | 1-Tarqatma | vositalar yordamida amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi. |
| **5. Tahlil va muhokama** | - Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar<br>- Qiyinchiliklarni muhokama qilish<br>- Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish | 15 | Suhbat, muhokama, tahlil | | O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi. |
| **6. Refleksiya** | - "Men nimani o‘rgandim?" usuli orqali xulosa qilish<br>- "Traffic Light" orqali o‘z-o‘zini baholash | 5 | Refleksiya usullari | 22-slayd | O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi. |
| **7. Yakunlash va baholash** | - Mashg‘ulot natijalarini | 5 | Suhbat | | O‘qituvchilar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | umumlashtirish<br>- Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish | | | | mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo‘naltiriladi. |

**Ilovalar**

**1- Tarqatma (1-ilova)**

**Raqamli texnologiyalarning**

| Afzaligi | Kamchligi |
|---|---|
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |

**Sun‘iy intellekt texnologiyalarining**

| Afzaligi | Kamchligi |
|---|---|
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |

**2- Tarqatma (2-ilova)**

Ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish asosida o‘qituvchilarga beriladigan topshiriqlarni 3 ta guruhga bo‘lib quyidagicha tashkil qilish mumkin:

**1-guruh: Axborot resurslarini yaratish**

**Tavsif:** Bu guruh o‘qituvchilarga ta’lim mazmunini raqamli formatda tayyorlash bo‘yicha topshiriq beradi.

**Topshiriq:**

- Dars mavzusiga mos **prezentatsiya**, **video dars** yoki **infografika** tayyorlash.
- Google Slides yoki PowerPoint yordamida taqdimot yaratish.
- Canva yoki boshqa onlayn vositalardan foydalanib vizual material tayyorlash.
- O'quvchilarga ushbu materiallarni ulashish uchun Google Drive, OneDrive yoki Telegram kanal ochish.

**2-guruh: Interaktiv ta’lim platformalaridan foydalanish**

**Tavsif:** Bu guruh ta'lim jarayonida interaktiv platformalar va xizmatlarni qo‘llashni o‘rganadi.

**Topshiriq:**

- Quizlet, Kahoot yoki Mentimeter orqali dars mavzusi bo‘yicha **testlar** va **qiziqarli savollar** yaratish.
- Maktab LMS (Masalan, Google Classroom, Moodle) platformasida mavzu bo‘yicha topshiriq yuklash.
- ChatGPT yoki boshqa sun'iy intellekt vositalaridan foydalanib o‘quvchilarga **individual o‘quv materiallari** ishlab chiqish.

**3-guruh: Raqamli sinfni boshqarish**

**Tavsif:** Bu guruh dars jarayonini raqamli tarzda boshqarish bo‘yicha ish olib boradi.

**Topshiriq:**

- Google Meet yoki Zoom orqali **onlayn dars rejasini ishlab chiqish** va sinf bilan mashq qilish.
- ClassDojo yoki Edmodo platformalarida sinf faoliyatini boshqarish.
- O‘quvchilarning ishtirokini kuzatish va ularning bilimini baholash uchun Google Forms orqali **onlayn test** yoki so‘rovnoma tuzish.

**1. Raqamli ta’lim tushunchasi. Ta’limni raqamlashtirishning maqsad va vazifalari**.

**Raqamli ta’lim (Digital education)** deyilganda o‘qitish va o‘rganishni sifatli, samarali, mazmunli, oson va qiziqarli qilish maqsadida raqamli texnologiyalardan foydalanish tushuniladi.

Ta’limni raqamlashtirish deganda ta’lim jarayonlarini boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish, ta’lim beruvchi va oluvchilar uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish, ta’lim natijalarni yaxshilash, ma’lumotlarni tahlil qilish, ta’lim xizmatlaridan masofadan turib foydalanish uchun raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish tushuniladi.

**Ta’limni raqamlashtirishning asosiy maqsadlari:**

**1. Ta’lim ishtirokchilari uchun bir xil imkoniyat yaratish.** Geografik joylashuvi yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat’iy nazar, barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim olish va uning xizmatlaridan teng foydalanish imkoniyatini ta’minlash.

**2. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish.** Moslashuvchan, interfaol va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, shu jumladan, ta’lim oluvchilarning qiziqish doirasi va o‘zlashtirish natijalaridan kelib chiqib, ta’lim resurslarini taqdim etish.

**3. Iqtisodiy samaradorlikni oshirish.** Ta’lim resurslaridan foydalanishni optimallashtirish va an’anaviy ta’lim usullari bilan bog‘liq xarajatlarni qisqartirish.

**4. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.** Butun dunyo bo‘ylab, ta’lim oluvchilar, beruvchilar va ta’lim tashkilotlari o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish.

**5. Uzluksiz ta’lim.** Hayot davomida o‘rganish (Lifelong Learning) tamoyili asosida uzluksiz ravishda bilimlarni egallash va ko‘nikmalarni rivojlantirib borish.

**6. Ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish.** Ta’lim siyosati va statistikasini yuritish, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, ta’lim resurslarini yangilash yoki o‘zgartirishlar kiritish, shu jumladan, o‘qitishning yangi uslublarini joriy etish uchun ma’lumotlar tahlilidan foydalanishdan iborat.

Ta’limni raqamlashtirishning asosiy maqsadi iqtisodiy samaradorlikka erishish orqali ta’lim mazmuni, sifati va samaradorligini oshirish ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

**Ta’limni raqamlashtirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

**1. Ya’ni: Infratuzilmani rivojlantirish.** Ta’limni raqamlashtirish uchun zarur texnologik infratuzilmani, jumladan, yuqori tezlikdagi internet, raqamli qurilmalar (kompyuter, interfaol doska, proyektor va boshqalar) va ta’limni boshqarish tizimlarini (ta’lim platformalarini) yaratish hamda ularni doimiy texnik qo‘llab-quvvatlash.

**2. Raqamli ta’lim resurslarini ishlab chiqish.** Bunda turli xil o‘rganish uslublari va afzalliklariga mos keladigan raqamli darsliklar, elektron kitoblar, ta’lim o‘yinlari, interfaol multimedia kontenti hamda raqamli resurslarni yaratish. Bu an’anaviy o‘quv materiallarini raqamli shaklga o‘tkazish yoki raqamli platformalar uchun maxsus ishlab chiqilgan yangi kontentni yaratishni o‘z ichiga oladi.

**3. Pedagog kadrlarni malakasini oshirish va qo‘llab-quvvatlash.** O‘qituvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirish, onlayn o‘qitishning pedagogik metodlari va texnologiyalarini qo‘llash, shu jumladan, dars jarayonida zamonaviy pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish bo‘yicha trening, o‘quv-seminar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

**4. Ta’limni boshqarish tizimini joriy etish.** Fan mazmunini yetkazib berish, ta’lim oluvchilar va beruvchilar o‘rtasidagi muloqotni osonlashtirish, topshiriqlar, shu jumladan, baholashlarni boshqarish, ta’lim oluvchilarning qiziqish doirasi va o‘zlashtirish natijalaridan kelib chiqib kontentni tavsiya etish, ularni kasbga yo‘naltirish maqsadida Moodle, Canvas yoki Blackboard kabi ta’limni boshqarish tizimlaridan foydalanish.

**5. Onlayn kurslarni ishlab chiqish.** Ta’lim oluvchilar uchun moslashuvchan o‘rganish imkoniyatlarini, jumladan, asinxron kontentni yetkazib berish, multimedia materiallari, interfaol faoliyat va baholashlarni taqdim etadigan onlayn kurslarni loyihalash hamda ishlab chiqish, shu bilan birga ta’lim oluvchilarni onlayn ta’lim muhitiga jalb qilish choralarini ko‘rish.

**6. Virtual sinflar va vebinarlar.** Ta’lim beruvchi va oluvchi o‘rtasida real vaqt rejimida o‘zaro hamkorlik qilishi, guruh bo‘lib ishlashi va jonli savol-javoblar o‘tkazish maqsadida virtual sinflar, vebinarlar va onlayn ma’ruzalar tashkil etish. Bunda Zoom, Microsoft Teams yoki Google Meet kabi video konferensiya vositalaridan foydalanish.

**7. Raqamli baholash vositalari.** So‘rovnomalar, testlar, imtihonlar va topshiriqlarni onlayn boshqarish uchun raqamli baholash vositalari hamda platformalaridan foydalanish. Bu doimiy fikr-mulohazalar uchun formativ baholash hamda ta’lim oluvchilarning ta’lim natijalarini baholash uchun umumlashtiruvchi baholashlarni ham o‘z ichiga oladi.

**8. Ma’lumotlar tahlili.** Ta’lim oluvchilarning o‘zlari ustida ishlashi, faolligi va ta’lim natijalari bilan bog‘liq ma’lumotlarni tahlil qilish vositalaridan foydalanish. Ushbu ma’lumotlar tahlili takomillashtirish lozim bo‘lgan yo‘nalishlarni aniqlash, shaxsiy ta’lim olish trayektoriyasini belgilash va ta’limga oid qarorlarni qabul qilishda yordam beradi.

**9 Raqamli fuqarolik va ma’lumotlar xavfsizligi.** Ta’lim oluvchilarga texnologiyadan tog’ri va xavfsiz foydalanish etikasini shakllantirish, raqamli aloqa ko‘nikmalari, maxfiylikni himoya qilish, kiberxavfsizlikdan xabardorlikni o‘rgatish orqali raqamli fuqarolik hamda ma’lumotlar xavfsizligi bo‘yicha zarur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.

**10 Inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash.** Raqamli ta’lim resurslari va platformalari alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ochiq, qulay hamda maxsus imkoniyatlarni taqdim etadigan bo‘lishini ta’minlash. Bu

inklyuziv ta’lim bo‘yicha standartlarga mos keladigan kontentni yaratish, muqobil formatlarni taqdim etish va kerak bo‘lganda yordamchi texnologiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Umuman olganda, ta’lim jarayonlarini raqamlashtirishdan asosiy maqsad ta’limda sifat va samaradorlikni oshirish orqali mamlakatning rivojlanishi hamda iqtisodiy samaradorliklarga erishishdan iboratdir

## 2. Raqamli ta’limning asosiy vositalari.

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurishi natijada ta’lim jarayonlarini raqamli boshqarish, raqamli ta’lim resurslarini yaratish, o‘quv jarayonlarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish, masofaviy va onlayn ta’limni tashkil etish, o‘qitishning innovatsion va interfaol shakllarini yaratish, virtual sinflar, ta’lim o‘yinlari hamda shu kabi raqamli ta’lim vositalarining soni va imkoniyatlarini ortib borishiga sabab bo‘lmoqda.

**Quyida raqamli ta’limning asosiy vositalari keltirib o‘tilgan:**

**Ta’limni boshqarish tizimlari (Learning Management System - LMS)-** ta’lim jarayonini rejalashtirish, amalga oshirish, shuningdek, ta’lim kurslari, o‘quv dasturlari, materiallar, baholash, davomat hamda ma’muriy jarayonlarni boshqarish, hujjatlashtirish, kuzatish, hisobot berish, avtomatlashtirish va yetkazib berishda foydalaniladigan dasturiy ta’minotlar. Ularga Moodle, Canvas, Blackboard, Google Classroom, Schoology va boshqa platformalarni misol qilishimiz mumkin.

**Kontent yaratish va almashish platformalari-**ushbu platformalar foydalanuvchilarga hujjatlar, taqdimotlar, interfaol va animatsion resurslar, elektron jadvallar va multimedia fayllari kabi raqamli ta’lim resurslarini yaratish, tahrirlash, ular ustida hamkorlikda ishlash va almashish imkonini taqdim etadi.

**Onlayn ta’lim platformalari-** ta’lim oluvchilarga joylashuv joyi va vaqtidan qat’iy nazar jahonning eng yaxshi (TOP) ta’lim tashkilotlari hamda kompaniyalari tomonidan taqdim etilgan kurslarni o‘zlashtirish imkonini yaratib beruvchi ommaviy ochiq onlayn kurslarni (Massive open online course - MOOC) taklif etadigan platformalar tushuniladi. Ularga Coursera, Udemy, edX, FutureLearn, Swayam, Linkedin Learning va shu kabi boshqa platformalarni misol qilishimiz mumkin.

**Videokonferensaloqa va virtual sinflar-**videokonferensaloqa va virtual sinf vositalari foydalanuvchilarga real vaqtda internet jahon axborot tarmog‘iga ulanish orqali jonli video uchrashuvlar, vebinarlar, ma’ruzalar va muhokamalar o‘tkazish imkonini beradi. Ularga misol sifatida Zoom, Microsoft Teams, Google Meet, Cisco Webex va BigBlueButton kabi dasturiy vositalarni keltirishimiz mumkin.

**Interfaol doska-**interfaol doska vositalari raqamli doska yuzalarini taqdim etadi, bunda foydalanuvchilar stilus (maxsus ruchka) yoki sensorli kiritish yordamida raqamli kontentni chizish, yozish, izohlash va tahrir qilishlari hamda resurslarni bir-birlari bilan ulashishlari mumkin bo‘ladi. Ularga FigJam, Explain Everything, Miro, Ziteboard, AWW App va shu kabi platformalarni misol qilishimiz mumkin.

**Baholash va viktorina platformalari-**bunday platformalar ta’lim oluvchilarni onlayn bilimini baholash maqsadida ta’lim beruvchilarga viktorinalar, testlar va so‘rovlarni yaratish hamda natijalarni tahlil qilish imkonini beradi. Ularga misol sifatida Kahoot!, Quizizz, Socrative, Formative, Edpuzzle va shu kabi boshqa dasturiy vositalarni keltirishimiz mumkin.

**Hamkorlik va aloqa vositalari-**hamkorlik va aloqa vositalari ta’lim oluvchilar, beruvchilar va boshqa ta’lim ishtirokchilari o‘rtasida muloqot, hamkorlik va loyihalarni boshqarishni osonlashtiradi. Ularga Slack, Microsoft Teams, G Suite, Trello, Basecamp, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlarni ham misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

**Til o‘rganish uchun ilova va platformalar-**bunday ilova va platformalar yangi xorijiy tillarni o‘rganish yoki til ko‘nikmalarini mustahkamlash uchun interfaol vositalar hamda resurslarni taklif qiladi. Misol sifatida Duolingo, Babbel, Rosetta Stone, Memrise, FluentU larni keltirishimiz mumkin.

**Kodlash va dasturlash platformalari-**dasturlash tillarini o‘rganayotgan foydalanuvchilarga interfaol mashqlarni bajarish, resurslarni o‘zlashtirish, kod yozishdagi kamchiliklarni to‘g‘rilash va tavsiyalar berish kabi imkoniyatlarni taqdim etadi. Ularga Codecademy, FreeCodeCamp, Scratch, GitHub Classroom, Repl. it va shu kabi boshqa platformalarni misol sifatida ko‘rsatishimiz mumkin.

**Virtual va to‘ldirilgan reallik (VR va AR)-**bunday vositalar virtual muhitda o‘qitish va o‘rganish uchun fanga doir turli xil tajriba, sinov hamda simulyatsiyalarni taklif qiladi. Shuningdek, ta’lim oluvchilarga raqamli kontent va ma’lumotlarni real muhitga qo‘shib, interfaol va immersiv elementlar orqali o‘rganish tajribasini yaxshilaydi. Ularga misol sifatida Google Expeditions, Nearpod VR, zSpace, ClassVR, AltspaceVR, Merge Cube, Elements 4D by DAQRI, Quiver, Aurasma (HP Reveal), Metaverse shu jumladan, virtual laboratoriyalarni ham misol qilishimiz mumkin.

**Moslashuvchan ta’lim platformalari-**bunday platformalar asosan sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda ta’lim oluvchining individual qobiliyatlari, qiziqishlari va o‘zlashtirish natijalari asosida ularning shaxsiy ta’lim olish trayektoriyasini aniqlaydi hamda o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan ta’lim resurslarini taqdim etadi. Ularga Whatfix, EdApp, 360Learning, Adaptemy, Knewton va Khan Academy kabi platformalarni misol qilishimiz mumkin.

**Raqamli darslik va elektron kitob platformalari-**bunday platformalar darsliklar, o‘quv materiallar va adabiyotlarning elektron shakllarini kompyuter, planshet hamda smartfonlar orqali oson va qulay o‘qish imkonini taqdim etadi. Ularga misol tariqasida VitalSource, Kindle, Apple Books, Google Play Books, Chegg va shu kabi boshqa platformalarni keltirishimiz mumkin.

**Geymifikatsiya yoki o‘yinga asoslangan ta’lim vositalari-**ta’lim oluvchilarni fanga qiziqtirish va ta’lim natijalarini yaxshilash uchun o‘yin elementlari, algoritmlari hamda tamoyillarini ta’lim faoliyatiga integratsiya qilish tushuniladi. Bunday ta’lim o‘yinlarini yaratuvchi vositalarga LearningApps, Wordwall, Classcraft, Gimkit, Legends of Learning va Kahoot! kabi platformalarni keltirishimiz mumkin.

**Virtual yordamchilar-**o‘zlashtirish natijalarini yaxshilash, savollarga javob berish, raqamli kontentlar yaratish, o‘qitishning yangi metodlarini, shu jumladan, dasturlash va xorijiy tillarni o‘rganish hamda shu kabi ta’limda ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etayotgan sun’iy intellektga asoslangan virtual yordamchilar ham raqamli ta’limda keng qo‘llanilmoqda. Ularga ChatGPT, Copilot (Microsoft Bing), Gemini, Socratic, Pifagor AI va shu kabi boshqa vositalarni misol qilishimiz mumkin.

Raqamli ta’lim vositalariga nafaqat dasturiy ta’minotlar, balki qurilmalar (apparatlar) ham kiradi. Ya’ni, kompyuter, planshet, smartfon, interfaol (sensorli) doska, proyektor, VR, AR, MR jihozlari, 3D printer, robototexnika va shu kabi ta’limni raqamlashtirishda foydalaniladigan qurilmalar ham raqamli ta’lim vositalari hisoblanadi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan raqamli ta’limning asosiy vositalari soni kundan-kunga ortib, ta’limni mazmunli, qiziqarli hamda interfaol shaklda tashkil etish, shu jumladan, ta’lim sifat va samaradorligini oshirish imkonini bermoqda.

## 3. Ilg‘or xorijiy tajribalar.

Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak albatta Singapur, Finlyandiya, AQSH, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, BAA, Turkiya va shu kabi davlatlarni misol sifatida keltirib o‘tishimiz lozim. Shuningdek xalqaro reytinglarda raqamli hukumatni rivojlantirish hamda elektron davlat xizmatlaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlarni tatbiq etish bo‘yicha BMTga a’zo 193 ta davlatlar orasida 2024-yil yakuni hisobotlariga ko‘ra Daniya yetakchilik qilmoqda[1].

Bu o‘z navbatida ta’lim xizmatlaridan (masalan, bog‘cha yoki maktabga kirish, ko‘chirish, shahodatnoma yoki ma’lumotnomalarni elektron yuklab olish, oliy ta’limga o‘qishga topshirish, o‘qishni ko‘chirish, diplom olish va shu kabi ta’lim jarayonidagi barcha xizmatlardan internet orqali istalgan joyda va vaqtda foydalanish) masofadan turib foydalanishni anglatadi

Darhaqiqat, Xitoyda aqlli ta’limni joriy etish bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ularga misol tariqasida “Xitoyda aqlli ta’lim” platformasi ishga tushirilgan[2]. Unga ko‘ra barcha ta’lim bosqichlari uchun ta’lim xizmatlari, imtihon jarayonlari, xalqaro ta’lim kurslari, raqamli ta’lim resurslari, darsliklar, ta’lim o‘yinlari, multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar va shu kabi interfaol resurslarni yagona kirish nuqtasidan turib foydalanish imkoniyati mavjud. Bu esa ta’lim statistikasini yuritish hamda resurslarni samaradorligini

baholash orqali doimiy ta’lim oluvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqib yangi interfaol ta’lim resurslarini ishlab chiqishni ilmiy asoslash imkonini taqdim etadi.

Shu bilan birga, Turkiya davlatining “Imkoniyatlarni oshirish va texnologiyani takomillashtirish harakati (Fırsatları Artırma ve Teknolojiyi İyileştirme Hareketi – **FATIH**)” loyihasi doirasida **“Smart Class”** konsepsiyasini amalga oshirib, unda ta’lim muassasalarini:

Qurilmalar va dasturiy ta’minot bilan ta’minlash;

Raqamli ta’lim kontentini taqdim etish va uni boshqarish;

O‘quv dasturlariga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish;

Ta’lim beruvchilarni raqamli savodxonligini oshirish kabi ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Shu bilan birga, Turkiya milliy ta’lim vazirligining ta’lim axborot tarmog‘i (Education Information Network – **EBA**) yaratilgan bo‘lib, bugungi kunda ushbu ta’lim tarmog‘ida 150 mingdan ortiq elektron va audio kitoblar, turli xil virtual laboratoriyalar, multimedia vositalari, ta’limga oid o‘yinlar hamda boshqa raqamli ta’lim resurslari joylashtirilgan. Shu bilan birga, **MagicBox™** shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim platformasi ham ta’lim tizimida foydalaniladigan eng ommabop platformalardan biri hisoblanadi.

Shu o‘rinda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, ta’lim sifati va samaradorligini, jumladan, interfaollikni ta’minlash maqsadida Janubiy Koreyada **“SMART”** loyihasi, Birlashgan Arab Amirliklarida “Aqlli ta’lim (Smart Learning)” loyihasi, Singapur davlatining Ta’limda AKT bo‘yicha bosh rejasi **(ICT-in-Education Masterplan)**, Rossiyada “Raqamli ta’lim muhiti” federal loyihasi, Misrda “Aqlli maktab” kabi loyihalar amalga oshirilganini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, Singapur davlatining **Marshall Cavendish**, BAAning **Alif education** hamda Qozog‘istonning **TopIQ** kabi raqamli ta’lim platformalari ta’lim oluvchilarga raqamli ta’lim resurslaridan istalgan joyda va vaqtda foydalanish hamda dars jarayonlarini interfaol qilishga ko‘maklashib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida o‘quv hamda boshqaruv jarayonini raqamlashtirish hamda o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ularning ota-onalariga qulaylik yaratish maqsadida quyidagi axborot tizimlari ishga tushirilgan.

**Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish:**

erp.maktab.uz-yagona boshqaruv axborot tizimi;

ijro.xtv.uz -elektron hujjat almashuv tizimi;

ish.uzedu.uz-bo‘sh ish o‘rinlariga nomzodlarni onlayn tanlash tizimi;

zamonaviy.maktab.uz-zamonaviy maktablarni baholash onlayn platformasi;

**O‘quv jarayonini raqamlashtirish, o‘qituvchilarga yengillik yaratish:**

emaktab.uz (kundalik.com) -elektron kundalik tizimi;

onlinedu.uz-uzluksiz kasbiy ta’lim elektron platformasi;

ntr.avloniy.uz-o‘qituvchilarning milliy kadrlar zaxirasi maxsus elektron portali;

prof.maktab.uz -kasb-hunarga yo‘naltirish platformasi;

pka.uzedu.uz-pedagog kadrlarga lavozim va malaka toifalarini berish davriyligi ma’lumotlar bazasi;

**Ota-onalar va o‘quvchilarga elektron xizmatlarni taqdim etish:**

e-shahodatnoma.uz -elektron shahodatnoma platformasi;

my.maktab.uz -o‘quvchilarni umumta’lim maktablariga onlayn qabul qilish va boshqa maktabga o‘tkazish tizimi;

maktab.uz -masofaviy ta’lim onlayn platformasi;

olympiad.uzedu.uz- fan olimpiadalari onlayn platformasi;

artshop.uzedu.uz - maktab o‘quv qurollarini onlayn xarid platformasi

Bugungi kunga kelib umumiy o‘rta ta'lim tizimiga 15 dan ortiq elektron platformalar tatbiq etilgan bo‘lib, ular boshqaruv va ta'lim sifatini oshirishga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Shuningdek, mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini ham raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Ularga misol tariqasida **“Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish – HEMIS”** axborot tizimini ishlab chiqilganligi talabalar va professor-o‘qituvchilar, jumladan, barcha oliy ta’lim ishtirokchilari uchun qulaylik yaratmoqda

HEMIS axborot tizimi bugungi kunga kelib 12 ta vazirlik, idora va tashkilotlarga integratsiya orqali ma’lumotlarni taqdim etadi hamda 7 ta hukumat portallari va davlat idoralarining axborot tizimlaridan ma’lumotlarni olish (integratsiya) orqali foydalanuvchilarga qulaylik yaratmoqda. Ushbu platformada sun’iy intellekt vositalaridan ham foydalanish amaliyoti |

yo‘lga qo‘yilib, u yordamchi orqali ma’lumotlarni tahlil qilish va individual tavsiyalar berish imkoniyati yaratilgan. Shu bilan birga, sun’iy

intellekt yordamida o‘zbek tilidagi matnlarni nutqqa (ovozga) aylantirish hamda talabalarga rus, o‘zbek va ingliz tilidagi matnlarni tarjima qilish imkonini ham taqdim etmoqda.

**4. Zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar va ularning turlari. Virtual laboratoriya va simulyatsiyalar.**

Pedagogik dasturiy vositalar ta’lim beruvchilarga dars va darsdan tashqari jarayonlarda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda interfaol ta’lim resurslarini yaratish hamda ulardan ta’lim oluvchilar tomonidan biron bir fan yoki kasbni qiziqarli va samarali o‘rganish uchun qo‘llaniladigan dasturiy ilovalar hisoblanadi. Bunday vositalarning asosiy maqsadi innovatsiyalar davrida an’anaviy, masofaviy va onlayn ta’limda kontentni ta’lim oluvchilarga zamonaviy metodlar orqali yetkazib berishga ko‘maklashishdir.

Pedagogik dasturiy vositalar deb raqamli texnologiyalar, jumladan, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vositalarga aytiladi. Bunday vositalar ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlash va optimallashtirish maqsadida turli xil dasturiy ta’minotlarni o‘z ichiga oladi. Ular o‘qituvchilarga ta’lim berish jarayonini qiziqarli, mazmunli va interfaol qilish bilan bir qatorda o‘quvchilarni ta’lim olishiga va kontentni oson tushunishiga yordam beradi.

**Pedagogik dasturiy vositalar asosan quyidagi turlarga bo‘linadi:**

**O‘rgatuvchi dasturlar.**

Muayyan bilim, ko‘nikmalar yoki fanlarni o‘rganish uchun mo‘ljallangan maxsus dasturiy vositalar. Ularga misol tariqasida xorijiy tillar (Duolingo), matematika (Mathway, GeoGebra), dasturlash tillari (W3Schools) va boshqa o‘rgatuvchi dasturlarni keltirishimiz mumkin.

**Bilimni onlayn baholash.**

Turli xil interfaol mashq, topshiriq va testlarni yaratish, ularni o‘tkazish va natijalarni tahlil qiluvchi dasturiy vositalar. Masalan, Quizizz, Kahoot!, Plickers, Google Forms va boshqa shu kabi bilimlarni onlayn baholovchi platformalar.

**Ta’limni boshqarish tizimlari (LMS).**

Ta’lim jarayonini tashkil etish, boshqarish, monitoring qilish, statistik va tahliliy ma’lumotlarni tayyorlash, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish, elek tron jurnalni yuritish va shu kabi ko‘plab jarayonlarni avtomatlashtirish imkonini beruvchi dasturiy vositalar. Ularga Moodle, Canvas, Blackboard Learn, Google Classroom va boshqa LMS larni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Bugungi kunda 1 000 dan ortiq turli xil ta’limni boshqarish tizimlari mavjud

**Ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC).**

Bu ta’lim oluvchilarga dunyoning istalgan joyidan turgan holda eng yaxshi xalqaro tashkilotlar, universitetlar, tadqiqot institutlari va ekspertlarning kurslarini onlayn shaklda o‘zlashtirish imkonini beruvchi pedagogik dasturiy vositaning turi hisoblanadi. Ularga Coursera, edX, Udacity, Edumy, LinkedIn Learning, FutureLearn va Khan Academy larni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

**Masofaviy va onlayn o‘qitish vositalari.**

Ta’lim oluvchilarga istalgan joydan turib masofaviy yoki onlayn shaklda ta’lim olish imkonini beruvchi davturiy ta’minotlar. Masalan, Zoom, Microsoft Teams, Google Meet, Webex Meetings va Jitsi.

**Mualliflik vositalari (Authoring tools).**

Turli xil raqamli ta’lim resurslari va onlayn o‘quv kurslarini yaratish uchun mo‘ljallangan maxsus dasturiy vositalar. Ularga misol tariqasida iSpring Suite, Articulate 360, Adobe Captivate va boshqa shu kabi vositalarni keltirishimiz mumkin.

So‘ngi yillarda immersiv texnologiyalarning rivojlanishi natijasida virtual ta’limga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortib bormoqda. Bunday texnologiyalar ayniqsa tabiiy va aniq fanlarga doir laboratoriya hamda amaliy mashg‘ulotlarni virtual shaklda tajriba-sinovdan o‘tkazish uchun eng samarali yechimlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, jarayonlarni simulyatsiya qilish orqali ta’lim oluvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, qurilma va vositalardan virtual muhitda foydalanish, eng asosiysi barcha ta’lim oluvchilarni istalgan joyda mustaqil o‘rganishi uchun qulaylik yaratadi.

Immersiv texnologiyalar deganda real dunyoda amalga oshirilayotgan biron bir ish yoki jarayonlarni virtual muhitda tajriba-sinovdan o‘tkazish yoki uni real vaziyatlar bilan integratsiya qilish imkonini beruvchi texnologiyalarga nisbatan aytiladi.

**Ta’limda immersiv texnologiyalarning roli**

Immersiv texnologiyalar – bu real dunyoda amalga oshirilayotgan ish yoki jarayonlarni virtual muhitda tajriba-sinovdan o‘tkazishni osonlashtiruvchi, uni real vaziyatlar bilan integratsiya qilish imkonini beruvchi texnologiyalarga nisbatan aytiladi.

**2. PhET Interfaol simulyatsiyalari**

Platforma fizika, kimyo, biologiya, matematika va boshqa fanlarga oid virtual laboratoriyalar hamda interfaol simulyatsiyalarni taqdim etadi.

**3. The Physics Aviary platformasi**

Ushbu platforma fizikaga oid turli xil topshiriqlarni bajarishga yordam beruvchi simulyatsiyalar, mashqlar va boshqa interfaol resurslarni o‘z ichiga olgan.

**4. oPhysics: Interactive Physics Simulations platformasi**

oPhysics ta’lim oluvchilarga fizikani amaliyotda sinab ko‘rish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u turli fizik hodisalarni simulyatsiya qilish va fanni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

**5. Khan academy platformasi**

Dunyo bo‘ylab millionlab ta’lim oluvchilarga bepul raqamli ta’lim resurslari va multimedia vositalarini taqdim etuvchi notijorat onlayn ta’lim platformasi hisoblanadi.

**6. ChemCollective platformasi**

Ta’lim ishtirokchilariga kimyo fanini virtual laboratoriyalar, topshiriqlar, boshqotirmalar va boshqa interfaol ta’lim resurslari orqali bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

**Vascak platformasi**

**Leonardo AI** — bu sun'iy intellekt asosida ijodiy kontent, jumladan, tasvirlar, dizaynlar va 3D modellari yaratishga mo‘ljallangan platforma. U grafik dizaynerlar, o‘yin ishlab chiquvchilar va ijodkorlar uchun samarali vosita hisoblanadi.

Leonardo AI dasturidan foydalanish ketma-ketligi quyidagi qadamlarda amalga oshiriladi.

- **Ro‘yxatdan o‘tish:** Leonardo AI veb-saytida shaxsiy hisobni yarating.
- **Loyihani tanlash:** Grafik dizayn, tasvir yoki 3D model yaratish uchun kerakli vositani tanlang.
- **Parametrlarni sozlash:** Kontent uchun mavzu, uslub va boshqa sozlamalarni belgilang.
- **Natijani yuklab olish:** Yaratilgan kontentni ko‘rib chiqib va yuklab oling yoki tahrirlang.

**Amaliy faoliyat.** Quyidagi so’rovni Google Translate dasturida tarjima qilgan holda Leonardo AI ga yuboring.

*“Chatgptdan kompyuter orqali foydalanayotgan O'zbekistonlik o'qituvchi yozgan Promt u kutgandek natija bermagandagi jahli chiqqan holatini chizib ber. Unni chizishda yashil va sariq chiziqlarni ishlat.”*

Natijani boshqalarniki bilan solishtiring va fikrlaringizni Padletga yozing.

Ta’limda sun’iy intellektni qo’llashga doir boshqa vositalar:

**1. Classpoint AI**

Microsoft PowerPoint slaydlaridan turli xil test savollarini yaratish hamda interfaol elementlar bilan taqdimotlarni boyitishga yordamlashadigan vosita hisoblanadi.

**2. Slidesgo**

Google Slides va Microsoft PowerPoint uchun sun’iy intellektdan foydalangan holda taqdimotlar va interfaol resurslarni yaratib beruvchi platformadir.

**3. Magic School**

Ta’lim jarayoni bilan bog‘liq jarayonlarni, ya’ni, darslarni rejalashtirish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni joriy etish, o‘zlashtirish natijalarini tahlil qilishda sun’iy intellekt vositasidan foydalanish imkonini beruvchi platforma.

**4. Magickpen**

Sun’iy intellekt asosida ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish natijalaridan kelib chiqib raqamli ta’lim resurslarini yaratishni taklif etuvchi vosita hisoblanadi.

**5. Krea AI**

Ushbu platforma sun’iy intellekt yordamida ta’lim oluvchilarning ijodiy fikrlash doirasini kengaytirish maqsadida turli xil rasmlarni chizib berishni taklif etadi.

### 6. Sun’iy intellektga asoslangan xorijiy tilni o‘rgatuvchi ilovalar

Sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga tatbiq etilgan eng samarali loyihalarida biri bu xorijiy tillarni tez va oson o‘rganish uchun ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etishidir.

### 7. Ta’limdagi boshqa sun’iy intellekt vositalari

Ta’limda sun’iy intellekt darsga qatnashishni avtomatik tahlil qilish, bulling (zo‘ravonlik) jarayonlaridan xabardor qilish, ilmiy maqola va risolalar tayyorlash, plagiatga tekshirish, ta’lim samaradorligini baholash va shu kabi yo‘nalishlarda qo‘llanilib kelinmoqda.

XXI asrda ta’lim mazmuni va uni o’qitishdagi yondashuvlar jadal takomillashib bormoqda. Shunday davrda sinfda muvaffaqiyatli ta’limni ta’minlash juda qiyin. Ushbu holatda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib darslarni interaktiv shaklda tashkil etish kasbiy faolyatingizning natijadorligini ta’minlashi mumkin.

**Savollar**

1. Sun’iy intellekt nima?
2. Ta’limda sun’iy intellekt deganda nimani tushunasiz?
3. Siz uchun ta’limda qo’llash mumkin bo’lgan eng yaxshi sun’iy intellekt dasturi nomi nima?
4. ChatGPT dasturining Geminidan qanday ustun jihatlari mavjud?
5. Gamma yaxshimi yoki PowerPoint
6. Leonardo AI va ChatGPTning rasm yaratish imkoniyatlarini taqqosalaganda qaysi biri sifatli natijani taqdim etadi?

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. L. Sijing, W. Lan. Artificial intelligence education ethical problems and solutions 2018 13th international conference on computer science & education (ICCSE), IEEE (2018), pp. 1-5.

2. UNESCO, “Artificial Intelligence in Education,” UNESCO, August 2, 2019, https://en.unesco.org/artificial-intelligence/education.

3. UNESCO, “K-12 AI curricula: a mapping of government-endorsed AI curricula”, Published in 2022 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization,7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France

4. S.A.Normatov. Ta’limda sun’iy intellekt elementlari va xususiyatlari // Inter education & global study. 2024. №8. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ta-limda-sun-iy-intellekt-elementlari-va-xususiyatlari (дата обращения: 11.12.2024).

5. Renz, A., Krishnaraja, S., & Gronau, E. (2020). Demystification of artificial intelligence in education—how much AI is really in the educational technology? International Journal of Learning Analytics and Artificial Intelligence for Education, 2(1), 4–30.

6. S.Normatov. Methodology of Teaching the Elements of Artificial Intelligence in Schools. *American Journal of Science and Learning for Development*. 4, 1 (Nov. 2024), 1–6. DOI:https://doi.org/10.51699/ajsld.v4i1.201.

## 2.5. FORMATIV VA SUMMATIV BAHOLASH TAMOYILLARI

### Mavzu: O‘quvchilar bilimini baholashning yangi tizimi

### Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **O‘quv bloki** | II. Umumkasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish | | | | |
| **O‘quv modul** | 2.5. Formativ va summativ baholash tamoyillari | | | | |
| **Mavzu** | O‘quvchilar bilimini baholashning yangi tizimi | | | | |
| **Davomiyligi** | 80 daqiqa | | | | |
| **Mashg‘ulotning maqsadi** | • Dars rejasiga formativ baholash topshiriqlarini kamida ikkita turini kiritish orqali baholashning asosiy tamoyillari va maqsadlarini tushunish;<br>• Qayta aloqa berish amaliyoti haqida fikr yuritadi va sinfda qo‘llashga mo‘ljallangan samarali qayta aloqaning xususiyatlari ro‘yxatini tuzish. | | | | |
| **Mashg‘ulot bosqichlari** | **Faoliyat tavsifi** | **Vaqt, daqiqa** | **Metodlar** | **Zarur jihozlar** | **Natija** |
| **1. Tashkiliy qism** | - Salomlashish<br>- Mavzu bilan tanishtirish | 5 | Suhbat, tushuntirish | 1-2-slaydlar | O‘qituvchilar mashg‘ulotga tayyor bo‘lishadi. |
| **2. Motivatsiya** | - Mashg‘ulotning mavzusiga yo’naltiruvchi savol berish;<br>- Kirish mashqini o’tkazish. | 10 | Muammoli vaziyat yaratish, muhokama | 3-slayd | O‘qituvchilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag‘batlanadi. |
| **3. Nazariy qism** | - Baholash tamoyillari | 15 | Taqdimot, ko‘rgazmali tushuntirish | 4- slayd 1-ilova | O‘qituvchilar fanni o‘qitishda |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | haqida bahs-munozara;<br>- Baholash turlari;<br>- Slaydlar bilan tushuntirish | | | | innovatsion yondashuvlarni nazariy jihatdan o‘rganadi. |
| **4. Amaliy mashg‘ulot** | - Guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqlar bajarish;<br>- Solishtirma mashq tarqatmasi yordamida muhokama qilish; | 20 | Guruhlarda ishlash | 5-7-slaydlar 2-3-ilova | O‘qituvchilar guruhlarda ishlash amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi. |
| **5. Tahlil va muhokama** | - Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar;<br>- Qiyinchiliklarni muhokama qilish;<br>- Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish; | 20 | Suhbat, muhokama, tahlil | 8-slayd | O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi. |
| **6. Refleksiya** | - O‘z maktablarida hamkasblari bilan hamkorlikda ishlagan holda formativ va summativ baholash | 5 | Refleksiya usullari | 9-slayd | O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | topshiriqlarini yaratish. | | | | |
| **7. Yakunlash va baholash** | - Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish<br>- Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish | 5 | Suhbat | 10-slayd | O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo‘naltiriladi. |

## Ilovalar

**1-ilova**

**1-tarqatma material. Kirish mashqi**

Quyida berilgan gaplar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi bo‘yicha qaror qiling. Agar ular noto‘g‘ri bo‘lsa sabablarini izohlang:

1. Diagnostik baholash ilgari egallangan bilimlarni va noto‘g‘ri tasavvur, tushunchalarni aniqlaydi.
2. Formativ baholash o‘quv faoliyati natijalarini baholashning yakuniy shakli hisoblanadi.
3. Chiqish chiptalari o‘quvchilarning ilgari egallangan bilimlarini faollashtirish uchun darsning boshlanishida beriladigan qisqacha baholash topshiriqlaridir.
4. O‘z-o‘zini baholash o‘quvchilarga nazorat ro‘yxatlari yoki rubrikalar yordamida o‘z faoliyatlari xususida refleksiv mushohoda qilishga undaydi.
5. Samarali qayta aloqa umumiy va mavhum ko‘rinishda bo‘ladi.

**2-ilova**

## 2-tarqatma material. Baholash tamoyillari: Solishtirish mashqi

| Xususiyat | Izoh/ta’rif |
|---|---|
| Validlik | Baholash maqsadi, topshiriq bo‘yicha ko‘rsatmalar va uni bajarishdan kutilmalar baholanuvchilar tomonidan oson tushuniladi. |
| Inklyuzivlik | O‘lchash/baholash ko‘zda tutilgan narsalarnigina o‘lchashi/baholashi kerak. |
| Qo‘llaniladigan | Natijalar baholash vaqti va baholovchilardan qat’iy nazar izchil bo‘lishi lozim. |
| Ishonchlilik | Turli o‘quvchilar uchun mos bo‘lishi lozim. |
| Aniqlik | Maqsadlar, natijalar va vazifalar bir-biriga mos hamda o‘quv dasturi yoki standartga mos bo‘lishi lozim. |
| Moslik | O‘quvchilarga qayta aloqa va refleksiya orqali o‘rganish imkoniyatini taqdim etishi lozim. |

## 2-tarqatma material: javoblar

| | |
|---|---|
| Aniqlik | Baholash maqsadi, topshiriq bo‘yicha ko‘rsatmalar va uni bajarishdan kutilmalar baholanuvchilar tomonidan oson tushuniladi. |
| Validlik | O‘lchash/baholash ko‘zda tutilgan narsalarnigina o‘lchashi/baholashi kerak. |
| Ishonchlilik | Natijalar baholash vaqti va baholovchilardan qat’iy nazar izchil bo‘lishi lozim. |
| Inklyuzivlik | Turli o‘quvchilar uchun mos bo‘lishi lozim. |
| Moslik | Maqsadlar, natijalar va vazifalar bir-biriga mos hamda o‘quv dasturi yoki standartga mos bo‘lishi lozim. |

| | |
|---|---|
| Qo‘llaniladigan | O‘quvchilarga qayta aloqa va refleksiya orqali o‘rganish imkoniyatini taqdim etishi lozim. |

**3-tarqatma material: Formativ baholashga kirish**

Formativ (shakllantiruvchi) maqsadlarda baholash yoki qisqacha qilib aytganda formativ baholash, samarali o‘qitishning asosini tashkil qilib, o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning o‘qib-o‘rganishini monitoring qilish va takomillashtirish uchun ishlab chiqiladi. Bo‘lim, chorak yoki yunitning so‘ngida o‘qib-o‘rganishni baholovchi summativ (xulosalovchi) baholashdan farqli o‘laroq, formativ baholash uzluksiz jarayon bo‘lib, ham o‘qituvchilarga ham o‘quvchilarga o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, takomillashtirish kerak bo‘lgan jabhalarni aniqlashtirish va tezkor ravishda qo‘yilishi kerak bo‘lgan keyingi qadamlarni aniqlash imkonini beradi.

Formativ baholashning afzalliklari va foydali tomonlaridan bittasi bu uning o‘quv jarayonini yo‘naltirishga yordam berishidadir. O‘qituvchilar darslar davomida formativ baholash topshiriqlari sifatida qo‘llanilgan viktorinalar, muhokamalar yoki o‘z kuzatuvlari orqali olingan ma’lumotlarga tayangan holda o‘qitish metodlarini moslashtirishlari va tushunmovchiliklar, o‘quvchilarning o‘tilayotgan materiallarni tushunishidagi qiyinchiliklarga tezkor tarzda murojaat qilish imkonini beradi. Masalar, o‘qituvchi “chiqish chiptalari” (o‘quvchilar o‘z ishini tekshirish va baholashi va o‘rganayotganlari hamda erishayotgan natijalari xususida refleksiv mushohoda yuritish imkonini beruvchi mezonlar ro‘yxatini) berish orqali dars davomida o‘tilgan tushuncha yoki mavzuniing o‘quvchilar tomonidan tushunilganligini o‘lchashi mumkin va zarur bo‘lsa keyingi kun ushbu mavzu yoki o‘tilgan tushunchani yana takrorlashi mumkin.

Formativ baholashning yana bir foydali tomoni bu uning o‘quvchilarda o‘z o‘qib-o‘rganishiga egalik qilish va unga mas’uliyatli bo‘lishga rag‘batlantirishida aks etadi. O‘z-o‘zini baholash va o‘quvchilarning o‘zaro bir-birini baholash kabi texnikalari o‘quvchilarga erishayotgan natijalari bo‘yicha refleksiv mushohoda qilish va shasxiy maqsadlarni belgilash imkonini beradi. Bunday refleksiv amaliyot o‘quvchilarning nafaqat tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi balki ularning ta’lim olish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi.

Formativ baholash qachonki undan tez-tez, turli ko‘rinishlarda foydalanib turilsagina va ushbu baholashdan kelib chiqadigan salbiy oqibatlar o‘quvchilar uchun qanchalik kam bo‘lsa shuncha samarali hisoblanadi. O‘qituvchilar ushbu baholash turini amalda qo‘llashning turli strategiyalaridan, norasmiy savol-javobdan tortib anchayin strukturalashgan “fikrla-muhokama qil-o‘rtoqlash”

kabi strategiyalardan foydalanishlari mumkin. Bundan kutilgan yakuniy maqsad o‘quvchilar uchun tajriba qilish, xatolarga yo‘l qo‘yish va ulardan o‘rganish imkonini beruvchi qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratish hisoblanadi.

Inklyuziv sinflarda turli o‘quvchilarning ehtiyojlariga murojaat qilish uchun o‘qituvchilar tabaqalashtirilgan formativ baholash vositalaridan foydalanishi, ya’ni o‘quvchilarning turli darajalari va ehtiyojlaridan kelib chiquvchi topshiriq va vazifalardan foydalanishi mumkin. Masalan, ayrim o‘quvchilar “chiqish chiptasi”ni bajarishda qisqacharoq topshiriqni bajarishi yoki javoblarini yozma taqdim etish o‘rniga audio matn taqdim etishlari mumkin.

Kundalik amaliyotga formativ baholashni kiritish orqali o‘qituvchilar o‘sish va uzluksiz takomillashishga qaratilgan dinamik sinf madaniyatini yaratishlari mumkin.

**1-tarqatma material. Refleksiya. Tavsiya etilgan javoblar**

1. Diagnostik baholash ilgari egallangan bilimlarni va noto‘g‘ri tasavvru, tushunchalarni aniqlaydi. (TO‘G‘RI)
2. Formativ baholash o‘quv faoliyati natijalarini baholashning yakuniy shakli hisoblanadi. (NOTO‘G‘RI)
3. Chiqish chiptalari o‘quvchilarning ilgari egallangan bilimlarini faollashtirish uchun darsning boshlanishida beriladigan qisqacha baholash topshiriqlaridir. (NOTO‘G‘RI)
4. O‘z-o‘zini baholash o‘quvchilarga nazorat ro‘yxatlari yoki rubrikalar yordamida o‘z faoliyatlari xususida refleksiv mushohoda qilishga undaydi. (TO‘G‘RI)
5. Samarali qayta aloqa umumiy va mavhum ko‘rinishda bo‘ladi. (NOTO‘G‘RI). Samarali qayta aloqa aniq va bajariladigan bo‘lishi lozim.

**Reja:**

**1. Baholashning yangi tizimi o‘rganishning dolzarbligi**
**2. Baholash tamoyillari**
**3. Formativ (shakllantiruvchi) va summativ (xulosalovchi) maqsadlarda baholash.**

## 1. Baholashning yangi tizimi o‘rganishning dolzarbligi

O‘quvchilar bilimini baholashning yangi tizimlari zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Texnologiyalar rivojlanishi va ta’limda innovatsiyalar joriy etilishi natijasida bilimlarni baholashda turli yondashuvlar paydo bo‘lmoqda. Quyida ushbu tizimlarning asosiy xususiyatlari va yondashuvlari mavjud.

O‘quvchilarning chuqurroq ta’lim olishini rag‘batlantirish uchun o‘quv jarayoni mazmuniga baholashni qanday singdirishimiz mumkin?

Baholash o‘qitish va o‘rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi jarayon bo‘lib, bunda o‘quv jarayonini o‘lchash, hujjatlashtirish va qo‘llab-quvvatlash uchun turli xil vosita va usullar qo‘llaniladi.

1-tarqatma material. Kirish mashqi

Quyida berilgan gaplar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi bo‘yicha qaror qiling. Agar ular noto‘g‘ri bo‘lsa sabablarini izohlang:

1. Diagnostik baholash ilgari egallangan bilimlarni va noto‘g‘ri tasavvur, tushunchalarni aniqlaydi.

2. Formativ baholash o‘quv faoliyati natijalarini baholashning yakuniy shakli hisoblanadi.

3. Chiqish chiptalari o‘quvchilarning ilgari egallangan bilimlarini faollashtirish uchun darsning boshlanishida beriladigan qisqacha baholash topshiriqlaridir.

4. O‘z-o‘zini baholash o‘quvchilarga nazorat ro‘yxatlari yoki rubrikalar yordamida o‘z faoliyatlari xususida refleksiv mushohoda qilishga undaydi.

5. Samarali qayta aloqa umumiy va mavhum ko‘rinishda bo‘ladi.

Mavzuga kirish sifatida o‘qituvchilarni to‘g‘ri/noto‘g‘ri mashqini bajarish orqali egallagan bilimlarini takrorlash, ilgari egallangan bilimlarni faollashtirish va ularning mavzuga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish uchun mo‘ljallangan mashq hisoblanadi. Bu mashq ularning baholash haqidagi bilimlarini tekshirish uchun mo‘ljallanmagan. Mashg‘ulot yakunida o‘qituvchilar o‘z javoblarini qayta ko‘rib chiqishi va mashg‘ulot davomida egallagan yangi bilimlar va tushunchalarini qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

## 2. Baholash tamoyillari

Samarali baholash o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular moslashtirish mashqi orqali taqdim etiladi.

**2-tarqatma material. Baholash tamoyillari: Solishtirish mashqi**

| Xususiyat | Izoh/ta’rif |
|---|---|
| Validlik | Baholash maqsadi, topshiriq bo‘yicha ko‘rsatmalar va uni bajarishdan kutilmalar baholanuvchilar tomonidan oson tushuniladi. |
| Inklyuzivlik | O‘lchash/baholash ko‘zda tutilgan narsalarnigina o‘lchashi/baholashi kerak. |
| Qo‘llaniladigan | Natijalar baholash vaqti va baholovchilardan qat’iy nazar izchil bo‘lishi lozim. |
| Ishonchlilik | Turli o‘quvchilar uchun mos bo‘lishi lozim. |
| Aniqlik | Maqsadlar, natijalar va vazifalar bir-biriga mos hamda o‘quv dasturi yoki standartga mos bo‘lishi lozim. |
| Moslik | O‘quvchilarga qayta aloqa va refleksiya orqali o‘rganish imkoniyatini taqdim etishi lozim. |

Ushbu topshiriqni bajarishda o‘qituvchilar samarali baholashning oltita xususiyatiga qaragan holda ularning mos ta’rifini topishlari kerak bo‘ladi. O‘qituvchilar avval bu mashqni yakka tarzda bajarishi va so‘ng javoblarini yonlarida o‘tirgan sheriklariniki bilan taqqoslashlari mumkin bo‘ladi.

Ushbu mashqqa yakun yasash uchun, o‘qituvchilardan samarali baholashning mazkur xususiyatlarini ularning fikricha eng muhimidan tortib eng muhim bo‘lmaganiga ko‘ra tartibda qo‘yib chiqishni so‘rang. Ulardan yana sheriklari bilan juft bo‘lib ishlagan holda nima uchun bunday tartibda qo‘yganliklarini muhokama qilishni va tanlangan tartib uchun o‘z sabablarini bir-birlariga tushuntirishlarini so‘rang. Ushbu xususiyatlarning oldindan belgilangan bironta tartibi mavjud emas. Mashqdagi ushbu bosqichni bajarishdan maqsad o‘qituvchilarga ushbu xususiyatlar haqida yanada chuqurroq fikrlash va ularni o‘z ish faoliyati kontekstiga bog‘lash imkonini berish hisoblanadi. Bu bo‘yicha umuman boshqacha qarash va fikrga ega bo‘lgan o‘qituvchilarning fikr va mulohozalarini tinglash orqali o‘qituvchilar ushbu xususiyatlarga umuman boshqa tomondan nazar solishlari va yanada chuqurroq tushunchaga ega bo‘lishlari mumkin. Yakuniy bosqich sifatida o‘qituvchilardan baholashning tamoyillari bo‘yicha o‘rganganlari, ularning

ahamiyati va o‘zlarinikidan farq qiluvchi qarashlarni umumlashtirgan holda o‘z refleksiv jurnallariga qayd kiritib qo‘yishlarini so‘rash lozim.

### 3. Formativ (shakllantiruvchi) va summativ (xulosalovchi) maqsadlarda baholash

O‘quvchilarning o‘qib-o‘rganishlariga katta ta’sir ko‘rsatuvchi ikkita baholash turi mavjud. Ushbu baholashning ikki turi bo‘yicha ko‘proq o‘rganish uchun o‘qituvchilar jigsaw mashqini bajarishadi. Bunda har ikkala baholash turi haqida ma’lumot berilgan tarqatma materialdan foydalanishadi. O‘qituvchilarni ikkita kichik guruhlarga ajrating. Birinchi guruh Formativ baholash haqida ma’lumot berilgan tarqatma materialga diqqatini qaratishadi. Ikkinchi kichik guruh bo‘lsa Summativ baholash haqida ma’lumot berilgan tarqatma material bilan ishlashadi. O‘qituvchilarga mos tarqatma materiallarni berib chiqing va yakka tarzda berilgan ma’lumotni o‘qib chiqishni so‘rang.

### 3-tarqatma material: Formativ baholashga kirish

Formativ (shakllantiruvchi) maqsadlarda baholash yoki qisqacha qilib aytganda formativ baholash, samarali o‘qitishning asosini tashkil qilib, o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning o‘qib-o‘rganishini monitoring qilish va takomillashtirish uchun ishlab chiqiladi. Bo‘lim, chorak yoki yunitning so‘ngida o‘qib-o‘rganishni baholovchi summativ (xulosalovchi) baholashdan farqli o‘laroq, formativ baholash uzluksiz jarayon bo‘lib, ham o‘qituvchilarga ham o‘quvchilarga o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, takomillashtirish kerak bo‘lgan jabhalarni aniqlashtirish va tezkor ravishda qo‘yilishi kerak bo‘lgan keyingi qadamlarni aniqlash imkonini beradi.

Formativ baholashning afzalliklari va foydali tomonlaridan bittasi bu uning o‘quv jarayonini yo‘naltirishga yordam berishidadir. O‘qituvchilar darslar davomida formativ baholash topshiriqlari sifatida qo‘llanilgan viktorinalar, muhokamalar yoki o‘z kuzatuvlari orqali olingan ma’lumotlarga tayangan holda o‘qitish metodlarini moslashtirishlari va tushunmovchiliklar, o‘quvchilarning o‘tilayotgan materiallarni tushunishidagi qiyinchiliklarga tezkor tarzda murojaat qilish imkonini beradi. Masalar, o‘qituvchi “chiqish chiptalari” (o‘quvchilar o‘z ishini tekshirish va baholashi va o‘rganayotganlari hamda erishayotgan natijalari xususida refleksiv mushohoda yuritish imkonini beruvchi mezonlar ro‘yxatini) berish orqali dars davomida o‘tilgan tushuncha yoki mavzuniing o‘quvchilar tomonidan tushunilganligini o‘lchashi mumkin va zarur bo‘lsa keyingi kun ushbu mavzu yoki o‘tilgan tushunchani yana takrorlashi mumkin.

Formativ baholashning yana bir foydali tomoni bu uning o‘quvchilarda o‘z o‘qib-o‘rganishiga egalik qilish va unga mas’uliyatli bo‘lishga rag‘batlantirishida aks etadi. O‘z-o‘zini baholash va o‘quvchilarning o‘zaro bir-birini baholash kabi texnikalari o‘quvchilarga erishayotgan natijalari bo‘yicha refleksiv mushohoda qilish va shasxiy maqsadlarni belgilash imkonini beradi. Bunday refleksiv amaliyot o‘quvchilarning nafaqat tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi balki ularning ta’lim olish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi.

Formativ baholash qachonki undan tez-tez, turli ko‘rinishlarda foydalanib turilsagina va ushbu baholashdan kelib chiqadigan salbiy oqibatlar o‘quvchilar uchun qanchalik kam bo‘lsa shuncha samarali hisoblanadi. O‘qituvchilar ushbu baholash turini amalda qo‘llashning turli strategiyalaridan, norasmiy savol-javobdan tortib anchayin strukturalashgan “fikrla-muhokama qil-o‘rtoqlash” kabi strategiyalardan foydalanishlari mumkin. Bundan kutilgan yakuniy maqsad o‘quvchilar uchun tajriba qilish, xatolarga yo‘l qo‘yish va ulardan o‘rganish imkonini beruvchi qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratish hisoblanadi.

Inklyuziv sinflarda turli o‘quvchilarning ehtiyojlariga murojaat qilish uchun o‘qituvchilar tabaqalashtirilgan formativ baholash vositalaridan foydalanishi, ya’ni o‘quvchilarning turli darajalari va ehtiyojlaridan kelib chiquvchi topshiriq va vazifalardan foydalanishi mumkin. Masalan, ayrim o‘quvchilar “chiqish chiptasi”ni bajarishda qisqacharoq topshiriqni bajarishi yoki javoblarini yozma taqdim etish o‘rniga audio matn taqdim etishlari mumkin.

Kundalik amaliyotga formativ baholashni kiritish orqali o‘qituvchilar o‘sish va uzluksiz takomillashishga qaratilgan dinamik sinf madaniyatini yaratishlari mumkin.

O‘qituvchilardan o‘qish davomida matndagi asosiy g‘oyalarni belgilab chiqishni va tegishli qaydlar qilishni so‘rang. Birinchi bosqichni tamomlagach, o‘qituvchilar Formativ baholash bo‘yicha “ekspert” va Summativ baholash bo‘yicha “ekspert”lar bilan juftlanadi. Har bir o‘qituvchilar juftligi tarqatma materialda o‘zlariga tegishli mavzu bo‘yicha o‘rganganlarini o‘z hamrohlari bilan o‘rtoqlashadi, ikkita baholash turi o‘rtasidagi farqli tomonlarni muhokama qilishadi va o‘z tajribalarida ushbu baholash turlaridan qanday foydalanganliklari bo‘yicha misollar keltirishadi. So‘ng ular o‘z xulosalarini umumlashtirgan holda hamkorlikda poster yaratishadi va bu posterda ular yangi grafik organayzer yaratib ikkala baholash turiga tushuntirish berishadi. Ular shuningdek posterga har ikkala baholash turining xususiyatini tushuntitib beruvchi belgi, rasm va simvollar tasvirini tushirishadi.

Yaratilgan posterlar auditoriya devorlariga osib qo‘yiladi va o‘qituvchilar galereya bo‘ylab sayohat qilishadi. Bunda o‘qituvchilar auditoriya bo‘ylab yurib tayyorlangan posterlarni tomosha qilishadi, ularda berilgan ma’lumotlar bilan tanishib chiqishadi hamda o‘zlari uchun tegishli qaydlar olishadi. Yakuniy bosqich sifatida o‘qituvchilardan o‘z refleksiv jurnallariga ushbu faoliyatdan o‘rganganlari bo‘yicha hamda sinfxonada ushbu baholash turlaridan foydalanishning amaliy jihatlari haqida qisqacha qayd qilib qo‘yishni so‘rang.

Ushbu mavzuga kirish mashqi sifatida o‘qituvchilarga Kirish mashqida to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini topish so‘ralgan 5 ta gap berilgan edi. Ushbu bosqichda o‘qituvchilar kirish mashqidagi javoblarini qayta ko‘rib chiqishadi va kerak hollarda o‘z javoblariga kerakli tuzatishlar kiritishadi hamda ushbu tuzatishlarni kiritishlariga turtki bo‘lgan sabablarni keltirishadi.

Ilk bor berilgan javoblarini tekshirib bo‘lishgach va kerakli tuzatishlarni kiritib bo‘lgach, o‘qituvchilarga 1-Refleksiya tarqatma materialida berilgan tavsiya etilgan javoblarni bering.

O‘qituvchilardan o‘z javoblarini tavsiya etilgan javoblar bilan taqqoslashni so‘rang va ular payqagan har qanday farqli tomonlarni qayd qilishlarini so‘rang. Yakunlovchi bosqich sifatida o‘qituvchilar ushbu mashqda o‘rganganlari bo‘yicha xulosalarini refleksiv jurnallariga qayd qilib qo‘yishadi.

**Mavzu: Formativ va summativ baholash tizimi va mohiyati, baholash mezonlari**

## Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

| | |
|---|---|
| **O‘quv bloki** | II. Umumkasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish |
| **O‘quv modul** | 2.5. Formativ va summativ baholash tamoyillari |
| **Mavzu** | O‘quvchilar bilimini baholashning yangi tizimi |
| **Davomiyligi** | 80 daqiqa |
| **Mashg‘ulotning maqsadi** | • Dars rejasiga formativ baholash topshiriqlarini kamida ikkita turini kiritish orqali baholashning asosiy tamoyillari va maqsadlarini tushunish; |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | • Qayta aloqa berish amaliyoti haqida fikr yuritadi va sinfda qo‘llashga mo‘ljallangan samarali qayta aloqaning xususiyatlari ro‘yxatini tuzish. | | | | |
| **Mashg‘ulot bosqichlari** | **Faoliyat tavsifi** | **Vaqt, daqiqa** | **Metodlar** | **Zarur jihozlar** | **Natija** |
| **1. Tashkiliy qism** | - Salomlashish<br>- Mavzu bilan tanishtirish | 5 | Suhbat, tushuntirish | 1-2-slaydlar | O‘qituvchilar mashg‘ulotga tayyor bo‘lishadi. |
| **2. Motivatsiya** | - Mashg‘ulotning mavzusiga yo’naltiruvchi savol berish;<br>- Kirish mashqini o’tkazish. | 10 | Muammoli vaziyat yaratish, muhokama | 3-slayd | O‘qituvchilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag‘batlanadi. |
| **3. Nazariy qism** | - Baholash tamoyillari haqida bahs-munozara;<br>- Baholash turlari;<br>- Slaydlar bilan tushuntirish | 15 | Taqdimot, ko‘rgazmali tushuntirish | 4-slayd 1-ilova | O‘qituvchilar fanni o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni nazariy jihatdan o‘rganadi. |
| **4. Amaliy mashg‘ulot** | - Guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqlar bajarish;<br>- Solishtirma mashq tarqatmasi yordamida muhokama qilish; | 20 | Guruhlarda ishlash | 5-7-slaydlar 2-3-ilova | O‘qituvchilar guruhlarda ishlash amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi. |
| **5. Tahlil va muhokama** | - Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar; | 20 | Suhbat, muhokama, tahlil | 8-slayd | O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | - Qiyinchiliklarni muhokama qilish;<br>- Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish; | | | | g‘oyalarni o‘zlashtiradi. |
| **6. Refleksiya** | - O‘z maktablarida hamkasblari bilan hamkorlikda ishlagan holda formativ va summativ baholash topshiriqlarini yaratish. | 5 | Refleksiya usullari | 9-slayd | O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi. |
| **7. Yakunlash va baholash** | - Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish<br>- Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish | 5 | Suhbat | 10-slayd | O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo‘naltiriladi. |

**Ilovalar**

**1-ilova**

**1-tarqatma material. Kirish mashqi**

Quyida berilgan gaplar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi bo‘yicha qaror qiling. Agar ular noto‘g‘ri bo‘lsa sabablarini izohlang:

1. Diagnostik baholash ilgari egallangan bilimlarni va noto‘g‘ri tasavvur, tushunchalarni aniqlaydi.
2. Formativ baholash o‘quv faoliyati natijalarini baholashning yakuniy shakli hisoblanadi.

3. Chiqish chiptalari o‘quvchilarning ilgari egallangan bilimlarini faollashtirish uchun darsning boshlanishida beriladigan qisqacha baholash topshiriqlaridir.
4. O‘z-o‘zini baholash o‘quvchilarga nazorat ro‘yxatlari yoki rubrikalar yordamida o‘z faoliyatlari xususida refleksiv mushohoda qilishga undaydi.
5. Samarali qayta aloqa umumiy va mavhum ko‘rinishda bo‘ladi.

**2-ilova**

**2-tarqatma material. Baholash tamoyillari: Solishtirish mashqi**

| **Xususiyat** | **Izoh/ta’rif** |
|---|---|
| Validlik | Baholash maqsadi, topshiriq bo‘yicha ko‘rsatmalar va uni bajarishdan kutilmalar baholanuvchilar tomonidan oson tushuniladi. |
| Inklyuzivlik | O‘lchash/baholash ko‘zda tutilgan narsalarnigina o‘lchashi/baholashi kerak. |
| Qo‘llaniladigan | Natijalar baholash vaqti va baholovchilardan qat’iy nazar izchil bo‘lishi lozim. |
| Ishonchlilik | Turli o‘quvchilar uchun mos bo‘lishi lozim. |
| Aniqlik | Maqsadlar, natijalar va vazifalar bir-biriga mos hamda o‘quv dasturi yoki standartga mos bo‘lishi lozim. |
| Moslik | O‘quvchilarga qayta aloqa va refleksiya orqali o‘rganish imkoniyatini taqdim etishi lozim. |

**2-tarqatma material: javoblar**

| | |
|---|---|
| Aniqlik | Baholash maqsadi, topshiriq bo‘yicha ko‘rsatmalar va uni bajarishdan kutilmalar baholanuvchilar tomonidan oson tushuniladi. |

| | |
|---|---|
| Validlik | O‘lchash/baholash ko‘zda tutilgan narsalarnigina o‘lchashi/baholashi kerak. |
| Ishonchlilik | Natijalar baholash vaqti va baholovchilardan qat’iy nazar izchil bo‘lishi lozim. |
| Inklyuzivlik | Turli o‘quvchilar uchun mos bo‘lishi lozim. |
| Moslik | Maqsadlar, natijalar va vazifalar bir-biriga mos hamda o‘quv dasturi yoki standartga mos bo‘lishi lozim. |
| Qo‘llaniladigan | O‘quvchilarga qayta aloqa va refleksiya orqali o‘rganish imkoniyatini taqdim etishi lozim. |

**3-tarqatma material: Formativ baholashga kirish**

Formativ (shakllantiruvchi) maqsadlarda baholash yoki qisqacha qilib aytganda formativ baholash, samarali o‘qitishning asosini tashkil qilib, o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning o‘qib-o‘rganishini monitoring qilish va takomillashtirish uchun ishlab chiqiladi. Bo‘lim, chorak yoki yunitning so‘ngida o‘qib-o‘rganishni baholovchi summativ (xulosalovchi) baholashdan farqli o‘laroq, formativ baholash uzluksiz jarayon bo‘lib, ham o‘qituvchilarga ham o‘quvchilarga o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, takomillashtirish kerak bo‘lgan jabhalarni aniqlashtirish va tezkor ravishda qo‘yilishi kerak bo‘lgan keyingi qadamlarni aniqlash imkonini beradi.

Formativ baholashning afzalliklari va foydali tomonlaridan bittasi bu uning o‘quv jarayonini yo‘naltirishga yordam berishidadir. O‘qituvchilar darslar davomida formativ baholash topshiriqlari sifatida qo‘llanilgan viktorinalar, muhokamalar yoki o‘z kuzatuvlari orqali olingan ma’lumotlarga tayangan holda o‘qitish metodlarini moslashtirishlari va tushunmovchiliklar, o‘quvchilarning o‘tilayotgan materiallarni tushunishidagi qiyinchiliklarga tezkor tarzda murojaat qilish imkonini beradi. Masalar, o‘qituvchi “chiqish chiptalari” (o‘quvchilar o‘z ishini tekshirish va baholashi va o‘rganayotganlari hamda erishayotgan natijalari xususida refleksiv mushohoda yuritish imkonini beruvchi mezonlar ro‘yxatini) berish orqali dars davomida o‘tilgan tushuncha yoki mavzuniing o‘quvchilar tomonidan tushunilganligini o‘lchashi mumkin va zarur bo‘lsa keyingi kun ushbu mavzu yoki o‘tilgan tushunchani yana takrorlashi mumkin.

Formativ baholashning yana bir foydali tomoni bu uning o‘quvchilarda o‘z o‘qib-o‘rganishiga egalik qilish va unga mas’uliyatli bo‘lishga rag‘batlantirishida aks etadi. O‘z-o‘zini baholash va o‘quvchilarning o‘zaro bir-

birini baholash kabi texnikalari o‘quvchilarga erishayotgan natijalari bo‘yicha refleksiv mushohoda qilish va shasxiy maqsadlarni belgilash imkonini beradi. Bunday refleksiv amaliyot o‘quvchilarning nafaqat tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi balki ularning ta’lim olish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi.

Formativ baholash qachonki undan tez-tez, turli ko‘rinishlarda foydalanib turilsagina va ushbu baholashdan kelib chiqadigan salbiy oqibatlar o‘quvchilar uchun qanchalik kam bo‘lsa shuncha samarali hisoblanadi. O‘qituvchilar ushbu baholash turini amalda qo‘llashning turli strategiyalaridan, norasmiy savol-javobdan tortib anchayin strukturalashgan “fikrla-muhokama qil-o‘rtoqlash” kabi strategiyalardan foydalanishlari mumkin. Bundan kutilgan yakuniy maqsad o‘quvchilar uchun tajriba qilish, xatolarga yo‘l qo‘yish va ulardan o‘rganish imkonini beruvchi qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratish hisoblanadi.

Inklyuziv sinflarda turli o‘quvchilarning ehtiyojlariga murojaat qilish uchun o‘qituvchilar tabaqalashtirilgan formativ baholash vositalaridan foydalanishi, ya’ni o‘quvchilarning turli darajalari va ehtiyojlaridan kelib chiquvchi topshiriq va vazifalardan foydalanishi mumkin. Masalan, ayrim o‘quvchilar “chiqish chiptasi”ni bajarishda qisqacharoq topshiriqni bajarishi yoki javoblarini yozma taqdim etish o‘rniga audio matn taqdim etishlari mumkin.

Kundalik amaliyotga formativ baholashni kiritish orqali o‘qituvchilar o‘sish va uzluksiz takomillashishga qaratilgan dinamik sinf madaniyatini yaratishlari mumkin.

**1-tarqatma material. Refleksiya. Tavsiya etilgan javoblar**

1. Diagnostik baholash ilgari egallangan bilimlarni va noto‘g‘ri tasavvru, tushunchalarni aniqlaydi. (TO‘G‘RI)
2. Formativ baholash o‘quv faoliyati natijalarini baholashning yakuniy shakli hisoblanadi. (NOTO‘G‘RI)
3. Chiqish chiptalari o‘quvchilarning ilgari egallangan bilimlarini faollashtirish uchun darsning boshlanishida beriladigan qisqacha baholash topshiriqlaridir. (NOTO‘G‘RI)
4. O‘z-o‘zini baholash o‘quvchilarga nazorat ro‘yxatlari yoki rubrikalar yordamida o‘z faoliyatlari xususida refleksiv mushohoda qilishga undaydi. (TO‘G‘RI)
5. Samarali qayta aloqa umumiy va mavhum ko‘rinishda bo‘ladi. (NOTO‘G‘RI). Samarali qayta aloqa aniq va bajariladigan bo‘lishi lozim.

**Reja:**

**4. Baholashning yangi tizimi o‘rganishning dolzarbligi**

**5. Baholash tamoyillari**

## 6. Formativ (shakllantiruvchi) va summativ (xulosalovchi) maqsadlarda baholash.

### 1. Baholashning yangi tizimi o‘rganishning dolzarbligi

O‘quvchilar bilimini baholashning yangi tizimlari zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Texnologiyalar rivojlanishi va ta’limda innovatsiyalar joriy etilishi natijasida bilimlarni baholashda turli yondashuvlar paydo bo‘lmoqda. Quyida ushbu tizimlarning asosiy xususiyatlari va yondashuvlari mavjud.

O‘quvchilarning chuqurroq ta’lim olishini rag‘batlantirish uchun o‘quv jarayoni mazmuniga baholashni qanday singdirishimiz mumkin?

Baholash o‘qitish va o‘rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi jarayon bo‘lib, bunda o‘quv jarayonini o‘lchash, hujjatlashtirish va qo‘llab-quvvatlash uchun turli xil vosita va usullar qo‘llaniladi.

1-tarqatma material. Kirish mashqi

Quyida berilgan gaplar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi bo‘yicha qaror qiling. Agar ular noto‘g‘ri bo‘lsa sabablarini izohlang:

1. Diagnostik baholash ilgari egallangan bilimlarni va noto‘g‘ri tasavvur, tushunchalarni aniqlaydi.
2. Formativ baholash o‘quv faoliyati natijalarini baholashning yakuniy shakli hisoblanadi.
3. Chiqish chiptalari o‘quvchilarning ilgari egallangan bilimlarini faollashtirish uchun darsning boshlanishida beriladigan qisqacha baholash topshiriqlaridir.
4. O‘z-o‘zini baholash o‘quvchilarga nazorat ro‘yxatlari yoki rubrikalar yordamida o‘z faoliyatlari xususida refleksiv mushohoda qilishga undaydi.
5. Samarali qayta aloqa umumiy va mavhum ko‘rinishda bo‘ladi.

Mavzuga kirish sifatida o‘qituvchilarni to‘g‘ri/noto‘g‘ri mashqini bajarish orqali egallagan bilimlarini takrorlash, ilgari egallangan bilimlarni faollashtirish va ularning mavzuga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish uchun mo‘ljallangan mashq hisoblanadi. Bu mashq ularning baholash haqidagi bilimlarini tekshirish uchun mo‘ljallanmagan. Mashg‘ulot yakunida o‘qituvchilar o‘z javoblarini qayta ko‘rib chiqishi va mashg‘ulot davomida egallagan yangi bilimlar va tushunchalarini qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

### 2. Baholash tamoyillari

Samarali baholash o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular moslashtirish mashqi orqali taqdim etiladi.

**2-tarqatma material. Baholash tamoyillari: Solishtirish mashqi**

| Xususiyat | Izoh/ta’rif |
|---|---|
| Validlik | Baholash maqsadi, topshiriq bo‘yicha ko‘rsatmalar va uni bajarishdan kutilmalar baholanuvchilar tomonidan oson tushuniladi. |
| Inklyuzivlik | O‘lchash/baholash ko‘zda tutilgan narsalarnigina o‘lchashi/baholashi kerak. |
| Qo‘llaniladigan | Natijalar baholash vaqti va baholovchilardan qat’iy nazar izchil bo‘lishi lozim. |
| Ishonchlilik | Turli o‘quvchilar uchun mos bo‘lishi lozim. |
| Aniqlik | Maqsadlar, natijalar va vazifalar bir-biriga mos hamda o‘quv dasturi yoki standartga mos bo‘lishi lozim. |
| Moslik | O‘quvchilarga qayta aloqa va refleksiya orqali o‘rganish imkoniyatini taqdim etishi lozim. |

Ushbu topshiriqni bajarishda o‘qituvchilar samarali baholashning oltita xususiyatiga qaragan holda ularning mos ta’rifini topishlari kerak bo‘ladi. O‘qituvchilar avval bu mashqni yakka tarzda bajarishi va so‘ng javoblarini yonlarida o‘tirgan sheriklariniki bilan taqqoslashlari mumkin bo‘ladi.

Ushbu mashqqa yakun yasash uchun, o‘qituvchilardan samarali baholashning mazkur xususiyatlarini ularning fikricha eng muhimidan tortib eng muhim bo‘lmaganiga ko‘ra tartibda qo‘yib chiqishni so‘rang. Ulardan yana sheriklari bilan juft bo‘lib ishlagan holda nima uchun bunday tartibda qo‘yganliklarini muhokama qilishni va tanlangan tartib uchun o‘z sabablarini bir-birlariga tushuntirishlarini so‘rang. Ushbu xususiyatlarning oldindan belgilangan bironta tartibi mavjud emas. Mashqdagi ushbu bosqichni bajarishdan maqsad o‘qituvchilarga ushbu xususiyatlar haqida yanada chuqurroq fikrlash va ularni o‘z ish faoliyati kontekstiga bog‘lash imkonini berish hisoblanadi. Bu bo‘yicha umuman boshqacha qarash va fikrga ega bo‘lgan o‘qituvchilarning fikr va mulohozalarini tinglash orqali o‘qituvchilar ushbu xususiyatlarga umuman boshqa tomondan nazar solishlari va yanada chuqurroq tushunchaga ega bo‘lishlari mumkin. Yakuniy bosqich sifatida o‘qituvchilardan baholashning tamoyillari bo‘yicha o‘rganganlari, ularning ahamiyati va o‘zlarinikidan farq qiluvchi qarashlarni umumlashtirgan holda o‘z refleksiv jurnallariga qayd kiritib qo‘yishlarini so‘rash lozim.

**3. Formativ (shakllantiruvchi) va summativ (xulosalovchi) maqsadlarda baholash**

O‘quvchilarning o‘qib-o‘rganishlariga katta ta’sir ko‘rsatuvchi ikkita baholash turi mavjud. Ushbu baholashning ikki turi bo‘yicha ko‘proq o‘rganish uchun o‘qituvchilar jigsaw mashqini bajarishadi. Bunda har ikkala baholash turi haqida ma’lumot berilgan tarqatma materialdan foydalanishadi. O‘qituvchilarni ikkita kichik guruhlarga ajrating. Birinchi guruh Formativ baholash haqida ma’lumot berilgan tarqatma materialga diqqatini qaratishadi. Ikkinchi kichik guruh bo‘lsa Summativ baholash haqida ma’lumot berilgan tarqatma material bilan ishlashadi. O‘qituvchilarga mos tarqatma materiallarni berib chiqing va yakka tarzda berilgan ma’lumotni o‘qib chiqishni so‘rang.

**3-tarqatma material: Formativ baholashga kirish**

Formativ (shakllantiruvchi) maqsadlarda baholash yoki qisqacha qilib aytganda formativ baholash, samarali o‘qitishning asosini tashkil qilib, o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning o‘qib-o‘rganishini monitoring qilish va takomillashtirish uchun ishlab chiqiladi. Bo‘lim, chorak yoki yunitning so‘ngida o‘qib-o‘rganishni baholovchi summativ (xulosalovchi) baholashdan farqli o‘laroq, formativ baholash uzluksiz jarayon bo‘lib, ham o‘qituvchilarga ham o‘quvchilarga o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, takomillashtirish kerak bo‘lgan jabhalarni aniqlashtirish va tezkor ravishda qo‘yilishi kerak bo‘lgan keyingi qadamlarni aniqlash imkonini beradi.

Formativ baholashning afzalliklari va foydali tomonlaridan bittasi bu uning o‘quv jarayonini yo‘naltirishga yordam berishidadir. O‘qituvchilar darslar davomida formativ baholash topshiriqlari sifatida qo‘llanilgan viktorinalar, muhokamalar yoki o‘z kuzatuvlari orqali olingan ma’lumotlarga tayangan holda o‘qitish metodlarini moslashtirishlari va tushunmovchiliklar, o‘quvchilarning o‘tilayotgan materiallarni tushunishidagi qiyinchiliklarga tezkor tarzda murojaat qilish imkonini beradi. Masalar, o‘qituvchi “chiqish chiptalari” (o‘quvchilar o‘z ishini tekshirish va baholashi va o‘rganayotganlari hamda erishayotgan natijalari xususida refleksiv mushohoda yuritish imkonini beruvchi mezonlar ro‘yxatini) berish orqali dars davomida o‘tilgan tushuncha yoki mavzuniing o‘quvchilar tomonidan tushunilganligini o‘lchashi mumkin va zarur bo‘lsa keyingi kun ushbu mavzu yoki o‘tilgan tushunchani yana takrorlashi mumkin.

Formativ baholashning yana bir foydali tomoni bu uning o‘quvchilarda o‘z o‘qib-o‘rganishiga egalik qilish va unga mas’uliyatli bo‘lishga rag‘batlantirishida aks etadi. O‘z-o‘zini baholash va o‘quvchilarning o‘zaro bir-birini baholash kabi texnikalari o‘quvchilarga erishayotgan natijalari bo‘yicha refleksiv mushohoda qilish va shasxiy maqsadlarni belgilash imkonini beradi. Bunday refleksiv amaliyot o‘quvchilarning nafaqat tanqidiy fikrlash

koʻnikmalarini rivojlantiradi balki ularning ta’lim olish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi.

Formativ baholash qachonki undan tez-tez, turli koʻrinishlarda foydalanib turilsagina va ushbu baholashdan kelib chiqadigan salbiy oqibatlar oʻquvchilar uchun qanchalik kam boʻlsa shuncha samarali hisoblanadi. Oʻqituvchilar ushbu baholash turini amalda qoʻllashning turli strategiyalaridan, norasmiy savol-javobdan tortib anchayin strukturalashgan “fikrla-muhokama qil-oʻrtoqlash” kabi strategiyalardan foydalanishlari mumkin. Bundan kutilgan yakuniy maqsad oʻquvchilar uchun tajriba qilish, xatolarga yoʻl qoʻyish va ulardan oʻrganish imkonini beruvchi qoʻllab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratish hisoblanadi.

Inklyuziv sinflarda turli oʻquvchilarning ehtiyojlariga murojaat qilish uchun oʻqituvchilar tabaqalashtirilgan formativ baholash vositalaridan foydalanishi, ya’ni oʻquvchilarning turli darajalari va ehtiyojlaridan kelib chiquvchi topshiriq va vazifalardan foydalanishi mumkin. Masalan, ayrim oʻquvchilar “chiqish chiptasi”ni bajarishda qisqacharoq topshiriqni bajarishi yoki javoblarini yozma taqdim etish oʻrniga audio matn taqdim etishlari mumkin.

Kundalik amaliyotga formativ baholashni kiritish orqali oʻqituvchilar oʻsish va uzluksiz takomillashishga qaratilgan dinamik sinf madaniyatini yaratishlari mumkin.

Oʻqituvchilardan oʻqish davomida matndagi asosiy gʻoyalarni belgilab chiqishni va tegishli qaydlar qilishni soʻrang. Birinchi bosqichni tamomlagach, oʻqituvchilar Formativ baholash boʻyicha “ekspert” va Summativ baholash boʻyicha “ekspert”lar bilan juftlanadi. Har bir oʻqituvchilar juftligi tarqatma materialda oʻzlariga tegishli mavzu boʻyicha oʻrganganlarini oʻz hamrohlari bilan oʻrtoqlashadi, ikkita baholash turi oʻrtasidagi farqli tomonlarni muhokama qilishadi va oʻz tajribalarida ushbu baholash turlaridan qanday foydalanganliklari boʻyicha misollar keltirishadi. Soʻng ular oʻz xulosalarini umumlashtirgan holda hamkorlikda poster yaratishadi va bu posterda ular yangi grafik organayzer yaratib ikkala baholash turiga tushuntirish berishadi. Ular shuningdek posterga har ikkala baholash turining xususiyatini tushuntitib beruvchi belgi, rasm va simvollar tasvirini tushirishadi.

Yaratilgan posterlar auditoriya devorlariga osib qoʻyiladi va oʻqituvchilar galereya boʻylab sayohat qilishadi. Bunda oʻqituvchilar auditoriya boʻylab yurib tayyorlangan posterlarni tomosha qilishadi, ularda berilgan ma’lumotlar bilan tanishib chiqishadi hamda oʻzlari uchun tegishli qaydlar olishadi. Yakuniy bosqich sifatida oʻqituvchilardan oʻz refleksiv jurnallariga ushbu faoliyatdan oʻrganganlari boʻyicha hamda sinfxonada ushbu baholash turlaridan foydalanishning amaliy jihatlari haqida qisqacha qayd qilib qoʻyishni soʻrang.

Ushbu mavzuga kirish mashqi sifatida o‘qituvchilarga Kirish mashqida to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini topish so‘ralgan 5 ta gap berilgan edi. Ushbu bosqichda o‘qituvchilar kirish mashqidagi javoblarini qayta ko‘rib chiqishadi va kerak hollarda o‘z javoblariga kerakli tuzatishlar kiritishadi hamda ushbu tuzatishlarni kiritishlariga turtki bo‘lgan sabablarni keltirishadi.

Ilk bor berilgan javoblarini tekshirib bo‘lishgach va kerakli tuzatishlarni kiritib bo‘lgach, o‘qituvchilarga 1-Refleksiya tarqatma materialida berilgan tavsiya etilgan javoblarni bering.

O‘qituvchilardan o‘z javoblarini tavsiya etilgan javoblar bilan taqqoslashni so‘rang va ular payqagan har qanday farqli tomonlarni qayd qilishlarini so‘rang. Yakunlovchi bosqich sifatida o‘qituvchilar ushbu mashqda o‘rganganlari bo‘yicha xulosalarini refleksiv jurnallariga qayd qilib qo‘yishadi.